O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYAT PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

RAXMONOVA BARNOXON ODILOVNA

ONA TILI VA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi ilmiy kengashining 2024 yil 22-apreldagi 2-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

Andijon-2024

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli yoshlarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar ona tili va adabiyot sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Taqrizchilar:

N.Achilova – Navoiy davlat pedagogika instituti, Tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

N.Jambilov – Andijon viloyati Pedagogik Mahorat markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

ISBN

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda ona tili va adabiyoti fanidagi yangiliklar, Davlat ta’lim standartlari, Milliy o‘quv dasturi tahlili va yangi avlod darsliklarini zamonaviy metodlar asosida o‘qitish, fanni o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida darslarni tashkil etish, fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, xalqaro baholash dasturlari (PISA va TIMSS) mazmun-mohiyati. Xalqaro baholash topshriqlarining turlari va mezonlari, rivojlangan xorijiy davlatlarning (Germaniya, Finlyandiya va b.) ning ta’limi mazmuni, ona tili va adabiyoti fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikasi, yangi tahrirdagi sinflarda ona tili va adabiyoti fanlaridagi amaliy mashg‘ulotlar va ularni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berish kabi masalalarni qamrab oladi.

Annotation

This textbook was prepared on the basis of a short-term training program for teachers of general education institutions using modern methods, including biology news, State educational standards, an analysis of the State curriculum and new generation textbooks based on modern methods. teaching, science, organization of classes based on the focus of students on creative thinking, the use of modern pedagogical technologies in teaching science, the content of international assessment programs (PISA and TIMSS). Types and criteria for international assessment tasks, the content of education in developed foreign countries (Germany, Finland, etc.), the methodology of practical classes in, a new version of practical classes in including the development of recommendations for their transfer.

This subject is a course included in the block of subjects of specialization and belongs to the category of exact and natural sciences.

Аннотация

Данное учебное пособие подготовлено на основе краткосрочной программы подготовки учителей общеобразовательных учреждений по современным методикам, включающей в себя новости биологии, Государственные образовательные стандарты, анализ Государственной учебной программы и учебников нового поколения на основе современных методик. преподавания, наука, организация занятий, основанная на направленности учащихся на творческое мышление, использование современных педагогических технологий в обучении науке, содержание международных оценочных программ (PISA и TIMSS). Виды и критерии международных оценочных заданий, содержание образования в развитых зарубежных странах (Германия, Финляндия и др.), методика практических занятий по, новый вариант практических занятий по и в том числе выработка рекомендаций по их передача.

KIRISH

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108 Farmoni va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son hamda “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4963-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori, Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 121-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlangan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumta’lim maktablarini ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi[1].

Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg’unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta’minlanadi hamda o’quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o’quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko’rsatmali tuzilmada o’z ifodasini topadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108 Farmoni

Pedagogik texnologiyalarning tasnifi

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o’tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o’qitish tizimini qat’iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta’rifiga ko’ra ―pedagogik tizim ma’lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko’zlab va oldindan o’ylab pedagogik ta’sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo’lgan o’zaro bog’liq vositalar, usullar va jarayonlar yig’indisidir. Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo’lishi kerak. Agar maqsad o’zgarsa mavjud tizim ham o’zgarishi muqarrardir.

Milliy dastur ta’lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy istiqlol mafkurasining mohiyat-mazmuniga to’liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta’lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi. Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o’qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, o’quvchi-o’quvchilarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg’ulari tizimi shakllantiriladi. Bugungi kunga kelib, o’qituvchi (pedagog)lar metodikani ko’p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo’ladi. Metodika (uslubiyat) o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo’yilgan aniq maqsad yo’lida o’qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig’indisidir. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta’riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda ushbu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko’rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani

pedagogik amaliyotga joriy etishga bo’lgan urinishlarning ma’lum natijasini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyalarning o’ziga xos xususiyatlari.

1	**Izchillik, tizimlilik**	Pedagogik texnologiya jarayonning mantiqiyligi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o’zaro bog’likligi, yaxlitligani o’z ichiga oladi.
2	**Boshqaruvlik**	Pedagogik texnologiyalar boshqaruvga asoslanab, o’quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o’qitish metodlari va vositalarini optimallashtirish uchun korrektsiya ishlarini olib borishda namoyon bo’ladi.
3	**Samaradorlik**	Pedagogik texnologiyaning samaradorlik jihati ta’lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko’zda tutadi va samarali natijani kafolatlashda ifodalanadi.
4	**Qayta takrorlanish**	Pedagogik texnologiyalar jihatlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyaning samarali natijasini qayta-qayta takrorlanishi tushuniladi.
5	**Aniq ilmiy loyiha**	Aniq ilmiy loyihani ishlab chiqish va tajribalarda uning samaradorligini tekshirish nazarda tutiladi.
6	**O’quvchi subyektiga alohida e’tibor**	O’quvchi sub’ektiga alohida e’tibor qaratish va uning mustaqil faolligini oshirish asosida rivojlanishini ta’minlash nazarda tutiladi.
7	**Maqbullik**	Inson va texnika imkoniyatlarini hisobga olgan holda talabaning

		kuchidan hamda vaqtdan tejamli foydalanish asosida o’quv jarayonini optimallashtirish tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi qoidalarga asoslangan holda tashkil etish lozim:

1. Talabalarda o’quv faoliyatiga nisbatan qiziqshlarni (motivlarni) uyg’otish.
2. Diologli va hamkorlikda faoliyat yuritish asosida o’zlashtirish jarayonini tashkil etish.
3. O’zlashtirish jarayonini uzluksiz monitoringini olib borish, diagnostikaga e’tibor berish.
4. Ta’lim mazmunini kichik bo’laklarga ajaratish va talabalar kontingentini o’rgangan holda turli murakkablikdagi differentsial variantlarni ishlab chiqish.
5. Ta’lim mazmunini turli darajalarida tashkil etishga ahamiyat berish.
6. Turli vositalardan foydalangan holda (og’zaki, yozma, grafik, modellar, belgilar) ta’limning optimal tezligini aniqlash.
7. Ta’lim jarayonida talabalarning haqiqiy qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olish.
8. Baholash jarayonida talabalarning faol ishtirokiga erishish.
9. Topshiriqlarni maqsadga yo’naltirilgan tizimli majmuasini ishlab chiqish.
10. Talabalarning faolligini va ijodkorligini rag’batlantirish.

Pedagogik texnologiyalarning o’ziga xos jihati shundan iboratki, uni ishlab chiqish va qo’llash o’qituvchidan hamda talabadan yuqori faollikni talab etadi. O’qituvchining faolligi o’quvchi shaxsini qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va psixologik holatini o’rgangan holda texnologik jarayonni korrektsiya qilishda namoyon bo’lsa, talabalarning faolligi o’quv jarayonda mustaqil faoliyatning ko’lamini oshib borishida aks etadi.

Pedagogik texnologiyalarning o’zagini maqsadga yo’naltirilganlik tashkil etadi. Uni ikki aspekti mavjud:

1. Maqsadni belgilash va o’quv materialini talaba tomonidan samarali o’zlashtirishini nazorat qilish.

2. Shaxsning yaxlit rivojini ta’minlash.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalari:

- ta’lim - tarbiya jarayonini umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish;
- ta’lim - tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo’lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta’lim - tarbiya jarayonini mazmunini bir tizimga solish;
- ta’lim - tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash;
- ta’lim - tarbiya jarayonida ta’lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko’rsatishi uchun muayyan shart sharoitlarni yaratish hamda ko’nikma va malakalarni shakllantirish;
- ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish;
- fan texnika taraqqiyotining o’ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko’payib borayotganligi ana shu axborotni tahlil etish va xulosalar chiqarish malakasini shakllantirini talab etadi. Pedagogik texnologiyalar talabalarda mantiqiy, ijodiy fikrni rivojlantirishga, mustaqil xulosalar chiqarish malakasini shakllantirishga qaratilgan[2].

Pedagogik texnologiyaning asoslari

Ijtimoiy asos	Shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad, talab, shakl hamda usullarini belgilaydi.
Falsafiy asos	Maqsad, shakl va metodlarning falsafiy jihatdan to’g’ri yo’nalishda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi**.**
Metodologik asos	Pedagogik texnologiyalarni amalaga oshirishda qanday metodlarga asoslanishni bnlgilaydi.
Didaktik asos	Ta’lim-tarbiya tamoyillariga muvofiqlikni ta’minlaydi

B.H Raximov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. T.: Fan va texnologiyalar. 2009.-10 bet.

Pedagogik asos	Zamonaviy pedagogika faning ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi
Psixologik asos	Psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalaridan kelib chiqadi
Fiziologik asos	Ta'lim oluvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan
Gigiyenik asos	Ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talabalariga amal qilishdan iborat
Mafkuraviy asos	Milliy g'oya va mafkuraviy tamoyillarni o'zida mujassam etishi hamda ularni amalag oshirishga yo'naltirilishida aks etadi
Huquqiy asos	Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonunuiyatlar hamda me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi
Iqtisodiy asos	Ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga ko'ra belgilanadi
Tarixiy asos	Ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalaga oshirishning shakl, usullari, mazmuni haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan zamindir.

Ishlab chiqilayotgan pedagogik texnolggiyalar yuqorida qayd etilgan asoslar yig'indisiga tayanishi uni mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalar pedagogikaning turli yo'nalishlarini texnologiyalashtirish, ya'ni texnologik darjaga ko'tarish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda (pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim tizimini samaradorligini oshirish, masofali o'qitish, differentsial va rivojlantiruvchi ta'lim metodlari).

Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha, boshqa tushunchalarini belgilash uchun sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin.

Pedagogik tizim – belgilangan sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga karatilgan, maksadli va oldindan belgilangan pedagogik ta’sir kursatish uchun zarur bo’lgan o’zaro bog’lik vositalar, usullar, jarayonlar birligidan iborat ma’lum bir butunlik (V.Bespalko).

Ta’lim-texnologiyasi -ta’lim jarayonida qo’llanuvchi texnologiyalarning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), “texnik va inson resurslarini hamda ularni, o’z oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo’yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o’zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo’llash va belgilashning tizimli usuli”.

Ta’lim jarayoni tizimi - deb tartiblangan, o’zaro uzviy bog’langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to’plamiga aytiladi. Ta’lim jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo’lsak, uni tashkil etuvchilarni, ya’ni elementlariga quyidagilar kiradi: ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta’lim beruvchi, tahsil oluvchi, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari, ta’lim shakli, ta’lim vositalari, nazorat va baholash. Ta’lim jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o’tilgan elementlarning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur, aks holda pedagogik tizimning samarasi past bo’lib qoladi[3].

O’qitish texnologiyasi - o’qitishning jarayonli - harakat aspektini anglatadi. Bu ta’lim jarayonining o’zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va aniq ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta’minlovchi usul va vositalarning tartibli birligini o’zida mujassamlashtirilgan ta’lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayonidir;

- ikkinchidan, pedagogik tenologiyalarning jarayonli - bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo’yicha pedagogik hamda o’quv faoliyati loyixasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta’limni texnologiyalashtirishning umumiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko’rsatiladi:

[3]Yo‘ldoshev J, Hasanov S.Pedagogik texnologiyalar. T.: Iqtisod moliya. 2009.- 80-81 betlar.

1. Maqsadga yo’naltirilganlik tamoyili. Pedagogning har bir harakati belgilab qo’yilgan maqsadga qaratilgan bo’lishi talab etiladi. Maqsaddan tashqarida turuvchi xarakatlardan foydalanish maqsaddan cheklanishga va samaradorlikni pasayishiga sabab bo’ladi.

2. O’quv jarayonida ikki tomonining (o’qituvchi va ta’lim oluvchi) uyg’un faoliyatini ta’minlash. O’qitish talabalarning maqsadli mustaqil faoliyatini tashkil etishga qaratilgan bo’lishi kerak.

3. Ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni yuqori darajada aniqlashtirishga erishish.

4. Kurs mavzularini oxirgi natijadan kelib chiqqan holda yagona mantiqiy zanjir sifatida rejalashtirish.

5. O’zlashtirish jarayoning har bir bosqichida talabalar faoliyatini nazoratini tashkil etish.

6. O’quvchida ijodkorlik faoliyatiga intilish uyg’otish, nafaqat bilim, balki ko’nikma va malakalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish.

7. O’quv jarayonida maqsaddan kelib chiqqan holda turli shakl va metodlardan foydalanish, ma’lum metod yoki vositani ustun qo’ymaslik.

Pedagogik texnologiyalarning turli yo’nalishlari mavjud bo’lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversnoy, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardir. Bu yo’nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik - sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarning tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv - atrofdagi olam to’g’risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalashtirilgan (tarkibiy qismlarga ajratib o’rganish) tafakkurni shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik - yo’naltiruvchi savollar berish yo’li bilan ta’lim berish lozim. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o’quv-izlanish ta’lim metodi bo’lib, optimallashgan (bir necha variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofiqini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi,

Kreativ - tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchi-talabalarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion- axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'likligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv - axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida kutilgai natijaga erishish.

Inklyuziv - o'qituvchi bilan o'quvchi-talabaning o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish[4].

Pedagogik texnologiyalar xozirgi davr uchun ya'ni insonning rivojlanish darajasi va texnika rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnika resurslaridan unumli va uyg'un foydalanishni ta'minlashi lozim.

Pedagogik texnologiyalar aniq pedagogik g'oya asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalaga oshirish jarayonida bir qancha vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug'atda pedagogika tushunchasi mustahkam o'rnashgan. Lekin uni tushunish va ishlatishda turli xil o'qilishi mumkin.

Texnologiya- bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir. (G. Bespalko)

Pedagogik texnologiya-o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Texnologiya- bu san'at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarining majmuidir. (Shepel)

---

[4]Yo'ldoshev J, Hasanov S.Pedagogik texnologiyalar. T.: Iqtisod moliya. 2009.- 80-81 betlar.

Ta'lim texnologiyasi-bu didaktik tizimning asosiy protsessual qismidir. (Usmonov)

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha tavsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U o'quvchi va o'qituvchilarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)

Pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir. (YUNESKO)

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin)

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Ilmiy aspekt-pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2. Protsessual-tavsifiy aspekt - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3. Protsessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalariga amal qilish.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya fan sifatida amal qilib, ta'limning yanada ratsional yo'llarini tadqiq etadi.

Bu esa ta'limda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va regulyativlar tizimi sifatida hamda ta'limning real jarayoni sifatida amalga oshiradi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi ta'lim tajribasida 3 darajada qo'llaniladi:

1. Umumiy pedagogik daraja:

Umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiya) texnologiya berilgan hududdagi ta’lim maskanida ta’limning ma’lum darajasidagi to’liq umumta’lim jarayonini tavsiflaydi.

Bunda pedagogik texnologiyaning pedagogik tizimida farqlar mavjud: unga ta’lim maqsadlari, tarkibi, vositalari va uslublarining majmui, jarayonda sub’ekt va ob’ektlarning faoliyat algoritmi kiradi.

2. Qisman pedagogik daraja:

Qisman predmetli pedagogik texnologiya «qisman metodika» tushunchasini beradi, ya’ni bir fan doirasida tarbiya va ta’lim, uslub va vositalar majmuidir.

3. Chegaralangan daraja:

Chegaralangan texnologiya-ta’lim-tarbiya jarayonning alohida qismlarini ifodalab, xususiy didaktik va tarbiya masalalarini yechadi. (faoliyatning alohida turlarini texnologiyasi, tushunchalarning shakllanishi, yangi bilimlarni o’zlashtirish, materialni nazorat qilish va qaytarish texnologiyasi)

Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta’minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo’l ochadi. Demak, pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog’i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo’naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Endilikda ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o’qitish imkoniyatlari katta bo’lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda. Ro’y berayotgan sifat o’zgarishlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda o‘rganishning birlamchi jarayonlarini an’anaviy metodika va o’qitish vositalari qolipiga sig’may o’qituvchi (pedagog)ning individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining tarkibiy komponentlariga aylanib borayotgan va una o’zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan texnikaviy, axborotli,

poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular zamonaviy pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirmoqda. O'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ob'ektiv voqelikka aylandi. Axborotlashtirish esa bu jarayondagi inqilobiy - burilishdir, ya'ni, ta'lim axborot texnologiyasi - bu - o'quvchi-o'quvchi-kompyuter o'rtasidagi muloqotdir. Ta'lim muassalarining ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish – har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, bugungi kun yoshlari texnika va texnologiya, iqtisodiyot asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha omaydi. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi. Keng ko'lamli va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik o'quvchi-yoshlar ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishining zaminidir. O'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti bu – faoliyatdir. Demak, pedagogning asosiy vazifasi ushbu faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo'nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Axborot ta'minotining haddan ziyodligi ham vazifani ijobiy hal etmaydi. Shu sababali axborot ta'minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ijodkorlikka erishish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarishning predmeti inson omili bo'lib, u o'ziga xos ta'lim-tarbiya ishlari va uni boshqarish, ijodiy masalalarni yechish metodikasi va algoritmini o'rganishni ko'zda tutadi. O'quvchilar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, tayyorlash jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuv tizimi shaxs ijodkorligi va yaratuvchanligini boshqarishning bosh masalalaridan biri hisoblanadi va u o'z ichiga zaruriy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, uni qayta ishlash, maqsadni

aniqlash, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish, reja bo'yicha ijodkorlik ishlarini tashkil qilish, uning amalga oshishini nazorat qilish, ushbu tizim faoliyatini tartibli olib borish va maxsus yechimlar qabul qilish kabi bosqichlarni oladi. Har qanday boshqarish jarayoni, avvalo, maqsadni belgilash, ya'ni maqsadni to'g'ri qo'ya bilishdan boshlanadi. Bu esa boshqarish obyektining ayni paytdagi holatini tahlil qilish va uning rivojlanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Ilmiy-texnik ijodkorlikni maqsadli pedagogik boshqarish mohiyatiga ko'ra obyektiv tavsifga ega, unda inson shaxsini kamol toptirishning obyektiv qonunlari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari maqsadli boshqarish tafakkur mahsuli va ular shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shakllanadi. Maqsad, o'z navbatida, pedagogik obyektdagi o'zgarishlarning yo'nalishlari, boshqarish faoliyatini uning asosiy turlari va ularning mazmunini belgilab beradi. Maqsadli pedagogik boshqarish o'z mazmuniga ko'ra vaqt omili va sharoitiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi. Yo'nalish mazmuni esa, shartli ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy va ilmiy-texnikaviy maqsadlar sifatida guruhlanadi. Ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim sharti maqsadli pedagogik boshqarishda qatnashuvchi shaxsni yuqori darajadagi ob'ektiv axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Obyektiv axborotgina maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita bo'la oladi. Ta'lim jarayonida ko'rsatmalilik zarurati bilish jarayonining xarakteri, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagog va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi va tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi, shuningdek, o'qitish jarayonida ham olg'a siljish bo'lmaydi. Demak, ko'rsatmalilik faqat ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonli, motivni ham yuzaga chiqaradi, his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilimlar mustahkamlanadi. Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasida o'qitishni texnik vositalarsiz ko'tarib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri – axborotlarni o'quvchi-yoshlarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi Shunday qilib, fanning rivojlanishi

bilan ilmiy-texnik taraqqiyot bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta’minlash muayyan darajada boshqarish yo’nalishlarini o’z ichiga oladi. Ammo o’quv mashg’ulotlarini ta’lim metodlari bilan boyitish ta’lim tizimi va mantiqini buzmasligi kerak. Pedagogik texnologiya o’quvchi-yoshlarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig’ish hamda ulardan mashg’ulot jarayonida foydalanish yo’lida ma’lum imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu ma’lumotlar esa fan asoslarining axborot ta’minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi.

Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi.

O’quv dasturlari o’quvchilariga muvofiq muammoli yoki munozarali mashg’ulotlarning tashkil etilishi tanqidiy va tahliliy fikrlarning rivojida muhim ahamiyatga ega. O’quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi. Bu turdagi metodlar interfaol ta’limning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud bo’lib, o’quv materialining xarakteri, o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi-pedagoglar harakati maktabning tez rivojlanishiga bo’lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o’rtasidagi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog’liq. Yangiliklarni qo’llash umumiyligi kengaydi.

Pedagogik innovatsiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi - Pedagogik texnologiyalar markazi;

- ✓ma’lumotning yo’nalishini aniqlaydi;
- ✓joriy qilish va qo’llashda ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi;
- ✓metodik qo’llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzatadi;

- ✓reyting tizimi, o’quvchilarni maktabgacha tayyorlash, Davlat ta’lim standartlarini joriy qilishdagi ilg’or tajribalar majmuasini yaratadi;
- ✓xorijiy davlatlardagi ta’lim sohasidagi tajribalarni o’rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- ✓amalga tatbiq qiluvchilarni o’qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuvlar tashkil qiladi;
- ✓pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- ✓innovatsiyalarning qo’llanilishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- ✓innovatsiyaga oid Respublika ilmiy-amaliy kengashlari, konferentsiyalarni o’tkazadi;
- ✓malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik kengashlarini yangi axborotlar bilan ta’minlab boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo’llash bilan uni to’plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo’g’in o’rtasidagi - Pedagogik matbuot asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug’ullanadi. O’ylaymizki, ta’lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv Davlat ta’lim standartlarini amalga oshirishda o’z samarasini ko’rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o’zaro samarali aloqadorligi.

2. Ta’lim korxonalari va professional ta’lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so’nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko’rinishlaridan foydalanish.

3. Professional ta’lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.

4. Ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko’rsatkichlarini mustahkamlash.

5. Professional ta’lim tizimiga eng yuqori malakali o’qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.

6. O’quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.

7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va ob’ektiv nazorat tizimini qo’llash.

8. Shaxsning rivojlanishi, o’lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag’ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.

9. O’qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag’batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo’lgan, fan asoslarini chuqur o’rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma’rifatli va ma’naviyatli inson bo’lishi kerak. U o’z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo’lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart. Ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan o’qituvchi pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o’qitiladigan fanlar bo’yicha sifatli bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilishni ta’minlovchi pedagogik usullarni qo’llay bilishi lozim. U pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o’rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar, amaliy yo’llanmalar ishlab chiqishi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini o’zlashtirganidan so’ng, uni ta’lim tizimiga joriy eta olishi kerak. O’quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub’ektlarning o’zaro samarali ta’sirini ta’minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta’lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg’armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o’z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko’tarish, ikkinchidan, samarali ta’sirchanlik, ya’ni uzviyligi, bir-biriga

chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim. Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdan, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdan, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi. O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Ta'lim muassasalarda olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik sub'ektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga(kashf etishga) ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funktsiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta’lim mazmunini o’zlashtirishda o’quvchilarning bilim saviyasi, o’zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo’llaniladi:

- o’qitishning ko’rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o’qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari;
- o’qitishning induktiv va deduktiv metodlari;
- o’qitishning nazorat va o’zini o’zi nazorat qilish metodlari.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o’z ichiga oladi: **Birinchi guruh metodlari:** o’quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og’zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: o’quv axborotlarini ko’rgazmali uzatish va ko’rish orqali qabul qilish metodlari (ko’rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o’quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol o’qitish jarayoni an’anaviy (doska yonidagi) o’qitishdan farqli o’laroq bir qancha metodololik qirralar ustunligiga ega. Bu avvalom bor, ishtirokchilarning o’yin qoidalarini ishlab chiquvchi muallim va bir - biri bilan faol, emotsional tusdagi munosabatlariga asoslanadi. Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo’llanilmoqda:

1. **Interfaol metodlar:** Keys-stadi yoki O’quv keyslari, Blits-so’rov, Modellashtirish, Ijodiy ish, Munosabat, Reja, Suhbat va b.
2. **Strategiyalar:** Aqliy hujum, Bumerang, Galereya, Zig-zag, Zinama-zina, Muzyorar, Rotatsiya, T-jadval, Yumaloqlangan qor va h.k.

3. **Grafik organayzerlar:** Baliq skeleti, BBB, Kontseptual jadval, Venn diagrammasi, Insert, Klaster, Nima uchun?, Qanday? va b.

Interfaol ta’lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo’llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda o’quvchilarga yashirincha usullardan (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo’llash rag’batlantiriladi. Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo’lgan topshiriq e’lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun o’quvchi bor bilim va ko’nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga o’quvchi shaxsida ma’lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko’nikmalarni izlash muammosi paydo bo’ladi. Ana shu vaziyat esa muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi. Pedagog o’quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e’tibor bilan kuzatadi, kerak bo’lganda jonli muloqotga chorlaydi. O’quvchilar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va tahsil oxirida faol o’quvchilarga qo’yilgan ballar yoki baholarni e’lon qiladi. O’quvchilarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko’nikmalarni shakllantirish, o’z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko’nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi. Ma’lumki, har qanday fan o’qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko’ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o’zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So’ngra o’quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o’qitish shakli tanlanadi. O’quvchilarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o’zlashtirish darajalariga qarab har bir ta’lim bosqichi uchun mos

mazmun va metodlar tanlanadi. Har bir bosqichning o’ziga xos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari bor. Ta’limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog’langan. Ta’lim metodlaridagi muammolar-Kimni qanday o’qitamiz? degan savol bilan bog’liq bo’lib, bundan ta’lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog’liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o’zaro qarama-qarshilikda bo’lib, bir-birini to’ldirib boradi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o’xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo’lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo’lgan o’qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog’liqdir.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko’rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog’liq bo’lar ekan:

- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o’zaro samarali aloqadorligiga;
- ta’lim muassasalari va professional ta’lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko’rinishlari qay darajada aks ettirilganligiga;
- professional ta’lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;
- ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko’rsatkichlarini mustahkamlashga;
- professional ta’lim tizimiga eng yuqori malakali o’qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;
- o’quv jarayonini informatizatsiyalash va kompyuterlashtirishga;

- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo’llashga;

- shaxsning rivojlanishi, o’lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag’ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;

- o’qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag’batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo’lgan, fan asoslarini chuqur o’rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma’rifatli va ma’naviyatli inson bo’lishi kerak. U o’z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart. Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalkimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo’lishi kerak. Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko’ngildagidek o’qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g’oyat murakkab va ko’p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta’kidlash lozim. Shunday ekan, o’qituvchilik-katta san’atdir. Bu san’atga u yoki bu pedagog osongina, o’z-o’zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o’qituvchilik kasbiga, ya’ni sog’lom avlod uchun chinakam murabbiy bo’lishga havasi, ishtiyoqi zo’r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o’zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g’oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar. Pedagogik mahorat tug’ma talant yoki nasldan-naslga o’tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. SHuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o’qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o’qituvchining o’z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg’or o’qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o’qituvchi o’rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o’z faoliyatini ilgor tajribalar

bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchilar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatguylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi o'quvchilarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida o'quvchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki o'quvchilar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir. Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z o'quvchilariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi. Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir.

Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar. Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O’qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g’oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o’z vazifasiga munosabatiga e’tibor bermok kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o’qituvchining fikr doirasi keng bo’lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo’lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo’lishga intilgan kishi, shubhasiz, o’z bilimini doimo kengaytirishi, o’zining o’quvchi yoki o’quvchiga ma’naviy-axloqiy ta’sir etuvchi g’oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko’p o’qishi va o’rganishi lozim. O’qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta’limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir. Uzluksiz ta’lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o’quv mashg’ulotlarini mukammal tashkil qilish-o’qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o’tkazilgan mashg’ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e’tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, o’qituvchining ilmiy saviyasi uning o’z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko’rinadi. Fan o’qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg’ulotlarning sifati belgilaydi.

Ma’lumki, interfaol metodlarning turla ko’p bo’lib, ular orasidan aynan bir sinf hamda biror mavzu uchun eng mosini tanlash kerak bo’ladi. Bunda bitta interfaol metod bir nachta mavzular hamda bir nechta sinflar uchun mos bo’lgan hollar ko’p uchraydi. Shunga qaramasda, ijodkor pedagoglarning ish usulida har bir mavzu bo’yicha qo’llaniladigan interfaol metodlar aynan shu sinf o’quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, shu bilan birga fanning xususiyatlariga va mashg’ulot mavzusiga tegishligiga molashtirilgan holda qo’llaniladi.

Interfaol metodlarning har biri o’ziga xos imkoniyatlarga mos ravishda tegishli mashg’ulot davomida qaysi o’rinda qo’llanilishi va uning uchun qancha vaqt sarflanishi maqsadga muvofiqligini belgilash va amalga oshirish har bir

o’qituvchida har xil bo’lishi mumkin, bu esa o’qituvchining mazkur masalalarga qanchalik ijobiy yondashuvga bog’liq.

O’qituvchilar malakasini oshirish kurslarida shunday metodlardan amalda foydalanish yuzasidan mashqlar o’tkazish orqali ularning kasbiy-pedagogik mahoratlarini oshirib borish nazarda tutiladi.

Quyida shunday interfaol metodlardan amalda foydalanish bo’yicha ayrim namunalar keltiramiz.

«KLASTER» METODI

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur

metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga hizmat qiladi.

Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida nomoyon bo‘ladi.

Bu esa guruhning har bir a’zosi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.



«Klaster» metodini o‘tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizni sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tyg‘ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“INSERT” METODI

Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin.

Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab - quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi.

\+ - yangi axborot.

\- - bilganlarimga zid keladi.

? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Afzalligi:

- ✓mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish.
- ✓avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Matnni insert metodida o‘rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

«V»	« + «	« - «	« ? «
«ha» - o‘qiganlaringizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan ma’lumot	«musbat» - o‘qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo‘lgan	«manfiy» - o‘qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma’lumot	«savol» - o‘qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo‘lmagan yoki

	ma’lumot		shu haqda ko‘proq narsa bilishni istagan ma’lumot

“TO’RT (4) TARAF” METODI

Metodning maqsadi: berilgan muammoni 4 taraflama o’ylab ko’rib, muammo yuzasidan bilimlarni oshirish va mustaxkamlash.

Bu metoddan foydalanish uchun kerakli vositalar: A4 yoki A3 formatli oq qog’oz va marker.

Metoddan foydalanish uchun o’tilgan mavzu yoki o’tilgan fandagi biron bir bo’lim tanlab olinadi va shu mavzu yoki bo’limni yorituvchi 4 ta savol o’qituvchi tomonidan tuziladi. (3 ta savol va 1 ta amaliy topshiriq ham bo’lishi mumkin). Oq qog’oz quyidagi shaklga keltiriladi. Shundan so’ng markazdagi oval shakl ichiga tanlab olingan mavzu yoziladi. Atrofidagi 4 ta katakka savol va topshiriq beriladi. Masalan, “mavzu” qismiga “Pedagogik texnologiya” deb yozamiz. 4 ta katakka:

1.Ta’rifi.

2.O‘rgangan olimlar.

3.Namunalar ayting.

4.Qo‘llab bering.

Bunday shakldan amaliy mashg‘ulot hamda seminarlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

“MEN HAQIMDA” MASHQI

Bu mashq individual ish bo’lib, ishtirokchilarning bir-birlari bilan yaqinroq tanishishlari maqsadida qo’llaniladi. Bunda A4 formatli qog’ozga ishtirokchi o’zining ismi, 3 ta ijobiy fazilati, orzu-istaklari va kamchiliklarini yozib (1 ta kamchilik keltiriladi, ishtirokchi xohishiga ko’ra keltirilmasligi ham mumkin) yonidagilar bilan o’rtoqlashadi. Quyida A4 format qog’ozi ko’rinishi keltiriladi.



DARAXT METODI

Bu metodning maqsadi o’quvchi va tinglovchilarning mashg’ulotga bo’lgan qiziqishlarini oshirish. Bunda asosan katta o’lchamdagi daraxt rasmi va mevalar shaklidagi rangli qog’ozlar (stikerlar) zarur bo’ladi.

Daraxt metodini maqsadlarga ko’ra turli nomlar bilan qo’llash mumkin.

“KUTUVLAR” DARAXTI METODI

Metodning maqsadi: jarayonni refleksiya va tahlil qilish.

Kerakli vositalar: katta formatdagi oq qog’ozda daraxtning rasmi, olma shaklidagi rangli, yopishadigan (stikerlar) qog’ozlar.

O’tkazish bosqichlari:

1.Daraxt rasmi doskaga yopishtiriladi va olma shaklidagi rangli qog’ozlar (stikerlar) tinglovchilarga tarqatiladi.

2.Rejalashtirilgan jarayon bilan tinglovchilar tanishtiriladi. (Masalan, 3 paralik mashg’ulot rejasi, 1-3 kunlik seminar rejasi, yarim yillik yoki bir yillik jarayon).

3.Tinglovchilarga vazifa beriladi. Ushbu olma shaklidagi rangli stikerlarga olib borilishi rejalashtirilgan jarayon bo’yicha kutuvlaringizni yozing. (1-2 daqiqa).

4.O’qituvchi yozilgan kutuvlarni ketma-ket o’qib eshittiradi va ketma-ket “Kutuvlar daraxti”ga yopishtiradi.

5.O’qituvchi rejalashtirgan o’quv jarayoni olib boriladi.

6.O’quv jarayoni yakunida kutuvlar o’qituvchi tomonidan yana bir bor o’qib eshittiriladi, agar kutuvlar “oqlangan” bo’lsa, “daraxt”da qoladi, agar “oqlanmagan” bo’lsa, “yerga to’kiladi”.

Bu jarayonni pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida tashkil etilganida, tinglovchilar o’tkazgan mashg’ulotni samarasini o’zi, guruh hamda o’qituvchi uchun sezadi, tahlil qiladi.

Shu o’rinda aytib o’tish joizki, ayrim metodlarni o’qituvchi o’z tajribasi va ijodkorligidan kelib chiqqan holda metodni qo’llashdagi yangi maqsadlarni, qo’llash bosqichlarini hattoki metodni qisman nomini o’zgartirib foydalanish uchun reja tuzishlari mumkin.

Masalan, “Kutuvlar daraxti” metodini maktab, maktabgacha ta’lim muassasasida qanday va qaysi maqsadda o’tkazish mumkinligini aytib o’tadilar va yangi reja va g’oyalar paydo bo’ladi. Masalan, ulardan ayrimlarini sanab o’tish mumkin,

Sinf rahbari bilan birinchi bo’ladigan tanishuv darsida “Kutuvlar daraxtini” “Bizning sinf daraxti” deb nomlab, rangli stikerlarga ism, sharifi, yoshi va qiziqishini yozib “daraxt”ga yopishtirishlari mumkin, shu o’rinda o’qituvchi, ya’ni sinf rahbari ham shu ko’rinishda stikerlarni to’ldiradi va bolalar bilan birga yopishtiradi. Bu daraxtni dars yakunida sinf xonasining bir burchagiga osib qo’yilsa, o’quvchilarda bir sinf, jamoa degan ruhiy o’zaro jipslik, qolaversa, o’qituvchi bilan do’stona munosabat paydo bo’ladi.

Ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish:

-birinchidan, o’qituvchi va talabalar o’rtasida o’zaro hamkorlik, hamijodkorlik, hamfikrlilik, faollikni;

- ikkinchidan, talabalarning mustaqil o’qib, o’rganib bilim orttirishlarini;

- uchinchidan, talabalarda yangi ma’lumotlarni o’zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoitni yaratishga yordam beradi.

Bunday interfaol ta’lim jarayoni talabalarda bilimlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish orqali ta’lim sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. O’qituvchilarning interfaol metodlarni har bir dars mazmuniga muvofiq tanlash,

hamda samarali foydalana olish ko'nikmalarini puxta egallashlari har bir o'quv mashg'ulotining o'ziga xos (original), qiziqarli va samarali bo'lishiga olib keladi.

"BILIMLAR" DARAXTI METODI

Metodning maqsadi: o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash.

Kerakli vositalar: katta o'lchamdagi oq qog'ozda daraxtning rasmi, olma shaklidagi rangli, yopishadigan (stikerlar) qog'ozlar.

O'tkazish bosqichlari:

1. Daraxt rasmi doskaga yopishtiriladi va olma shaklidagi rangli qog'ozlar (stikerlar)ga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar yozib qo'yiladi va daraxtga yopishtiriladi.
2. Tinglovchilar (o'quvchilarni) o'z xohishlariga ko'ra yoki tartib asosida bittadan taklif etiladi va daraxtdagi bir savolni tanlab olib, unga javob berishlari so'raladi.
3. Agar tinglovchi yoki o'quvchi savolga javob bera olmasa, bu o'rinda quyidagi ikkita imkoniyatdan bittasini tanlashni taklif etish mumkin;
   1. Kurs (sinf) yordami
   2. Konspekt (kitob) yordami.

Bunda "Kurs yordami" imkoniyatini olgan tinglovchi javobni biladigan ya'ni qo'l ko'targan kurs tinglovchisini tanlaydi va u savolga javob beradi. (lekin agar noto'g'ri javob bersa, maktabda baho qo'yish jarayonida pasaytirilgan baho olish xavfi bor va bu haqida o'quvchilarga avvaldan e'lon qilinadi)

Ikkinchi imkoniyat ya'ni "Konspekt yordami" imkoniyatini olgan tinglovchiga 1 daqiqa vaqt beriladi konspektidan shu savolni javobini topib aytishi zarur bo'lada.

4. Barcha savollarga javob olingach olib borilgan jarayon bo'yicha xulosa yasaladi.

"FSMU" METODI

Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ✓qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- ✓har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:
- ✓ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.



“O’QUV SHARTNOMA”SI METODI

A3 qog‘ozga yoki flipchartga ushbu seminar-trening uchun «O’quv shartnoma»si yoziladi. Ya’ni talabalar tomonidan seminar-trening ishtirokchilari uchun qoidalar ishlab chiqiladi. (Masalan: seminarga o’z vaqtida kelish, kech qolmaslik, ishtirokchilar bir-birlarining fikrlarini bo’lmasligi, o’zaro hurmat va shunga o’xshash qoidalar). Shartnoma tuzilgach, barcha ishtirokchilar roziliklarini bildirib, «shartnomaga» – flipchartga o’z imzolarini qo’yishadi. Shartnoma buzilgan ayrim holatlarda turli qiziqarli jarimalar tayyorlash mumkin. Masalan, shartnomani buzgan ishtirokchi she’r yoki qo’shiq aytishi, boshqa qiziqarli shartlarni bajarishi lozim bo’ladi. Bu esa seminar-treningda bir lirik chekinish bo’lib, ishtirokchilarning kayfiyatini ko’tarishga olib keladi. «O’quv shartnoma»sini seminar davomida xonaning ishtirokchilar nazarida bo’lgan joyiga osish maqsadga muvofiqdir. Bunda qoidalarning talabalar tomonidan ishlab chiqarilishiga e’tibor qaratilishi kerak.

“QADAMMA-QADAM” (STEP BY STEP) METODI

O’qituvchi biron bir ma’lumotni ketma-ket, qadamma-qadam berish lozim bo’lgan vaziyatlarda shu metoddan foydalansa bo’ladi. Bunda rangli qog’ozlarga bir nechta (bolalar poyabzali shakli) berilishi joiz bo’lgan ma’lumotlar sonida qadamlar chiziladi va ma’lumotlar birin ketin shu qadamlar ichiga yoziladi. Doskaga ma’lumotlar birin-ketin ma’ruza paytida ma’ruza bilan xamohang tarzda ilinadi. Ilinganda oyoq izlari ketma ketligida yopishtiriladi.

Bu tinglovchilarini

- jalb etishga,
- ma’lumotlarni tizimlashtirishga,
- muntazam jalb etish orqali ma’lumotlarning yodda saqlanilishiga,
- istak-xohish qiziqishi, motivatsiyaning oshishiga,
- har bir ma’lumotning ketma-ketligini aniqlash ko’nikmasini rivojlantirishga olib keladi.

“MUZYORAR” METODI

Ko‘pchilik odamlar notanish vaziyatda (yangi sinf yoki yangi maktabda, kursning boshlanishida) bo‘lganlarida o‘zlarini jur’atsiz sezishadi. Ko‘pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar xech bo‘lmaganda bir kishi bilan tanish bo‘lsalar, ular birga bo‘lishadi. Shuning uchun o‘qituvchi (yoki boshlovchi) o‘quvchilarga o‘zlariga ishonch hissiyotini beradigan do‘stona muhitni va ular o‘zlari o‘rganishlari kerak bo‘lgan narsaga diqqatlarini qarata oladigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda Muzyorar usulidan foydalanish mumkin. Bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi «to‘siq»ni yo‘qotishga qaratilgan usul. Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Taqdim etish

O‘quvchi yoki ishtirokchilardan ular o‘zlarini tanishtirishlari va o‘zlari to‘g‘risida muayyan axborot berishlari suraladi. Ular taqdim etgan axborot

saylanmasi sinf yoki kurs xususiyatiga bog‘liq. Bu quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ism-sharifi
- yashash joyi
- qiziqishi
- fanlarga munosabati

Bu axborot jadval shaklida katta qog‘oz varag‘iga yozib jamlansa yaxshi bo‘ladi.

Bu usul kam vaqtni oladi (har o‘quvchiga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko‘p guruhlarda foydalanib bo‘lmaydi. Bizda ular haqida axborot kam bo‘lgan, ulardagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun yaxshi, biroq u har doim ham guruh a’zolarining yaxshi tanishishlariga kafolat bermaydi.

“INTERVYU” METODI

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 5-7 minut vaqt beriladi. So‘ng juftlikning har bir a’zosi butun guruhga o‘z sherigi to‘g‘risdagi ma’lumotlarni biror qiziqarli faktni qo‘shgan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtiokchilarga dadillik hissini beradi, biroq uni 25 kishidan ko‘p guruhda qo‘llash mumkin emas.

Jadvallar

Har bir ishtirokchiga flomaster va katta qog‘oz varog‘i beriladi. Qog‘oz to‘rt qismga bo‘linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi:

- yuqoridagi chap burchakda: o‘zini bir so‘z bilan tasvirlasin
- yuqoridagi o‘ng burchakda: nima bilan faxrlanishini yozsin
- pastdagi chap burchakda: o‘zi haqida qandaydir bir sirni oshkor kilsin (bu jiddiy sir bo‘lishi majburiy emas, biroq shunday axborot bo‘lsinki, u haqda ishtirokchilardan hech kim bilmasin)

- pastdagi o‘ng burchakda: o‘z xobbisini chizib bersin.

(Jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o‘zgartirish mumkin)

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlaridan keyin ular jadvalni oldlarida ushlab zalning o‘rtasiga chiqishadi. U yoq-bu yoqqa o‘tib ishtirokchilar bir-birlari bilan tanishadilar. Ishtirokchilar o‘z ismlarini jadvallarga yozib, ularni devorga ilib qo‘yishadi.

“KOLLAJ” METODI

Kollaj metodi qo’llanilganda bajarish lozim bo’lgan topshiriqni har turli tasvirlar, belgilar, shakllar, harf, raqam va shu kabilardan foydalangan holda bajarish nazarda tutiladi. Bu metod o’ziga xos universal xususiyatga ega bo’lib har xil yoshdagi ta’lim oluvchilar bilan turli mavzular bo’yicha mashg’ulotlarda qo’llanilishi mumkin. Quyida ayrim namunalarni keltiramiz.

“MEN ORZU QILGAN MAKTAB” MASHQI

Mazkur mashg’ulot kichik guruhlarda olib boriladi. Ularga bu jarayonni boshlashlari uchun har bir guruhga bitta flipchart va turli xil rangli marker beriladi.

Vazifa: Orzu qiling va orzu qilgan maktabingiz tasvirini chizing. Buning uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Ish yakunlangach, har bir guruhdan bir ishtirokchi taqdimot o’tkazadi. Taqdimot uchun reglament 3-5 daqiqa.

“O’QITUVCHI PORTRETI” MASHQI

Guruhlarga bo’lingan ishtirokchilar uchun har bir guruhga bitta flipchart va turli xil rangli marker beriladi.

Vazifa: Sizning nazaringizda XXI asr o’qituvchisi qanday bo’lishi kerak? Uning portretini chizing. Buning uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. (Bunda kollaj metodidan foydalanish ham mumkin. Kollaj metodida o’qituvchi ko’rinishi yoki portreti chizilishi shart emas, ya’ni o’qituvchining fazilatlari, imkoniyatlari, bilimi, malakasi, ko’nikmasi, dunyoqarashi har xil belgi, predmet yoki o’xshatishlar vositasida tasvirlanishi mumkin. Masalan, kechikmaslik sifatini eng so’nggi

modeldagi soat rasmini chizish yoki yopishtirish bilan ifodalash mumkin va shunga o’xshash). Ish yakunlangach, har bir guruhdan bir ishtirokchi taqdimot o’tkazadi. Taqdimot uchun reglament 3-5 daqiqa.

“ISHBILARMONLAR O’YINI” METODI

Ishbilarmonlar o’yini metodi muayyan kasb-hunar haqidagi bilimlarni o’rgatish va mustahkamlashga qaratilgan bo’lib turli yoshdagi ishtrokchilar bilan o’tkazish mumkin. Bunda muayyan kasb egasi bo’lgan mutaxassislarning o’z kasblari bo’yicha bilmilarni chuqurlashtirish va yangilash amalga oshirilsa, maktabning yuqori sinfdagi o’quvchilarida esa, tegishli kasb-hunarlar to’risidagi bilimlari ortib boradi., o’rta sinflar o’quvchilarining esa, tegishli kasb-hunar to’g’risidagi bilmilari mustahkamlanib boradi, boshlang’ich sinf o’quvchilarning esa, tegishli kasb-hunar to’g’risidagi dastlabki tasavvurlari shakllanib boradi. Quyida bu metoddan foydalanishga misollar keltiramiz.

“MINORA QURISH” MASHQI

Tinglovchilar kichik guruhlarga bo’linadilar. Har bir guruhda ish boshlashdan oldin kuzatuvchi, rejalashtiruvchi, kesish va yelimlash ishlarini olib boruvchi vazifalarini bajaruvchilar tanlab olinadi.

1-vazifa: Eng baland va mustahkam minora qurishni rejalashtiring.

Bunda ishtirokchilarga jarayonda foydalaniladigan resurslar ko’rsatiladi. Ishtirokchilarga ishni bajarish loyihasini ishlab chiqish vazifasi topshiriladi. Bunga 15 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlarda rollar taqsim qilinib, ish rejalashtirib olinadi.

2-vazifa: Kuzatuvchi rolini bajarayotgan ishtirokchilarga boshqa guruhlar ishini kuzatish topshiriladi va minora qurish jarayonini boshlash uchun resurslar: 2 ta flipchart, qaychi, chizg’ich, kley tarqatiladi. SHunday shart qo’yiladi: Jarayon vaqtida ishtirokchilar bir og’iz ham gapirmasdan, imo-ishora bilan o’zlariga berilgan vazifani bajarishlari lozim bo’ladi. Bu jarayonni boshqarishda kuzatuvchilar hushyor bo’ladilar. Jarayon uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. (Ushbu

ishbilarmonlik o’yini metodini ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o’zbek tili darslarida jarayon shartini o’zgartirib, gapirmasdan ish olib borish o’rniga o’zbek tilida gaplashish talab etilib, kuzatuvchi rolini bajarayotgan o’quvchi jarayon paytida ishlatilgan ruscha so’zlarni yozib borib, jarayon yakunlangach, ushbu so’zlarni lug’at yordamida tarjimasini bilib olishlari maqsadga muvofiq bo’ladi.)

Taqdimot paytida eng yuqori va mustahkam minora qurgan guruh rag’batlantiriladi (turli nomli nishon yoki qarsak bilan taqdirlash mumkin).

“BOZORCHA” MASHQI

Tinglovchilar kichik guruhlarga bo’linadilar. Har bir guruhda ish boshlashdan oldin kuzatuvchi, rejalashtiruvchi, kesish va yelimlash ishlarini olib boruvchi vazifalarini bajaruvchilar tanlab olinadi.

1-vazifa: Berilgan predmetlardan (oq qog’oz, marker, qaychi, chizg’ich) bozorbop mahsulot ishlab chiqishni rejalashtiring.

Bunda ishtirokchilarga jarayonda foydalaniladigan resurslar ko’rsatiladi. Ishtirokchilar ishni bajarish loyihasini ishlab chiqishadi. Bunga 10 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlarda rollar taqsim qilinib, ish rejalashtirib olinadi.

2-vazifa**:** Berilgan predmetlardan (oq qog’oz, marker, qaychi, chizg’ich) bozorbop mahsulot ishlab chiqing. SHarti shuki, rejalashtirishda gaplashish mumkin bo’lsa, guruhda ish bajarilayotganda gaplashish mumkin emas. SHu usul maktab darslarida qo’llanganda rusiyzabon o’quvchilar jarayonda o’zbek tilida gaplashishlari mumkin. Buning uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3-vazifa: Tayyorlangan mahsulotni reklama qiling.

Ish yakunlangach, har bir guruhdan bir ishtirokchi tayyor mahsulotni reklama qiladi. Kichik guruhlarda vazifaning bajarilishi jarayoni videokamera orqali suratga olinadi.

Muhokama. Ishtirokchilarga “Ushbu usulni yana qaysi mavzularni o’rganishda qo’llash mumkin?”, “Bu mashg’ulot qanday samara beradi?” kabi

savollar beriladi va tinglovchilar shu savollarga javoblar yordamida o’zaro tajriba almashadilar (10 daqiqa).

“ROLLI O’YIN” METODI

Rolli o’yin metodi mashg’ulot mavzusi bo’yicha ma’lum masala, muammo, vaziyat yoki topshiriqni muhokama qilish va tegishli qarorlar qabul qilish bilan bog’liq hollarda qo’llaniladi. Bunda har bir ishtirokchiga ma’lum rolь taqsim qilinishini nazarda tutish lozim. Bu metoddan foydalanilgan mashg’ulotlarda ishtirokchilarning o’zlariga topshirilgan rolni ma’lum sharoit va ma’lum vaziyatlarda bajarishlari orqali ularning amaliy ish jarayoni bo’yicha tayyorgarlik darajalari ortib boradi. Bunda ishtrokchilarning turli rollarda bo’lib ko’rishlari mashg’ulotning qiziqarli bo’lishi bilan birga, undan undan ko’zda tutilgan maqsadlarga erishishga ham yordam beradi. Umuman olganda “Rolli o’yin”larning turli xil shakllari. Masalan: “Akvarium”, “Ko’zgu”, “Rollar dublyaji”, “Paralel”, “Rollarni almashish”, “Rollarning rotatsiyasi”, “Suhbatdosh stuli” kabi shakllari mavjud. Quyida “Rolli o’yin” metodining “Akvarium” shaklida olib borib, mashg’ulot davomida qo’llash uchun misol keltiramiz.

“SINF MAJLISI” MASHQI

Rolli o’yin metodi shartiga ko’ra ishtirokchilar turli rollarga bo’linib, shu rollarni ijro etishlari zarur bo’ladi. «Sinf majlisi» mavzusidagi rolli o’yinda maktab rahbari, sinf rahbari, o’zbek tili fani o’qituvchisi, past baho oluvchi o’quvchi (qiz bola) va uning otasi, past baho oluvchi o’quvchi (o’g’il bola) va uning unasi, sinf yetakchisi ishtirok etadilar. Muammo: o’quvchilarning reytingi pasayishi sabablari va yaxshilash choralari.

Barcha rollarga vazifalar tanaffusda topshiriladi. (Bu jarayonda trener rollarni o’zi tanlab topshirishi mumkin. Masalan, lider ishtirokchiga past baho oluvchi o’quvchi roli berilsa, u shu vaziyatga tushib, bu vaziyatda shu o’quvchini yaqinroq tushunishi imkoniyati tug’iladi).

Rolь ijrochilariga quyidagicha izohlar beriladi:

Maktab rahbariga: Sizning eng a’lo reytingli sinfingizning reytingi tushib ketdi. Siz aybdorlarni tezroq jazolamoqchisiz, sizning nazaringizda bunga sinf rahbari, fan o’qituvchilari, ota-onalar va o’quvchilar aybdorlar.

Sinf rahbariga: Sizning o’tgan 5 yil mobaynida rahbarlik qilayotgan sinfingiz maktabning eng ilg’or sinfi bo’lib kelgan, ammo o’zbek tili fani o’qituvchisi 2 ta a’lo baholarga o’qiydigan o’quvchingizga chorak yakuni bo’yicha past baho qo’ygan, shuningdek, bu yillar mobaynida maktab rahbari sizga o’z minnatdorchiligini bildirmadi, ota-onalarning ham e’tibori susaygan.

O’zbek tili fani o’qituvchisiga: Siz past baho qo’ygan o’quvchilar hamda o’sha sinf rahbari qo’ygan bahoingizdan norozilar. A’lo baholarga o’qigan bu o’quvchilar sizning darslaringizni va bu fanni yaxshi bilishlarini aytadilar, lekin vazifalarni bajarmas edilar.

Past baho oluvchi o’quvchi(qiz bola)ning otasiga: Maktab direktori sizni soat 15.00 ga sinf majlisiga telefon qilib chaqirgan. Kelmasangiz qizingizni boshqa sinfga o’tkazishlarini ma’lum qildi. Ishxonangizda esa, soat 15.30 da uchrashuv borligini kotibangiz aytgan.

Past baho oluvchi o’quvchi (o’g’il bola)ning onasiga: Sizni sinf rahbari soat 15.00 ga sinf majlisiga telefon qilib chaqirgan. Uning aytishi bo’yicha, o’g’lingiz maktabda o’qituvchilar bergan vazifalarni bajarmayotgan emish. Uyda o’g’lingiz xonasida soatlab «dars tayyorlamoqdaman», deb qolib ketadi. Kim yolg’on gapirayotganini aniqlashingiz kerak, lekin majlisga kelayotganingizda ustaxonadagi mashinangiz tuzalgani va uni tez olib ketishingiz zarurligini aytishdi.

Past baho oluvchi o’quvchi(qiz bola)ga: Siz o’zbek tilida yaxshi gaplashasiz, lekin o’zbek tili o’qituvchisi chorak yakuni bo’yicha sizga past baho qo’ydi. Boshqa bir nechta fanlardan ham bahoingiz ozgina tushgan. CHunki darslar borgan sari qiyinlashib bormoqda, uyda esa ota-onangizdan yordam so’rasangiz, ishdan charchab kelishganini ayti-shadi.

Past baho oluvchi o’quvchi (o’g’il bola)ga: Sizga ota-onangiz bu chorakni yaxshi baholarga bitirsangiz eng zamonaviy telefon apparati olib berishlarini aytishgan, lekin bu chorakda baholaringiz tushib ketdi.

Sinf yetakchisi: Sinfdoshlaringizning baholari tushib ketdi, siz ularga yordam bermoqchisiz, ammo past baho olishlariga o’zlari sababchi, o’qituvchilar bergan vazifalarni vaqtida bajarmayotgan edilar.

Jarayon boshlanishidan avval reglament belgilab olinadi.

Imkoniyat bo’lsa, jarayon tasvirga olinishi mumkin. Rolli o’yin tugagach, ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirib, jarayonni ishtirokchilar bilan muhokama qilinadi (tasvirga olingan bo’lsa, video lavhani ko’rib bo’lib, keyin muhokama o’tkaziladi).

“RASMNI QAYTARIB CHIZ” METODI

Ishtirokchilar orasidan xohishiga qarab bir ishtirokchiga geometrik figuralar chizilgan qog’oz beriladi (quyida berilgan), u bu qog’ozni ishtirokchilarga ko’rsatmasdan qisqa qilib ta’riflab berishi kerak.



O’quvchilar shu ta’riflangan tasvirni chizadilar. Buning uchun har bir ishtirokchiga A4 o’lchamdagi qog’oz tarqatiladi.

Vazifa:

- So’zlovchini e’tibor bilan eshiting.
- Jimlikda uning aytganini bajaring.
- Vazifa uchun 5 daqiqa beriladi.

Ish yakunlangach, geometrik figuralar chizilgan qog’oz ishtirokchilarga ko’rsatiladi.

Ishtirokchilarning chizgan figuralari bir-biriga o’xshamaydi.

“RASMLAR ORASIDAGI BOG’LIQLIK” METODI

Tinglovchilar guruhlarga bo’linadi. Guruhlarga 3 tadan turli xil mavzudagi rasmlar, yelim va vatman yoki A3 o’lchamdagi oq qog’oz tarqatiladi.

1-vazifa. Guruhda mana shu uchta rasmning mazmunini bog’lab hikoya tuzing. Bu vazifani berishda biron-bir mavzu asosida yoki 10 ta jumladan iborat bo’lgan kabi vazifalarni ham qo’shish mumkin. (Masalan, shu rasmlardan foydalanib “Toshkentga sayohat” mavzusida 15 ta jumladan iborat hikoya tuzing).

Bu hikoyalarni yozma shaklda oq qog’ozga yozishadi va tegishli o’rinlarga rasmlarni yopishtirishadi.

Taqdimot: guruh a’zolaridan bir kishi yoki bir necha kishi taqdimotni olib borishlari mumkin. Yaratilgan hikoyani o’qib, uning mazmunidagi tegishli o’rinlarda rasmlarni ko’rsatib va zarur darajada sharhlab, izohlab o’tishadi.

“DAVRLAR STULI” METODI

Mashg’ulot maqsadi:

1. Tinglovchi (o’quvchi)larda bir-birlarining “ichki olamlari” bilan yaqindan tanishishga imkon yaratish;
2. Tinglovchi (o’quvchi)larning o’tmish hamda o’z kelajaklariga “sayohat” uyushtirish;
3. Tinglovchi (o’quvchi)larni kelajakka nazar solib, maqsadlarni aniq qo’ya olishga o’rgatish;

Shuningdek, maktab o’quvchilarida:

4. O’quvchi o’tmish bilan hozirgi davrni tahlil qila olish ko’nikmalarini shakllantirish;
5. Sayyoramizda hozirda o’zgarib borayotgan ijobiy va salbiy o’zgarishlarga nisbatan o’z fikrlarini ifodalay olish ko’nikmalarini shakllantirish.

Mashg’utot uchun kerakli jihozlar:

Savollar yozilgan vatman (quyida keltirilgan):

1.Yoshingiz nechada?

2.Oilangizdagi muhit qanday (kishilar soni, qaerda ishlaydilar yoki o’qiydilar)?

3.Hozirda eng oliy orzuingiz nima?

4.Qaerda o’qiysiz yoki ishlaysiz?

5.Sayyoramizdagi qaysi voqea sizni quvontirmoqda?

6.Hozirda jahonda yuz berayotgan qaysi fojea sizni dahshatga solmoqda?

Mashg’ulot jarayoni:

Tinglovchi (o’quvchi)larning juft-juft bo’lib o’tirib olishlari iltimos qilinadi va vatmanga yozilgan savollar bilan tanishtiriladi.

1-vazifa. Juftlikda o’tirgan tinglochilarning biri intervьyu oluvchi, biri savollarga javob beruvchi rollarini bajarishlarini kelishib oling.

2-vazifa. Intervyu oluvchi yuqoridagi savollarni beradi, ularga javoblarni yozma tarzda daftaringizga yozing. 5 daqiqadan so’ng rollar almashiladi (intervьyu oluvchi javob beruvchi, javob beruchi esa intervьyu oluchi roliga o’tadi).

O’qituvchi: - O’zingizni qiziqtirgan savollarga javob oldingiz degan umiddaman, qarangki, biz do’stimiz bilan o’tirgan o’rindiq oddiy stul emas, bu “Davrlar stuli” ekan. Hozir stullarimiz o’z kuchini ko’rsatmoqchi. Qaranglar, biz samoga ko’tarildik va o’tmishga sayohat qilmoqdamiz. Sayyoramizga qo’ndik, qarang - 2002 yil. Barchamizning ko’rinishimiz yosharganga o’xshaydimi?

3- vazifa. Sizlarga berilgan savollarni “o’tmishda hamrox” bo’layotgan do’stingizga bering (savollarga javob 2002 yildagi yoshdan kelib chiqib olinadi. O’qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajargan holda bu jarayonni boshqarib boradi). 5 daqiqadan so’ng rollar almashiladi. Intervьyu oluvchi javob beruvchi roliga o’tadi. Har bir tinglovchi (o’quvchi) bu jarayonlarda turli rollarda ishtirok etib, “davrlararo sayohatni” o’zi boshidan kechirishi kerak.

O’qituvchi: - Mana, o’tmishga, 2002 yilga sayyohat qilmoqdamiz, stullarimiz esa, yana qaergadir sayyohat uyushtirish niyatida. Yana samo uzra uchmoqdamiz,

qanday chiroyli. Sayyormizga qo’ndik, lekin bu yerlarni tanib bo’lmayapti. O’quvchilar, biz kelajakka, 2020 yilga tushib qolibmiz.

4-vazifa. Savollarni endi kelajakka sayohatni birga olib borayotgan hamrohingizga bering. Intervьyu takrorlanadi. So’roq qilinayotgan tinglovchi (o’quvchi) xuddi kelajakdagidek savollarga javob beradi. 5 daqiqadan so’ng rollar almashiladi (intervьyu oluvchi javob beruvchi roliga o’tadi).

Tinglovchi (o’quvchi)lar ushbu jarayonni bajarish davomida yaqin o’tmish xotiralari va kelajak tasavvurlariga shu darajada sho’ng’ib ketadilarki, intervьyularni besh daqiqada chegaralash qiyin bo’lib qoladi. SHuning uchun besh daqiqa tugagach, o’qituvchi qarsak chalib ularni boshqarib boradi.

Jarayon yana o’z davrimizga qaytish bilan yakunlanadi. O’quvchilarning olgan taassurotlari umumiy xotirada saqlanishi uchun qisqa muhokama o’tkaziladi.

Savollar:

a) Qaysi bir davrga oid (o’tmish, hozirgi kun yoki kelajak) savollarga javob berish eng qiyin bo’ldi? Nima uchun?

b) Intervyu jarayonida qanday orzu va maqsadlar paydo bo’ldi?

v) Kelajakka nisbatan fikrlaringiz o’zgardimi?

Muhokama tugagach, agar ishtirokchilar o’quvchilar bo’lsa, kasbga yo’naltirish maqsadida “Kelajakda o’zingizni qaysi kasb egasi lavozimida ko’rdingiz?”, “Bu kasb egasi bo’lishingizda nima sizga turtki berdi?”, kabi mazmundagi savollarga javob yozib berishlari so’raladi.

«GLOBOALFAVIT» METODI

A4 formatli qog’ozlar avvaldan tayyorlangan bo’lib, ularda bittadan harf yozilgan bo’ladi (quyida keltirilgan).

Aa

Ishtirokchilarga bitta yoki xohishga qarab ikkitadan varaq tarqatiladi.

Vazifa:

- Qo’lingizdagi varaqda keltirilgan harfdan boshlanadigan interfaol metodga oid so’zlarni yozing (so’zlar soni cheklanmagan). Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
- So’zlar alfavit ketma-ketligida devorga osiladi va ishtirokchilar biri-birlarining bajargan ishlarini ko’zdan kechiradilar va kimning fikri bo’lsa, yoki yana yangi so’zlar bo’lsa, to’ldirish imkoniga egalar.

“HAR KIM – HAR KIMGA O‘RGATADI” METODI

Ushbu metod o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilmlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

Qo‘llanilishi:

- ✓o‘quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otish uchun;
- ✓axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- ✓sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

Afzalligi:

- o‘z fikrini lo‘nda bayon etishi;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi.

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Hamma guruh a’zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatiladi va masalani yechish shartlari tushuntiriladi.

1-Tarqatma.

Masala: G‘o‘za barg plastinkasining serbar belgisi (B) kambar belgisi (b) ustidan qisman dominantlik qiladi va F_1 duragaylarda barg plastinkasi oraliq holda rivojlanadi. F_1 duragaylar o‘z-o‘zi bilan chatishtirilsa, F_2 qanday hodisa ro‘y beradi?

1-qadam: masalani tushunib, yechib o‘qituvchiga taqdim etgan o‘quvchilar o‘qituvining “assistent” lariga ya’ni “kichik o‘qituchi” larga aylanadilar.

2-qadam: Masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilarga o‘qituvchi va assistentlar individual holda tushuntirish ishlarini olib boradilar va birgalikda masalani yechadilar.

3-qadam: O‘quvchilarga tarqatma № 2 tarqatiladi.

2 - Tarqatma

Masala: G‘o‘za turida tolaning malla rangi (A) oq rang (a) ustidan chala dominantlik qiladi va F_1 duragay o‘simligining tolasi novvot rang bo‘ladi. F_1 duragayini retsessiv belgiga ega bo‘lgan forma bilan qaytadan chatishtirilsa, hilma-xillik F_b qanday bo‘ladi?

1-qadam: Ikkinchi tarqatmadagi masalani yechish jarayonida “assistent” lar soni yana ko‘payadi.

2-qadam: Assistentlar va o‘qituvchi ikkinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: O‘quvchilarga tarqatma № 3 tarqatiladi.

3-Tarqatma.

Masala: G‘o‘zaning och antotsian rangli o‘simliklari o‘zaro chatishtirilishidan 680 ta o‘simlik olindi. Shundan 340 tasi och antotsian rangli. Qolgan o‘simliklarning qanchasi yashil rangli bo‘ladi.

1-qadam: Uchinchi tarqatmadagi masalani yechish jarayonida “assistentlar” soni yana ko‘payadi.

2-qadam: Assistentlar va o‘qituvchi uchinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: Bu harakat darsning oxirigacha davom ettirilishi mumkin. Natijada barcha o‘quvchilar mavzuni to‘liq tushunib, o‘zlashtiradilar.

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi. Dars jarayonida barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Mavzuni o‘z tengdoshlari yordamida o‘zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Assistentlarning esa “Masala yechish yo‘llarini tengdoshiga tushuntirar ekan” egallagan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Eng muhimi masalalar yechish ancha murakkab bo‘lsada, do‘stona, o‘zaro yordam muhitida osonroq o‘zlashtiriladi. Ushbu texnologiyadan ko‘zlangan maqsad ham shu.

“ESSE” METODI

Yozuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar.

Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko‘rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi imikoniyatlar beradi. Yozma nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to‘xtalamiz:

➢**Esse** – fransuzcha “essai” so‘zidan olingan bo‘lib, “sinov, analiz, tajriba, dastlabki loyixa” ma’nolarini bildiradi. Esse - shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta’lim oluvchi o‘zining mavzu bo‘yicha taassurotlarini, g‘oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki

fikrlarni zudlik bilan qog‘ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog‘ozdan uzmasdan, to‘xtalmasdan yozish. So‘ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo‘lishi e’tirof etilgan. Essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag‘ishlab yozish tavsiya etiladi. Esse - ta’lim oluvchilarning darsda eshitgan ma’ruzasi yuzasidan idrok etgan, o‘zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

➢**Asoslovchi esse** - bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo‘yichap muayyan nuqtai - nazarga ega bo‘lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. Shundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo‘ladi. Esse metodi o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g‘oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

➢**Biologik diktant** - fanga oid matndagi gaplarning ayrim so‘zlari, formulasi yoki biror fikr tushurib qoldirilib bayon qilinadi (yoki audio eshittiriladi). O‘quvchilar esa har bir bo‘sh qolgan joyga oid javoblarni o‘zlari topib yozib boradilar.

➢**Taqriz** - bu o‘qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai - nazardan baholanishidir.

Taqriz yozishda matnni o‘qigan kishining bu haqidagi shaxsiy fikri, bayon qilinishi lozim, matndan ko‘chirib yozish yoki uni qayta ta’riflash qabul qilinmagan.

Namunaviy savol. Yuksak o‘simliklarning gul hosil qilib ko‘payishining ijobiy hamda salbiy jihatlari haqida esse yozing.

AKVARIUM METODI

Akvarium - bu rolli o'yin bo'lib, unda 2-3 kishi qatnashadi, qolganlari esa kuzatuvchi vazifasini bajaradi, bu esa ba'zilarga vaziyatda «yashash», boshqalarga esa vaziyatni tashqaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Sinfdan uch o'quvchi ajratib olinib, ularga xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirishadi(bu uch nafar o'quvchini akvariumdagi baliqlar deb tasavvur qilamiz). Ulardan mavzu bo'yicha oldindan qo'yilgan muammoni 10 daqiqa atrofida birgalikda muhokama qilishlari so'raladi, qolgan o'quvchilar akvariumdagi baliqlarni kuzatgandek xona o'rtasida topshiriq bajarayotgan uch nafar o'quvchining fikrlarini diqqat bilan eshitishadi va ularning javoblarini har bir kuzatuvchi o'quvchi «to'g'ri»/»noto'g'ri» ga ajratib borishadi. So’ngra javoblar muhokamasi o'tkaziladi va barcha javoblar taqqoslanib, agar akvarium baliqlari rolidagi o'quvchilar yetarli javobni taqdim etmagan bo'lsalar, o'z o'rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi o'quvchilarga ajratib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

Bosqichlari:

Barcha ishtirokchilar kichik guruhlarga bo'linadi (2-3 kishi).

Kichik guruhlardan birining ishtirokchilari zalning markazidagi stolga («akvariumda») o'tirishadi va faol ishchi guruh rolini bajarishadi. Qolgan ishtirokchilar (passiv ishchi guruhi) esa kuzatuvchi vazifasini bajaradilar.

Faol ishchi guruhi ishtirokchilari topshiriqni bajarish uchun:
- vaziyat (vazifalar)ni ovoz chiqarib o'qish;
- munozara usuli yordamida guruhda muhokama qilish;
- 3-5 daqiqada umumiy fikrga kelish.

Passiv ishchi guruh ishtirokchilari tadbirning ushbu bosqichida munozara jarayoniga aralashmasdan tinglashi va kuzatishi kerak.

Faol ishchi guruhi a'zolari umumiy fikrni bildirgandan so'ng o'z joylarini egallaydilar va passiv ishchi guruh a'zolari quyidagi masalalarni muhokama qiladilar:

- Akvariumdagilar fikriga qo'shilasizmi?
- Ularning fikri yetarlicha asoslanganmi?
- Siz qaysi dalillarni eng ishonarli deb hisoblaysiz?

Shundan so'ng, boshqa guruh «Akvarium» dan joy oladi.Barcha guruhlar navbat bilan «Akvarium» ga tashrif buyurishi kerak va ularning har birining faoliyati tomoshabinlar tomonidan muhokama qilinishi kerak.

“PENALTY METODI”

Penalty ingliz tilidan tarjima qilinganda jarima ma’nosini beradi. Demak bu metod jarimalar bilan yanada qiziqarli

◉ Bu metodni qo‘llash uchun bizga koptok kerak bo‘ladi;

◉ O‘quvchilarni ikki guruhga ajratib olamiz. Bilamizki futbolda 11 tadan a’zo bo‘ladi. Demak har bir guruhingiz 11 a’zodan tashkil topgan bo‘lishi kerak;

◉ Demak jamoalarni quyidagicha shakllantiramiz:

🔷 Darvozabon 1 tadan (ikkala guruhning bittadan eng kuchli a’zosini darvozabon etib tayinlaymiz.
Chunki bu metodda darvozabon asosiy kishi) ;

🔷 Himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan o‘quvchi) ;

- Yarim himoyachilar (har bir jamoadan 4 nafardan o‘quvchi) ;

- Hujumchilar (har bir jamoadan 2 nafardan o‘quvchi).

Tarkiblar aniqlab olingach o‘yin boshlanadi.

1 Qura tashlash yo‘li bilan qaysi jamoa birinchi savollarga javob berishini aniqlab olasiz.

2 Aniqlashtirgach, birinchi javob beradigan jamoa darvozaboni doskaga chiqadi.

Raqib jamoa oldindan qog‘oz parchaga yozilgan savolni skoch yordamida to‘pga yopishtirib darvozabonga otadi. Darvozabon savolni o‘qib ko‘rib javob bera olsa

maksimal - 8 BALLni qo‘lga kiritadi

3 Agar darvozabon javobni bilmasa to‘p himoyachilarga o‘tadi va himoyachilardan birortasi savolga javob bera olsa 6 BALL ni qo‘lga kiritadi (-2 jarima bo‘ladi darvozabon javob bera olmagani uchun)

4 Agar himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to‘p yarim himoyachilarga o‘tadi va ular savolga javob bera olsa 4 BALLni qo‘lga kiritadi (-2 jarima himoyachilar javob bera olmagani uchun)

5 Agarda yarim himoyachilar ham savolga javob bera olmasa to‘p endi hujumchilarga o‘tadi va ular savolga javob bera olsa 2 BALLni qo‘lga kiritadi (-2 jarima yarim himoyachilar savolga javob bera olmagani uchun)

6⃣ Agar hujumchilar ham javob bera olmasa jamoa ballsiz qoladi va navbat endi raqib jamoaga keladi.

O‘yin shu tariqa navbatma navbat javob berish orqali davom etadi. Har bir jamoa 5 tadan savolga javob beradi.

📌Faqat jamoadoshlar savol javobini bir birlariga aytib qo‘ymasliklarini qattiq nazorat qiling ya’ni siz hakamsiz. Himoyachilar darvozabonga, yarimhimoyachilar himoyachilarga, hujumchilar yarim himoyachilarga ballni ko‘p olaylik degan maqsadda javobni aytib qo‘yishmasin yo‘qsa o‘yin kutulgan natijani bermaydi

O‘quvchilar savollarni oldindan mukammal tarzda tuzib kelsalar yanada yaxshiroq. Bu metod takrorlash darslarida ayniqsa juda ham samarali bo‘ladi.

🏆🥇🥈🥉 O‘yin oxirida taqdirlash marosimi o‘tkazasiz.

“O‘yinning eng yaxshi darvozaboni”
“O‘yinning eng yaxshi himoyachisi”
“O‘yinning eng yaxshi yarim himoyachisi”
“O‘yinning eng yaxshi hujumchisi”
kabi nominatsiyalar bilan faol qatnashgan o‘quvchilarni taqdirlab,o‘zingizning imzoingiz tushirilgan sertifikatlarni taqdim etsangiz o‘quvchilar uchun yanada qiziq bo‘ladi va albatta g‘olib jamoa uchun KUBOK ham tayyorlasangiz o‘quvchilar darsingizni sog‘inib kutishi aniq.

ENERJAYZERLAR

Seminar-trening yoki dars, mashg’ulot jarayonida ishtirokchilarni biror maqsad yo’lida yoki ularning aqliy, jismoniy, ruxiy faolliklarini oshirish uchun

qo’llaniladigan metod. Bu metod yordamida ishtirokchilarni kichik guruhlarga ham bo’lish mumkin.

«MEVALI SALAT» ENERJAYZERI

Bu enerjayzerni o’tkazish uchun turli mevalar (olma, nok, anor, mandarin)ning qalin qog’ozga ishlangan shakllari 4-5 tadan (ishtirokchilar soniga qarab) kesilib, savat yoki biron idishga solinadi. Ishtirokchilar doira shaklida o’tirib oladilar. Savatdagi «meva»lardan bit-tadan tanlab oladilar, lekin boshqa ishtirokchilarga ko’rsatishlari kerak emas. Tarqatib bo’lingach, vazifa tushuntiriladi.

Vazifa: Men biron mevaning nomini aytaman, qo’lingizda shu meva bo’lsa, boshqa shu mevasi bor ishtirokchi bilan o’rin almashishingiz zarur bo’ladi. «Ya’ni mevali salatimizni aralashtirish jarayoni». Agar «Salat» so’zini aytsam, barchangiz joy almashtirishingiz kerak bo’ladi.

Ishtirokchilar o’rin almashtirayotgan paytlarida trener chaqqonlik va ehtiyotkorlik bilan stullarni birma-bir doira atrofidan chetga olib qo’yishi zarur bo’ladi.

Enerjayzer so’ngida 5-6 ta ishtirokchi qolgach, ularni chaqqonliklari uchun qarsak chalib rag’batlantirish mumkin. Bu enerjayzerdan foydalanib, zarurat bo’lganida mevalar bo’yicha guruhlarga bo’lib olish ham mumkin.

«KIM YETAKCHI?» ENERJAYZERI

Ishtirokchilar orasidan bir ishtirokchi taklif etiladi. Vazifa quydagicha: taklif etilgan ishtirokchi xonadan tashqariga biroz vaqtga chiqib turadi. Bu vaqtda ishtirokchilar doira shaklida turib oladilar va doira atrofidagilardan biri yetakchilik vazifasini o’z zimmasiga olib, qolganlarga jismoniy mashqlar bajarishni ko’rsatib turadi. Qolgan ishtirokchilar bu mashqlarni takrorlaydilar (mashqlar vaqti-vaqti bilan o’zgarib turadi). Bu jarayon paytida xona tashqarisiga chiqib turgan ishtirokchi chaqiriladi va u doira atrofidagi ishtirokchilarni kuzatib oralaridagi

«etakchini» aniqlashi zarur bo’ladi. Yetakchi aniqlansa, yetakchi rolini bajaruvchi ishtirokchi xona tashqarisiga chiqib turadi va ishtirokchilar orasidan yana yangi yetakchi jarayonni davom ettiradi. Jarayon 10 daqiqa davom etadi.

«OB-HAVO» ENERJAYZERI

«Ob-xavo»da bo’ladigan jaryonlar aytiladi. Bular, quyosh, shamol, yomg’ir, qor. Ishtirokchilar o’rinlaridan turib olishadi va ushbu quyosh, shamol, yomg’ir, qor so’zlari aytilib, ularga monand harakatlar o’qituvchi tomonidan ko’rsatiladi. Masalan,

Quyosh so’zi aytilganda qo’llar yoyilgan xolda balandga ko’tariladi va oyoq uchida turiladi.

Shamol so’zi aytilganda qo’llar ko’tariladi va chapga, o’ngga xarakatga keltiriladi. (shamol xarakatining aksi qo’llar yordamida ko’rsatiladi).

Yomg’ir so’zi aytilganda qo’llar ko’tariladi va barmoqlar tepaga va pastga xarakatlanadi.

Qor so’zi aytilganda qo’llarni kaftlar bilan quchoqlab, sovuq qotgan holatni aks ettiriladi.

Vazifa. O’qituvchi shu so’zlarni aytib, xarakatlarni ko’rsatadi, ishtrokchilar esa, bu xarakatlarni qaytarishlari kerak, ammo bir necha marta takrorlangandan so’ng o’qituvchi ularni chalg’itishi mumkin. Lekin ishtrokchilar buni tezda anglab, so’zlarga mos xarakatlarni davom ettirishlari lozim.

«ILTIMOS, BUNDAY QILING!» ENERJAYZERI

Ishtirokchilar doira shaklida turib oladilar. O’qituvchi ularga «Iltimos bunday qiling! » deya biron-bir xarakatni taklif etadi. Ishtirokchilar bu xarakatni qaytarishlari kerak. Lekin o’qituvchi «Iltimos» so’zini ishlatmasdan faqat «Bunday qiling!» deya murojaat etsa, ishtrokchilar u tavsiya etayotgan xarakatni bajarishlari kerak emas. Bunda ishtrokchilar e’tiborlarini kuchaytirishlari talab etiladi.

REFLEKSIYA MASHQLARI

Refleksiya-(reflection) ingliz tilidan olingan so’z bo’lib, aks ettirmoq, tasvirlamoq ma’nolarini anglatadi. Refleksiya oldinroq bo’lib o’tgan voqea, jarayon yoki vaziyatlarni aks ettirish, yodga olish uchun qo’llaniladi. Asosan yana bir bor yodga olib xotirada saqlab qolish maqsadida seminar-trening, dars, konferentsiya, majlis yakunida yoki ertangi kun boshida qo’llaniladi.

«BUTERBROD» REFLEKSIYA MASHQI

Ko’z o’ngimizga buterbrodni keltiramiz. Bunda ikkita non bo’lagi orasida go’shtli kotlet bo’lagi bo’ladi. Kotletsiz buterbrodimiz quruq bo’lib qoladi. Shunday ekan, vazifa quyidagicha: bugungi kun (yoki kechagi kun) yakuni bo’yicha siz uchun foydali bo’lgan ikkita ma’lumot orasiga bitta yo’l qo’ygan kamchiligingizni aytib, bularni «hazm» qilamiz. Ya’ni, ikki non bo’lagi orasiga bir dona kotlet- (o’xshatish tarzida) qo’yamiz, buni qo’llar harakati orqali aks ettirish ham mumkin.

«GAPNI TO’LDIRING!» REFLEKSIYA MASHQI

1. Men bugungi darsdan menga kerakli bo’lgan ……. ma’lumotni oldim.
2. Kechagi darsdan men uchun foydali bo’lgan ma’lumotlar, bular……
3. Darsda menga yangilik bo’lgan ma’lumot bu ……. va takror bo’lgan ma’lumot bu…….

«KECHAGI KUNNI TASVIRLANG!» REFLEKSIYA MASHQI

Ishtrokchilarga o’tgan mashg’ulotni eslab, tasvirlab berish, ya’ni daftarlariga o’tgan mashg’ulotni tasvirlab rasm chizishni taklif qilinadi. Bunda biron-bir belgilar, shakllar yoki rasmlar orqali tasvirlab berish mumkin.

«PANTOMIMA» REFLEKSIYA MASHQI

Ishtrokchilar guruhlarga bo’linadi. Vazifani esa, o’tgan mashg’ulotni ovoz chiqarmasda pantomima ko’rinishida ko’rsatib bering, deb aytiladi. Guruhlar ishlarini rejalashtirib olishlari uchun 3-5 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimotda guruhning barcha ishtirokchilari qatnashishlari shart va ovoz chiqarmasdan o’tgan mashg’ulot pantomimasini ko’rsatib beradilar.

Xulosa

Jahon ta’limi tajribasining guvohlik berishicha, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo’lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo’ladi. Zero, shaxs mansub bo’lgan muhitda uning tafakkuri, ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishi uchun zarur bo’lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo’lgan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. Talaba yoshlar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta’lim mazmunini kengroq boyitish va ta’lim uzluksizligini ta’minlab berish uchun yangidan-yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo’yicha o’quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko’zda tutadi.

Yangicha yondoshuv, yangicha fikrlash asosida o’qitish jarayonida talabalar faoliyatining samarali shakl va uslublari, ularning mustaqil ishlarini tashkil qilish kerak. Bunda mustaqil topshiriqlar talabalarni o’ylashga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o’z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o’rgatadi.

Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni o’tish jarayonida muammoli vaziyat talabalarning qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadi. Muammoli vaziyatni yaratishdan ko’zlangan asosiy maqsadni amalga oshirish uchun vaziyatni baholashda talabalarning og’zaki va yozma javoblaridan vaqti-vaqti bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida bahs-munozara darslari, aqliy hujum o’yinlarida keng ko’lamli bilim, tajriba va mustaqillikka asoslangan holda mashg’ulotlar tashkil etilsa, quyidagi natijalarga erishiladi:

- mashg’ulotlar davomida talabalarning mustaqilligi, ixtiyoriyligi va erkinligiga erishiladi;
- talabalar o’z fikr va qarashlarini himoya qilishga o’rganadi, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydi;
- talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o’rganadi va ularda o’zaro hurmat hissi ortib boradi;
- talabalar o’quv faniga doir materiallar bilan mustaqil ishlashga, izlanishga, o’qitishning samarali shakl va uslublaridan ijodiy foydalanishga odatlanib boradi;
- talabalarda bilimlarni mustaqil egallash, ijodiy fikr yuritish va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;
- o’quv mashg’ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga, o’zaro fikr almashishga, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va taqqoslashga o’rganadi.

Oliy o’quv yurtlarida axborot texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg’unlashgan holda qo’llash talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, o’quv mashg’ulotlari samaradorligini, o’qituvchilarning kasbiy

tayyorgarligi, o’qitishda masofaviy ta’lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondoshuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob’ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o’zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o’qitish va bilim o’zlashtirish jarayonlarida qo’llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Mana shu metod va usullarni ishlab chiqish, ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llash o’qituvchi (pedagog)larning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi zarur. Shundagina jamiyatimiz uzluksiz ta’limda faoliyat ko’rsatayotgan xodimlar oldiga qo’yayotgan ijtimoiy buyurtmani bajara olishiga erishishi mumkin.

Hozirgi vaqtda Vatanimizda yoshlarning bilim olishiga katta e’tibor berilyapti. Ularning zamonaviy bilim egallashlari, yetuk ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda.

Yurt yuksalishining muhim vazifasihar tomonlama yetuk kadrlarniyetishitirishdan iboratdir. Hech birmamlakat o‘z ma’naviy quvvat va imkoniyatlariga tayanmay, inson tafakkurida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivoj toptirmay, jamiyatning milliy ruhini uyg‘otmay turib, buyuk taraqqiyot darajasiga ko‘tarilmagan.

Maktab o‘qituvchisining jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar o‘z samarasini beryapti. Ta’lim tizimida zamonaviy talablar asosida darslar tashkil etish, o‘quvchiningtahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirishga mo‘ljallangan qiziqarli, rangli materiallar tayyorlash dars jarayonini qiziqarli qilibgina qolmay, o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishga ham imkon yaratyapti.

Testologiya (pedagogik o‘lchovlar) bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash (o‘lchash) uchun ilmiy asoslangan, sifat talablariga javob beradigan o‘lchov vositalarini (testlarni) yaratish va qo‘llash haqidagi fan sohasi sifatida pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistika singari fanlar

asosida XX asr boshlarida shakllandi. Hozirgi kunga kelib “klassik test nazariyasi”, “zamonaviy test nazariyasi (IRT nazariyasi)” va “umumiylashtirish” (genegalizatsiya) nazariyasi” deb ataladigan bir qancha fundamental nazariyalarni va bu nazariyalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga olgan bu soha xorijda shiddat bilan rivojlanmoqda, oliy ta’lim muassasalarida alohida yo‘nalish sifatida o‘qitilmoqda, nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda, ilmiy darajalar berilmoqda.[i5]

Har qanday xizmat sifati, shu jumladan, ta’lim, agar uni sifatning o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari orqali ifodalash mumkin bo‘lsa, boshqaruv ob’ektiga aylanishi mumkin. Bu ularni nazorat qilish, shuningdek, rejalashtirish, yaxshilashning yagona yo‘li hisoblanadi.

Ta’lim jarayoni uch asosiy komponentdan tashkil topadi:

- **ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari (curriculum)**
- **o‘qitish metodikasi va o‘qitish materiallari (pedagogy)**
- **baholash usullari (assessment)**

O‘quv dasturlari va rejalari ta’lim maqsadlarini belgilaydi.



Ushbu maqsadlarga mos ravishda o‘qitish metodikasi va o‘quv materiallari tanlanadi. Agar ushbu uch komponent bir- biriga uyg‘un bo‘lsa, ta’lim tizimi samarali ish olib borayotgan bo‘ladi.

Baholash ta’limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Baholash – o‘lchash jarayoni bo‘lib, bunda bilim, ko‘nikma, kompetensiyalar o‘lchanadi.

“Baholash nazariyasi asoslari” nomli kitobda pedagogik o‘lchovlar nazariyasining konseptual apparati, ta’limda o‘lchov natijalarining ishonchliligi va validligi haqida hamda Pedagogik o‘lchovlarning ob’ektivligi, o‘lchov fazosi

[5] Komil Jalilov “Baholash nazariyasi asoslari”

o‘lchami, o‘lchovlarning darajasi va shkalalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xulosa, amaliy topshiriqlar va muhokama uchun savollar berilgan.

Pedagogik o‘lchovlar- ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini o‘lchash (aniqlash) usullari va vositalarini ishlab chiqish hamda qo‘llaydigan pedagogika sohasi.[6]

Baholash – biron-bir domenning test topshiruvchilarda shakllanganlik darajasini o‘lchash bo‘lib, quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- bilvosita;
- maxsus yaratilgan topshiriqlar yordamida;
- cheklangan sondagi topshiriqlar yordamida.

Pedagogikada o‘lchashning mohiyatini tushunish uchun domen va konstrukt tushunchalarini bilish kerak.

Baholashning asosiy tushunchalari mavjud.

✓**Domen** – bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar majmui.

Masalan, 6- sinf ona tili darslarida so‘z turkumlaridan fe’l o‘tildi: harakat va holat fe’llari, o‘timli va o‘timsiz fe’llar, fe’l nisbatlari, aniq nisbat, o‘zlik nisbat, majhul nisbat, orttirma nisbat, orttirma nisbat qo‘shimchalarining ishlatilishi, birgalik nisbat, fe’lning vazifa shakllari, ko‘makchi fe’llar, fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari, fe’lning ma’noviy guruhlari, fe’llarning munosabat shakllari haqida ma’lumot berildi. Fe’llarni o‘g‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllantirildi. Ana shu 6-sinf uchun fe’l bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka va kompetesiyalar yig‘indisi **domen** hisoblanadi.

Ta’limning har bir bosqichi uchun tegishli domen ta’lim standartlari va o‘quv darslarida belgilab beriladi. Davlat ta’lim standartlarida maktab o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar majmui (domen) har bir fan bo‘yicha aniq qilib berilgan.

✓**Konstrukt** – o‘lchanishi lozim bo‘lgan xususiyat.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi biron- bir domenga tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar qay darajada shakllanganliginibilish uchun qaysi bilim,

[6] Komil Jalilov “Baholash nazariyasi asoslari”

koʻnikma, malaka, kompetensiyalarni oʻz ichiga olishini hamda shu domenga xos qaysi konstruktlarni (xususiyatlarni) oʻlchash kerakligi aniqlab olinadi. Shundan keyin oʻquvchining qanday topshiriqlarni bajarishi orqali mazkur konstruktlarni kuzatib baho berish mumkin.

Masalan, 9-sinf adabiyot darsida oʻquvchining doston haqidagi olgan bilimlarini bilish uchun bu domen qanday konstruktlarni oʻz ichiga olganligini aniqlash lozim boʻladi, ya'ni dostonning oʻziga xos xususiyatlarini bilish, talqin qilish kabi. Shunday qilib, oʻquvchiga shu konstruktlarni bilish imkonini beruvchi topshiriqlarni bajarish orqali uning mazkur mavzuga tegishli boʻlgan domenni qay darajada egallaganligi toʻgʻrisida xulosa chiqarish mumkin boʻladi.

PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlashni baholash uchun qancha koʻp domenlar qamrab olinsa, konstruktning qamrab olishi shunchalik yaxshi boʻladi.

✓**"Kreativ ifodalash" deganda shaxsning ichki dunyosini (kechinmalarini) oʻzgalarga yetkazib berish hollari tushuniladi. Ushbu mavzu mazmun sohasi, oʻz navbatida, "yozma ifodalash" va "vizual ifodalash" sohalariga (domenlari ga) boʻlinadi.**

PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash keng mavzudagi mazmun sohalariga e'tibor qaratadi: "kreativ ifodalash" va "bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish". Ushbu sohadagi kreativ faollikka oʻziga xoslik (originallik), estetika, xayolot, emotsional mazmun va reaksiya xosdir. Aksincha, "bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish" sohasidagi ijodiy faollikka ochiq (yagona toʻgʻri javobi boʻlmagan) savol va muammolarni tadqiq etish bilan bogʻliq kreativ fikrlashning amaliy koʻrinishlari kiradi. Bu soha, oʻz navbatida, "ilmiy muammoni hal qilish" va "ijtimoiy muammoni hal qilish" sohalariga (domenlariga) boʻlinadi. Ushbu sohalarda, kreativ faollik afzalroq natijaga vositadir, shuning uchun oʻziga xos, innovatsion, ta'sirli va samarali yechimlarni taklif etish deb ta'riflanishi mumkin. Ushbu toʻrt baholash sohalari real hayot va kundalik ijodiy fikrlash mohiyatini aks ettirib, 15 yoshli oʻquvchilar, odatda, mashgʻul boʻlishi mumkin boʻlgan kreativ fikrlash faoliyatini nisbatan darajada qamrab oladi.

Ular ijodiy fikrlashning maktabdagi barcha ehtimoliy ifodasini qamrab ololmasa ham, kreativ fikrlash konstruktini yetarli darajada qamrab oladi, shuningdek, PISA baholashining turli logistik va texnik cheklovlarini inobatga oladi.[7]

Baholashning maqsadlari:

- **shakllantiruvchi baholash (formative assessment)**
- **ta'lim jarayonini ta'minlash**
- **qayta aloqa (feedback)**

Testologiya bu- bilim, ko'nikma, kompetensiyalarni baholash jarayoni qonuniyatlari haqidagi fan sohasidir.

Test- baholanishi lozim bo'lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig'indisi.

Test turlari:

- ✓**normaga mo'ljallangan test**
- ✓**mezonga mo'ljallangan test**
- ✓**ipsativ test**
- ✓**muvaffaqiyat testlari**
- ✓**egallash testlari**
- ✓**prognostik testlar**
- ✓**diagnostik testlar**

Test baholanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma hamda kompetensiya haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan har qanday topshiriqlar yoki topshiriqlar yig'indisi sanaladi.

Bu topshiriqlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- ✓**yopiq test – berilgan variantlardan faqat bittasi tanlanadigan test;**
- ✓**ochiq test – javob yozish talab qilanadigan test;**
- ✓**amaliy test – bajarib, ko'rsatilishi lozim bo'lgan test.**

[7] PISA TADQIQOTIDA KREATIV FIKRLASHNI BAHOLASH DOIRASI. TOSHKENT – 2020

Test tuzishda baholanishi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikma yoki kompetensiyaga amal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar qamrab olinadi.Baholanishi lozim bo‘lgan domen (bilim, malaka yoki kompetensiya) haqida xulosa chiqarishga imkon berishi va uni bajarish shart- sharoitlari hamma test topshiruvchilari bilan teng bo‘lishi kerak.

Ochiq test topshiriqlarining turlari	**Izoh**	**Misollar**
Bitta so‘z (yoki so‘zlar) tushirib qoldirilgan gapdan iborat tashkil topgan ochiq topshiriqlar	Berilgan gap yoki matn tarkibidan tushirib qoldirilgan so‘z yoki so‘z birikmalarini tiklash	**Bilimli … ning kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar. (Maqol)** a) qiz b) o‘quvchi
Qo‘shimchalar tushirib qoldirilgan gapdan iborat tashkil topgan ochiq topshiriqlar	Berilgan gap yoki matn tarkibidan tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni tiklash	**Uni ko‘rgan boshqa jonzot… qo‘rqqanlaridan butalar orasi… yashirinishar yoki daraxt tepasiga chiqib olishar ekan.** a) –lar b) –ga

Berilgan savolning javobini yozing (ochiq test).

Qaysi organ nutq tovushini hosil qilishda ishtirok etadi?



Berilgan savolning javobini yozing (ochiq test).

"Saddi Iskandariy" dostoni necha bob, necha baytdan iborat?



1.Qaysi gapdagi ega vazifasidagi so‘z tarkibidaishtirok etgan undoshlarning barchasi jaranglitil undoshlari sanaladi?(yopiq test)

A) Ilm olish oson ish emas, unga har kimchidayvermaydi.

B) Javohir yo‘lda adashib qolgan bir cholniko‘rib qoldi.

C) Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomgayo‘rg‘alar.

D) Shunda botir o‘g‘lonlar yurt himoyasigaotlanibdilar.

2. Qaysi javobda egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush o‘zgarishi bilan

yoziladigan tub so‘zlar qatori berilgan? (yopiq test)

A) bilak, qovoq, chelak

B) axloq, tirnoq, pishloq

C) yurak, buyruq, kerak

D) sovuq, sana, o‘ym[8]

1.Berilgan tasvirlarning qay biridan qo‘shma ot hosil qilish mumkin? (amaliy test)

Javob: _____

[8] Ona tili va adabiyot. Davlat test makrazi. 2019

2. Odil Yoqubovning avtobiografik asari nomini yozing.(amaliy test)

Javob: _____

Validlik

Ta’lim jarayonida test biron-bir domenni, shu domen o‘z ichiga olgan konstruktlarni o‘lchash uchun qo‘llanilishini ko‘rib chiqdik.

Ta’lim oluvchining bilim darajasini, unda ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini bevosita ko‘rish imkoni mavjud emas: o‘qituvchi bularni faqat bilvosita (savol-javob, kuzatish, topshiriqlar bajarish orqali) ko‘rishi, o‘lchashi mumkin. Bunday o‘lchash natijasida chqarilgan xulosalar asosida biron-bir shaxs yoki tashkilot (masalan, o‘qituvchi, ta’lim muassasasi, ish beruvchi) tomonidan ma’lum bir qarorlar (masalan, diplom berish, yoki bermaslik, o‘qishga yoki ishga qabul qilish yoki qilmaslik v.h.k.) qabul qilinadi.

Qabul qilinadigan qarorlar asoslantirilgan bo‘lishi uchun test asosida chiqarilgan xulosalar ham valid[9] (asosli) bo‘lishi lozim.[10]

Validlik nima?

Haqiqiylik tushunchasi olim J.Kelli tomonidan ishlab chiqilgan, agar u sinovni o‘lchashni talab qiladigan narsani o‘lchasa, u haqiqiy bo‘ladi.

Masalan, aqlni sinash aqlni o‘lchashi kerak, boshqa narsani emas (masalan, xotira).

[9] https://uz.larafornm.com/validity-9#menu-1
[10] Baholash nazariyasi asoslari. Komil Jalilov

Ichki va tashqi haqiqiylikni farqlash mumkin. Ushbu turdagi amallar tadqiqot tadqiqotlari / protseduralarining haqiqiyligini baholash uchun muhimdir.

Validlik- test sifatini belgilovchi asosiy mezon. Test natijalari asosida xulosalarga kelinadi va ma’lum bir qarorlar qabul qilinadi. Demak, bu xulosalar va qarorlar asosli bo‘lishi lozim.

Validlik dalillari:

- **testning mazmuni bilan bog‘liq dalillar;**
- **test topshiriqlarini bajarish jarayoni bilan bog‘liq dalillar;**
- **testning ichki strukturasi bilan bog‘liq dalillar;**
- **testning boshqa o‘zgaruvchilar bilan bog‘liqligi asosidagi dalillar;**
- **testning oqibatlari bilan bog‘liq dalillar.**

(Standards, 1999, 2014.)

VALIDLIK – (ing. “haqiqiy deb tan olish”, “tasdiqlash”) test natijalarini baholashdagi asosiy mezon. Validlik tushunchasi progmatik g‘oyaning asosiy amali deb biladi, shaxsning psixologik xususiyatlarini tekshira oladi. Ilgari validlik so‘zining ma’nosi “testning sifati” tushinilgan bo‘lsa, hozirgi paytda “test natijalarini interpretatsiya qilmoq” bo‘lib, asosiy tushuncha borligi va test natijalarini qo‘llash tushiniladi. Validlik tushunchasi testning sifatini emas, balki testning natijalari bilan o‘xshash taraflarini ko‘rsatadi.

Amerikalik olima A.Anastazining mulohazalariga qaraganda TEST ning VALIDLIGI – “testni o‘lchovchi” va “ o‘zgartiruvchi” degan ma’noni beradi. Validlik bizga metodikaning qo‘llanishiga yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlab beradi. Validlikni nazariy jihatlarini o‘rganuvchi eng keng qo‘laniladigan usul bu konvergent validlik hisoblanadi. Boshqa metodikalar bilan taqqoslash diskreminant validlik hisoblanadi. Keyingi validlik bu progmatik validlik hisoblanadi. Bu metodikaning amaliy jihatdan qanchalik yaroqli ekanligini tekshiradi.

Validlikning bir necha turlari mavjud. Ular quyidagilar:

1) konkurent validlik;

2) prognostik validlik;

3) konseptual validlik;

4) ichki validlik;

5) differensial validlik.

1. Konkurent validlikbu – validlik turi baholash korrelyatsiyasi yig‘indisini testlardagi boshqa validlik turlarini o‘rganishni yanada soddalashtirib beradi.

2. Prognostik validlik – testlarning darajasini, axborotini, xarakter darjasini aniqlik ko‘rsatkich asosida belgilab beradi. Bu validlik turida vaqtni o‘lchanganligini ko‘rsatadi.

3. Konseptual validlik – bunda operatsional validlik tushinaladi, interpretatsiya usulining adekvatliligi, u termin va atamalarning to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi. Konseptual validlik 1955- yili L. Kronbax tomonidan tasdiqlangan, nazariy tuzilgan testni o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Bir mezonni topish qiyin bo‘lganda gipotezaga nazar tashlanadi. Bu gipotezalarning tasdig‘i nazariy asoslanish bilan ko‘riladi. Konseptual validlik validliklarning ichida eng murakkab deb tan olinadi. Bunda bir natija o‘rniga ko‘plab natijalarni qayd etish lozim.

4. Ichki validlik – bu validlik turi ham boshqalarini bir- biri bilan bog‘lashni ta’minlaydi. Bu validlik turi alohida muolajadan iborat bo‘lib belgilash, aniqlash bir necha ko‘rinishlar asosida tajribada to‘liq amalga oshadi.

5. Differensial validlik – validlikning bu turi testlardagi qiziqish darajalarining taqqoslanishiga sabab bo‘ladi. Misol uchun, ikkita masalaga doir yechimni olaylik. Bunda uning sababini aniqlashga harakat qilinadi. Yechimni topish usullari ko‘riladi. Topilmaning yechimlari o‘zaro solishtirilib bir- biri bilan taqqoslanadi. Validlikning bu turi ham psixik umumiylikni o‘zaro taqqoslaydi.[11]

Validlikning dalillari

[11] https://hozir.org/i-kirish-psixodiagnostik-testlarda-standartlashtirish-tushunch.html#3._STANDARTLASHTIRISHDA_VALIDLIK_VA_ISHONCHLILIK_TUSHUNCHALARI

Test asosida asosli (valid) xulosdalar chiqara olish uchun testni to‘g‘ri tuzish, uni o‘tkazish, uning natijalarini qayta ishlash va e’lon qiluvchi tashkilotlar validlikning bir qancha dalillarini keltirishlari kerak.

Validlik talablari

- **test topshirish sharoitlari bilan bog‘liq omillar;**
- **adolat – test topshiruvchilarga o‘lchanayotgan domen doirasida o‘z qobiliyatlarini namoyish qilishga teng imkon berilishi;**
- **shaffoflik – test topshiruvchilar va jarayonning boshqa ishtirokchilarida test nimani tekshirishi, qanday**
- **mezonlar asosida tekshirishi haqida yetarli ma’lumotga egaligi;**
- **testni baholash va natijalarni hisoblash jarayonlari bilan bog‘liq omillar;**
- **baholovchilar ishonchliligi (ichki, o‘zaro).**

Test tuzishga qo‘yiladigan maqsad

Test topshirig‘idan maqsad test topshiruvchini chalg‘itish bo‘lmasligi kerak. Test topshirig‘i chalkash bo‘lmasligi, tushunarli, lo‘nda, imlo xatolarsiz, sodda va ravon bo‘lishi kerak.

Tushunarsiz yozilgan test topshiriqlari o‘z vazifasini bajarmaydi, ya’ni bilimlini bilimsizdan ajratib bermaydi.

Bugungi kunda mavhumlik, iqtisodiy inqirozlar, beqarorlik, o‘zaro nizolar hukmronlik qilar ekan, jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatidemakdir.[1]

O‘qish va o‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, madaniyat, iqtisodiyot, texnologiya kabi turli sohalarda o‘z aksini topib kelmoqda.

O‘qish savodxonligi quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ **aqliy faoliyat;**

✓**til kompetensiyalari;**

✓**oddiy o‘qishdan to so‘zning asl ma’nosini tushunishga qadar bo‘lgan jarayon;**

✓**tushunish uchun zarur bo‘lgan grammatika va tilshunoslikning kengroq sohasiga xos shakllari;**

✓**kishining olam haqidagi bilim bilan ma’no bog‘liqliklari.**

O‘qish savodxonligi nafaqat ta’lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi.

“Tushunish” so‘zi “o‘qib tushunish” atamasining ommaviy tasdiqlangan tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qish orqali o‘quvchining avvaldan mavjud bilimi bilan matndan olingan ma’lumotni ma’lum darajada integratsiyasini talab etadi.

“Foydalanish” so‘zi vazifasi va amalda qo‘llanishiga ko‘ra ma’lum bir o‘qigan narsamizdan biror maqsadda foydalanishni anglatadi.

“Mulohaza yuritish” shuni anglatadiki, bunda o‘quvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtda o‘zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanishadi. Har bir o‘qish harakati mulohazani talab qiladi: o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni tashqi ma’lumotlar bilan bo‘glaydi va tahlil qiladi.

“Munosabat bildirish” shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, maqsadiga erishish yo‘lida matnni tushunish, matndagi ma’lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

Shaxs funksional savodxonligining muhim tarkibiy qismlari:

- ✓ **doimiy ravishda o‘rganish va rivojlanish;**
- ✓ **hayoti davomida olgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llay olish;**
- ✓ **faol ijodiy fikrlash;**
- ✓ **belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish;**
- ✓ **o‘zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo‘l hamda hayotiy ko‘rsatmalarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish.**

2018-yildagi PISA tadqiqoti qamrov doirasi matnning to‘rt xil yo‘nalishini belgilaydi:

- Tur:

tasvirlash, hikoya qilish, tushuntirish, munozara, yo‘riqnoma, muloqot, dalolatnoma

- Manba:

bitta, bir nechta

- Tuzilish: yaratuvchi va yo‘naltiruvchi
- Shakl:

davomli, qisqa, aralash

Kognitiv (bilish) jarayoni

- ✓Erkin va ravon o‘qish;
- ✓Matn ichidagi ma’lumotlarni olish va foydalanish;
- ✓Tegishli matnni qidirish va saralash;
- ✓So‘zma-so‘z ma’nosini tasvirlash;
- ✓Shakl va mazmun ustida mulohaza yuritish;
- ✓Sifat va ishonchlilikni baholash;
- ✓Qarama-qarshiliklarni aniqlash va qayta ishlash;
- ✓Xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish.[1]

Baholash

➢PISA o‘qish savodxonligini mashqlardan va matn omillaridan foydalanish orqali baholaydi.

➢PISA o‘qish savodxonligini baholash, o‘quvchilarning o‘qish jarayonlarini (o‘quvchilarning matnga bo‘lgan aqliy yondashuvlarini), turli matnlar vositasida baholashga qaratilgan.

➢Topshiriqlar matndan aniq bir so‘z yoki jumlalarni topishni talab qilsa-da, ko‘p hollarda zarur ma’lumotni topish va undan xulosalar chiqarish orqali o‘qish savodxonligi tekshiriladi.

PISA bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalari

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalari quyidagicha tavsiflanadi.

Kreativ fikrlash insonga XXI asr jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun kerakli bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biridir. “XXI asr ko‘nikmalari” yoki “XXI asr kompetensiyalari” deb ataladigan bu kompetensiyalar muttasil o‘zgarib borayotgan, biz bilgan kasblar yo‘qolib, yangi mutaxassisliklar paydo bo‘layotgan, globallashgan, mavjud ma’lumot hajmi har soniyada bir necha barobarga oshib borayotgan, raqamlashgan jamiyatda moslasha olish va o‘z o‘rnini topish uchun juda muhimdir. Bu kompetensiyalar kognitiv ko‘nikmalarning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini, jumladan, mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil va sintez, muammolarga yakka tartibda va jamoa bo‘lib nostandart yechimlar topa olish qobiliyatlarini taqozo qiladi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish esa, o‘z navbatida, an’anaviy kontentga asoslangan pedagogika va baholash usullaridan chekinib, kompetensiyaga asoslangan o‘qitish va baholashni joriy qilishni talab qiladi.

Kreativlik

Kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ijodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san’atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko‘nikma va qobiliyatlar ham zarur bo‘ladi. Masalan, san’at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog‘liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda

jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e’tirof ham talab etiladi.

“Kreativ ifodalash” deganda shaxsning ichki dunyosini (kechinmalarini) o‘zgalarga yetkazib berish hollari tushuniladi. Ushbu mavzu mazmun sohasi, o‘z navbatida, “yozma ifodalash” va “vizual ifodalash” sohalariga (domenlari ga) bo‘linadi.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash keng mavzudagi mazmun sohalariga e’tibor qaratadi: “kreativ ifodalash” va “bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish”. Ushbu sohadagi kreativ faollikka o‘ziga xoslik (originallik), estetika, xayolot, emotsional mazmun va reaksiya xosdir. Aksincha, “bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish” sohasidagi ijodiy faollikka ochiq (yagona to‘g‘ri javobi bo‘lmagan) savol va muammolarni tadqiq etish bilan bog‘liq kreativ fikrlashning amaliy ko‘rinishlari kiradi. Bu soha, o‘z navbatida, “ilmiy muammoni hal qilish” va “ijtimoiy muammoni hal qilish” sohalariga (domenlariga) bo‘linadi. Ushbu sohalarda, kreativ faollik afzalroq natijaga vositadir, shuning uchun o‘ziga xos, innovatsion, ta’sirli va samarali yechimlarni taklif etish deb ta’riflanishi mumkin. Ushbu to‘rt baholash sohalari real hayot va kundalik ijodiy fikrlash mohiyatini aks ettirib, 15 yoshli o‘quvchilar, odatda, mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kreativ fikrlash faoliyatini nisbatan darajada qamrab oladi.

Ular ijodiy fikrlashning maktabdagi barcha ehtimoliy ifodasini qamrab ololmasa ham, kreativ fikrlash konstruktini yetarli darajada qamrab oladi, shuningdek, PISA baholashining turli logistik va texnik cheklovlarini inobatga oladi.[1]

Kompetensiya

Matnga kirib ochiq yoki yashirin holatda berilgan ma’lumotlarni olish.Ma’lumotlarni talqin qilish va ularni uyg‘unlashtirish.Matn shakli va mazmuni haqida mulohaza yuritish.

Matn turlari

Qisqa matnlar

Qisqa matnlar uzun matnlardan farqli o‘laroq, ma’lum bir tartibda bo‘ladi, shuning uchun ular turlicha o‘qish usullarini talab etadi. Qisqa matn ko‘rinishlari bular: ro‘yxat, jadval, grafik, diagramma, e’lon va katalog, ilova va arizalardir. Bunday matn ko‘rinishlari o‘zgarmas va dinamik bo‘lishi mumkin.

Uzun matnlar

Uzun matnlar sahifalarga ajratilgan birliklardan iborat bo‘ladi. Ularga misol sifatida ro‘znomalardagi maqolalar, insholar, romanlar, qisqa hikoyalar, taqrizlar va xatlarni keltirshimiz mumkin. Matnlar o‘quvchilar farqlay olishi uchun sarlavhalar va mavzu bilan ajratib tuzilgan. Bunday belgilar matn chegaralari (masalan, bo‘limlar yakuni) ni ko‘rsatuvchi belgilardan iborat.

Shuningdek, kiritmalar ham ma’lumotni tartiblashga yordam beradi. Masalan, tartibni bildiruvchi so‘zlar (birinchidan, ikkinchidan, uchunchidan) har bir bo‘limning bir-biri va butun matn bilan o‘zaro qanday bog‘langanini ko‘rsatadi. Ko‘makchili birikmalar (shuning uchun, shu sababli v.h.k.) va bog‘lovchilar matn qismlari o‘rtasida sabab – natija jihatdan aloqadorligini bildiradi.

Aralash matnlar

Ko‘plab o‘zgarmas va dinamik matnlar - yagona, bir-biri bilan ma’no jihatdan bog‘liq bo‘lgan qisqa va uzun matn shakllaridan iborat, shuning uchun ular “aralash matnlar” deyiladi. Aralash matn turlariga rasmli sahifalar yoki tagida tushuntirish berilgan sahifalar kiradi.

Aralash matn turg‘un matnli jurnallar – ma’lumotlar kitobi yoki dalolatnomalar uchun umumiy shakl bo‘lib, ma’lumotni yetkazishda mualliflar turli ifoda shakllaridan foydalanadi.

Dinamik matnlar ichidagi rasmiy web sahifalar ham, odatda, aralash matn hisoblanadi, masalan, xabarga asoslangan matnlar, ro‘yxatlar jamlanmasi, paragraflar va ko‘p hollarda, sahifalar. Xabarga asoslangan matnlar sirasiga onlayn arizalar, elektron xatlar (e-mail) va forumlar, uzun va qisqa shakldagi matnlar kiradi.[1]



O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar

Metodik adabiyotlarda bayon qilinishicha, adabiy til negizida asosan monologik nutq yotadi. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplarshaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta’sir ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan fikrlar (tovushlar)ning uyushgan tizimini namoyonetadi.

O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar quyidagilar:

- **internet muhitidagi ko‘p ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish;**
- **o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash savodxonligi, tushunish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish;**
- **o‘quvchilar bitta matnni o‘qiganda emas, balki bir necha ma’lumotlarni o‘qiganda ham, ularda ma’lumotlarni tanlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish;**
- **o‘quvchilarga berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishni o‘rgatish;**
- **o‘quvchilarning matndagi ma’lumotning ishonchliligi va sifatini, ya’ni ma’lumot yaroqli, yangi, to‘g‘ri va bir yoqlama emasligini aniqlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;**
- **o‘quvchilarni mulohaza yuritish va matndan tashqari fikrlash orqali berilgan matnni bog‘lay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.**

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirishga mo‘ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin yaratish mumkin.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorlashda, avvalambor, ta’lim oluvchiga berilayotgan o‘quv materialiga qiziqtirish zarur.

Har qanday insonning muayyan kreativ fikrlash qobiliyati mavjud. Mazkur qobiliyatning negizini yangi turdagi narsalarni o‘ylab topish tashkil etadi. Uning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘ladi. Matnlarni o‘qish hamda tushunishda o‘quvchilar mazkur matnlarda bayon qilingan voqelikni o‘z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi.



Ta’lim beruvchining o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini o‘stirishga xizmat qiluvchi turli metod va usullarni tanlab olib, ta’lim jarayonida foydalana olishi ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

PISA (Programme for International Student Assessment) – o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi o‘n besh yoshli o‘quvchi-yoshlarning o‘qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyiha o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi dunyo mamlakatlariga ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari haqida o‘z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta’lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ilk marta o‘tkazilishi sababli ularni to‘g‘ri, samarali va ob’yektiv o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA dasturining o‘qish savodxonligi yo‘nalishidagi topshiriqlardan ona tili va adabiyot darslarida foydalanish o‘quvchilarning matnni umumlashtirish va talqin qilish, xulosa qilish uchun qisqa matnning alohida qismlarini bog‘lay olish, aniq ifodalangan ma’lumotlarni topa olish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Pedagogik o‘lchovlar nima?

2. Qanday test turlari bor?

3. Validlikning bir necha turlari mavjud va ular qaysilar?

4. Validlik talablari nimadan iborat?

5.“Kreativ ifodalash” deganda nimani tushunasiz?

6. O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar qaysilar?

7.PISA (Programme for International Student Assessment) qanday dastur?

8.PISA o‘qish savodxonligi qaysi omillaridan foydalanish orqali baholaydi?

Mavzu: Baholash nazariyasi asoslari.Testni yaratish bosqichlari foydalanish. O‘quvchilarning yozma va og‘zaki savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir topshiriqlar namunalarini tuzish va baholash

Reja:

1. Test yaratish, uning bosqichlari. Test turlari.
2. Yopiq testlar. Test topshiriqlarini tuzishga qo‘yiladigan tavsiyalar.
3. Yozma va og‘zaki savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari.
4. Kreativlik tushunchasi hamda kreativ fikrlash. Yozma savodxonlikning oshishiga ko‘maklashuvchi omillar.

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?”- deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.

Shavkat MIRZIYOYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Hozirda yoshlar ma’naviy hamda ta’lim-tarbiya jihatidan kuchli va raqobatga chiqa oladigan bo‘lishlari kerak. Ular o‘z bilim va malakalari bilan dunyo miqyosiga chiqishlari va yurtimiz kuch-qudratini butun jahonga ko‘rsatishlari lozim. Vatanimiz yoshlarini har jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ham gap ko‘p. Ularning zamonaviy bilim egallashlari, yetuk ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlari uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda.

Yurt yuksalishining muhim kafolati xalqning kuchli bilimga ega ekanligi sanaladi. Hech bir mamlakat o‘z aqliy quvvat va imkoniyatlariga tayanmay, inson tafakkurida ma’naviy, aqliy va axloqiy qadriyatlarni rivoj toptirmay, jamiyatning milliy ruhini uyg‘otmay turib, buyuk taraqqiyot darajasiga ko‘tarilmagan va ko‘tarila olmaydi ham. Yurtimizdagi bu boradagi o‘zgarishlar tahsinga sazovor.

Buyuk shoir Firdavsiy shunday yozadi:

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on

Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

Shoir komillikni istagan insonning bilim olishi lozimligini uqtiradi.

Darhaqiqat, komillik o‘zlikni va dunyoni anglash orqali amalga oshadi. Bunga esa bilim va malakani muttasil oshirish orqali boriladi. Bilimni oshirish va o‘z bilimi darajasi qanday ekanligini inson o‘lchab boradi, buni bilishni istaydi. Mana shunday vaqtda nafaqat o‘quvchilar uchun, balki har qanday insonning o‘zi uchun test sinovlari qo‘l keladi. Inson shu ma’noda hayoti davomida o‘zi uchun xayolan tesr savollarini ham tuzadi, ularning javoblari va variantlarini ham o‘ylab topadi, yechadi. Ya’ni, mohiyatan olib qaraganimizda, keng ma’noda, test bizning kundalik hayotimizda ham mavjud ekan.

Test yaratish tizimli jarayon bo‘lib, uning bir necha bosqichlari mavjud.

- Testning maqsadini aniqlash.
- Domen va konstruktlarni aniqlash.
- Testning o‘ziga xos xususiyatlarini yaratish.
- Testning o‘ziga xos xususiyatlari asosida test topshiriqlarini shakllantirish.

Test topshiriqlarini mutaxassislar yordamida tahlil etish va lozim o‘rinlarda tuzatishlar kiritish.

Test topshiriqlarining dastlabki aprobatsiyasini o‘tkazish va lozim o‘rinlarda tuzatishlar kiritish.

Test topshiriqlarini katta miqyosda aprobatsiyadan o‘tkazish.

Aprobatsiya natijalari asosida test topshiriqlarini statistik tahlil etish, talabga javob bermaydigan testlarni chiqarib tashlash.

Testning yakuniy varianti uchun validlik va ishonchlilik tadqiqotlarini o‘tkazish.

Test natijalari uchun tavsiyalar tuzish.

Test yaratishning bosqichlari mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqichda testning maqsadi aniqlanadi. Masalan, o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash uchun ishlatiladigan testga har doim ular xatoga yo‘l qo‘yadigan nuqtalar kiritiladi.

2- bosqichda baholanishi kerak bo‘lgan domen va konstruktlar aniqlanadi. Buning uchun bir qancha usullar qo‘llanishi mumkin. Ulardan biri- ta’lim standartlarida belgilangan maqsadlarni tahlil etish.

3-bosqichda test spetsifikatsiyasi yaratiladi. Spetsifikatsiyada baholanishi lozim bo‘lgan domen va konstruktning har bir elementi qanday va nechta sondagi test topshiriqlari yordamida tekshirilishi aks etadi.

Keyingi bosqichlarda test topshiriqlari yaratiladi va mutaxassislar tomonidan tahlil etiladi. Test topshiriqlarini tahlil etishda test tuzish qoidalariga amal qilinganligi, tushunarliligi, aniqligiga e’tibor beriladi.

6-bosqichda test topshiriqlarining dastlabki aprobatsiyasi o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichlar har qanday test yaratishda zarur hisoblanadi. Ulardan biri- aprobatsiya. Yaratilgan testlarning yaroqliligini tekshirish maqsadida aprobatsiyadan o‘tkaziladi.Talabga javob bermaydigan topshiriqlar qayta ko‘rib chiqiladi.

Aprobatsiya testdagi noaniqliklar va xatolarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan jarayon bo‘lib, keyingi bosqichlarda test topshiriqlari katta miqyosda aprobatsiyadan o‘tkaziladi.

Abrobatsiya o‘tkazishdan maqsad shuki, topshiriq testning maqsadi, test topshiruvchilar auditoriyasi hamda test spesifikatsiyasiga mos ekanligini bilish va ularning aniq, tushunarliligiga ishonch hosil qilish.

Shundan so‘ng aprobatsiya natijalari asosida talabga javob bermaydigan testlar aniqlanadi va ular qayta tahrirga beriladi. Test topshiriqlarini tuzish katta mas’uliyatni talab etadi. Test tuzishda ma’lum qoidalariga amal qilinmasa, test natijalariga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lishi mumkin. Buning oqibatida omma orasida test va uning natijalariga jiddiy munosabat sustlashadi.

Yopiq test turlari

Testda ishlatish mumkin bo‘lgan test topshiriqlari turlaridan biri yopiq test turlaridir. Bu test topshiruvchilardan to‘g‘ri javobni berilgan muqobil javob variantlaridan birini tanlashni talab qiladigan test topshiriqlari hisoblanadi.

Test yaratish bosqichlaridan biri bu- test topshiriqlarini tuzishdan maqsadni aniqlash. Testning maqsadi uning qanday shaklda bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Masalan, ta’lim oluvchining egallagan bilimini tekshirishga qaratilgan testda fanga oid nazariy bilimlar aks etishi lozim.

Yopiq test topshiriqlari talab darajada bo‘lishi hamda validlikka javob berishi uchun test tuzishda ma’lum qoidalarga amal qilish kerak. Mukammal tuzilgan yopiq test topshiriqlari tekshirilishi lozim bo‘lgan domenni har tomonlama qamrab olish imkonini beradi.

2019-yil Davlat test markazi tomonidan tuzilgan test topshirig‘ini ko‘rib chiqamiz.

Qaysi javobda egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush o‘zgarishi bilan yoziladigan tub so‘zlar qatori berilgan?

A) bilak, qovoq, chelak

B) axloq, tirnoq, pishloq

C) yurak, buyruq, kerak

D) sovuq, sana, o‘yin

Bunday mazmundagi testlarni yechish uchun, avvalo, yozuvda fonetik hodisaga uchragan so‘zlarni topish talab etiladi.

“Daraxt- darax”, “go‘sht- go‘sh” kabi talaffuzda o‘zgarishga uchragan so‘zlar nazarda tutilmaydi.

So‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratishni yaxshi o‘zlashtirib olmaganlar uchun ushbu testni yechish oson bo‘lmaydi, chunki fonetik hodisa faqat morfemalar qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladi.

Misollar:

Qorin + im = qornim

Bu+ day = bunday

Shu + ga = shunga

Yoki

Boqqani, kechikkach, qishloqqa kabi.

Validlik talablari

Hozirda tatbiq etilayotgan testlar o‘ziga yarasha ma’lum qoidalarga solinib kelinmoqda. Testlarlarni yaratish, ularni jahon standartlariga moslashtirish, testlardagi ishonchlilik va validlikni belgilovchi jihatlarga talab ortib bormoqda. Bugungi kunda bizning sharoitimizda testlarni standartlashtirishga oid muammolar ko‘rib chiqilmoqda. Bundan masqad ishonchlilikni hamda validlikni ta’minlashdir.

Standartlashtirish testlarni mahalliy muhit uchun ahamiyatli ekanligini va ilmiy asoslar bo‘yicha xulosalarga kelinishiga zamin yaratadi. Test va ularning standartlari, ishonchlilik darajalari qanday ekanligi, testlarning muhit va sinaluvchilardan olingan natijalar mutaxassislar uchun o‘ziga yarasha bir asos bo‘ladi. Respublikamizda o‘tkazilayotgan test jarayonlari sifatini yaxshilash imkoniyatini yaratilishiga va yangi g‘oyalarning kashf qilinishida ilmiy izlanishlarning yanada kengroq bo‘lishiga, yangi bilimlarni kirib kelishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni kechiktirishga haqimiz yo‘q”. Zero bugungi jamiyat talabi ham ana shundan iborat.

Validlik talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- test topshirish sharoitlari bilan bog‘liq omillar;
- adolat – test topshiruvchilarga o‘lchanayotgan domen doirasida o‘z qobiliyatlarini namoyish qilishga teng imkon berilishi;
- shaffoflik – test topshiruvchilar va jarayonning boshqa ishtirokchilarida test nimani tekshirishi, qanday mezonlar asosida tekshirishi haqida yetarli ma’lumotga egaligi;
- testni baholash va natijalarni hisoblash jarayonlari bilan bog‘liq omillar;
- baholovchilar ishonchliligi (ichki, o‘zaro).

“Valid” so‘zi yaroqli - (dalil yoki nuqtayi nazar) mantiq yoki haqiqatda ishonchli asosga ega; oqilona degan ma’nolarni anglatadi.

Ta’lim oluvchining bilim darajasini, unda ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini bevosita ko‘rish imkoni mavjud emas: o‘qituvchi bularni faqat bilvosita (savol-javob, kuzatish, topshiriqlar bajarish orqali) ko‘rishi, o‘lchashi mumkin. Bunday o‘lchash natijasida chiqarilgan xulosalar asosida esa biron-bir shaxs yoki tashkilot (masalan, o‘qituvchi, ta’lim muassasasi, ish beruvchi) tomonidan ma’lum bir qarorlar (masalan, diplom berish yoki bermaslik, o‘qishga yoki ishga qabul qilish va hokazo)qabul qilinadi.

Qabul qilinadigan qarorlar asoslantirilgan bo‘lishi uchun test asosida chiqariladigan xulosalar ham valid (asosli bo‘lishi) lozim.

Validlik- testning sifatini belgilaydigan asosiy tushuncha.

Validlik – testning maqsadidan kelib chiqqan holda test natijalari yordamida chiqariladigan xulosalarning qay darajada ilmiy va empirik jihatdan asosli (valid) ekanligidir.

Muqobil javobli testlar

Muqobil javobli test topshiriqlari bitta o‘zak hamda bir necha variantlardan iborat muqobil javoblardan tuzilgan bo‘ladi.

Muqobil javobli test topshiriqlarini tuzishda quyidagi qoida va tavsiyalarga rioya qilinadi:

- har bir test topshirig‘ining maqsadi- domenning qaysi elementini tekshirishga qaratilganligi aniq bo‘lishi;
- har bir test topshirig‘i baholanayotgan domen uchun muhim bo‘lgan bilimga asoslanishi;
- har bir test topshirig‘i mustaqil bo‘lishi;
- test topshirig‘ida ishlatilgan tushuntirishlar va misollar test topshiruvchi uchun yangi bo‘lishi;
- test topshirig‘ida subyektiv munosabat, subyektiv baho ifodalanmasligi kerak.

Muqobil javobli test topshirig‘ining murakkab shakli mavjud bo‘lib, bunday test topshirig‘ining o‘zagida bir necha variant beriladi va muqobil javoblarda bu variantlar har xil guruhlanadi.

2019-yil Davlat test markazi tomonidan tuzilgan test topshirig‘idan namunalar keltiramiz.

Quyida berilgan qaysi fe’llarning asosida ifodalangan o‘timli-o‘timsizlik ma’nosi nisbat qo‘shimchasi ta’sirida o‘zgargan?

1) ko‘rsatmoq; 2) ajratmoq; 3) qiynalmoq;

4) o‘qitmoq; 5) tomizmoq; 6) supurishmoq

A) 2, 3, 5 B) 2, 3, 4, 5

C) 1, 4, 5, 6 D) 1, 4, 6

Kichikka ulug‘lik ulug‘dan bo‘lar,

Ulug‘ga egilsa, kichik qut olar.

Ushbu parcha haqidagi qaysi fikrlar to‘g‘ri emas?

1) vositali to‘ldiruvchilar sifatlar bilan ifodalangan;

2) ot bilan ifodalangan ega qatnashgan;

3) otlashgan so‘z bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchi qatnashgan;

4) sifat bilan ifodalangan gap bo‘laklari ushbu gapdagi so‘z birikmalarida hokim qism vazifasini bajargan.

A) 2, 3

B) 3, 4

C) 1, 4

D) 1, 2

Keltirilgan misollar muqobil javobli test topshirig‘ining murakkab shakli bo‘lib, test topshirig‘ining o‘zagida bir nechta variant berilgan va muqobil javoblarda bu variant har xil guruhlangan. Bunday test topshiriqlarini ishlatish tavsiya qilinmaydi, chunki test topshiriqlari muqobil javobli test topshirig‘ining odatiy shakllariga nisbatan qiyinroq hisoblanadi.

Keyingi misol.

Yurak, sen mening sozimsan.

Ushbu gap haqida berilgan qaysi ma’lumotlar to‘g‘ri?

1) Ushbu gap egasi yashiringan gap sanaladi;

2) Ushbu gap tarkibida sodda ot kesim qatnashgan.

3) Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qatnashgan ismning munosabat shakllari soni 3 ta;

4) Ushbu gapda qaralmish ega vazifasini bajargan.

A) 1, 3

B) 1, 2

C) 2, 3

D) 3, 4

Test topshirig‘ining o‘zagida inkor so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qilish lozim.

Qaysi javobda Zulfiyaning asarlari berilmagan?

A) “Quyoshli Qalam”, “Mushoira”

B) “Xotira siniqlari”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda”

C) “Gullar vodiysi”, “Surat bilan suhbat”

D) “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”

Test topshiruvchi berilgan variantlardan biri to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniq bilsa, mos kelmaydigan muqobil javoblarni chiqarib tashlash yo‘li bilan to‘g‘ri javobni topishi mumkin, bu esa tekshirilayotgan konstruktga bog‘liq bo‘lmagan faktorning test natijalariga ta’sirini oshiradi.

Yana bir testni ko‘ramiz.

Xalqimizning shunday urf-odatlari borki, ularga hamisha hurmat bilan qarash kerak.

Ushbu ergashgan qo‘shma gap haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.

1) Ergash gap qismi shaxsi noma’lum gap sanaladi;

2) Bosh gap qismida ega vazifasini bajargan qaralmish qatnashgan;

3) Ushbu qo‘shma gap tarkibidagi olmoshlar hol va vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan;

4) Ushbu qo‘shma gap tarkibidagi otlar aniqlovchi, ega va hol vazifasini bajargan;

5) Ushbu qo‘shma gap tarkibida holning faqat bir ma’noviy turi qatnashgan.

A) 1, 2, 4 B) 2, 5

C) 3, 5 D) 1, 3, 4

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirib o‘tamiz:

bunday test topshiriqlarining statistik ko‘rsatkichlari, odatda, past bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida, testning ishonchlilgiga salbiy ta’sir qiladi;

bunday test topshiriqlarini tuzish va tahrir qilish qiyin bo‘ladi;

bunday test topshiriqlariga javob berish ancha vaqtni talab qiladi, bu esa test orqali berilgan vaqt ichida qamrab olinishi mumkin bo‘lgan domen elementlari sonini kamaytiradi va test natijasida chiqariladigan xulosalar validligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muqobil javobli test topshiriqlarini tuzish

Topshiriq iloji boricha qisqa, lo‘nda, ortiqcha ma’lumotlardan xoli bo‘lishi lozim. Shuningdek, muqobil javoblarda takrorlanadigan so‘zlar ham topshiriq o‘zagiga chiqarilishi lozim. Topshiriq o‘zagi yetti-sakkiz so‘zdan iborat bo‘lgan bitta gapda ifodalanishi, bu gapda ergash gaplar soni bittadan oshmasligi tavsiya qilinadi. Asosiy, tekshirilayotgan ma’lumot topshiriq o‘zagida aks etishi kerak. Test topshirig‘i grammatik, uslubiy, imlo xatolarsiz tuzilgan bo‘lishi zarur.

Muqobil javoblarni tuzayotganda test tuzish talablariga rioya etilishi maqsadga muvofiq.

Muqobil javobli test topshiriqlarini tuzishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilinadi:

- tadqiqotlar uchta muqobil javob optimal ekanligini ko‘rsatadi;
- testda to‘g‘ri javoblar turli o‘rinlarda joylashish va to‘g‘ri javoblarning joylashuvida qandaydir qolip bo‘lmasligi (masalan, hamma A muqobil javoblar to‘g‘ri javob bo‘lib qolmasligi yoki to‘g‘ri javoblar A, B, C, D shaklida joylashib qolmasligi) darkor;
- muqobil javoblar mantiqiy ketma-ketlikka joylashishi lozim;
- muqobil javoblar ma’no jihatdan bir-birini qamrab olmasligi kerak;
- muqobil javoblar grammatik bir xil shaklda bo‘lishi lozim;
- muqobil javoblar ma’no jihatdan bir turkumga mansub bo‘lishi zarur.

Yana bir testni ko‘rib chiqamiz.

Qaysi javobda Navoiyning boshdan oyoq savol-javob tarzida bitilgan g‘azali nomi berilgan?

A) “Mani jondan o‘sondirdi ...” deb boshlanuvchi

B) “Jong‘a chun dermen ...” deb boshlanuvchi

C) “Bo‘ldum sanga” radifli

D) “Deyin” radifli

Test topshiruvchi berilgan g‘azalni yod olmagan bo‘lsa, bunday testlarga javob bera olmaydi. Test topshirig‘idan maqsad test topshiruvchini chalg‘itish bo‘lmasligi kerak. Test topshiruvchi uchun tushunarli, sodda, ravon bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Tushunarsiz tuzilgan test topshiriqlari o‘z vazifasini bajarmaydi.

“To‘g‘ri-noto‘g‘ri” shaklidagi test topshiriqlari

“To‘g‘ri-noto‘g‘ri” shaklidagi test topshiriqlarida bir yoki bir nechta so‘z yoki gap beriladi. Test topshiruvchidan berilgan test topshirig‘idan to‘g‘ri javob variantini tanlash talab etiladi.

Quyida berilgan barcha so‘zlar tutuq belgisi (’) bilan yozilganmi?

tuyg‘u, cholg‘u, iste’mol, e’lon, ma’naviyat, ma’rifat, in’om, o‘zbek

A) ha B) yo‘q

Test tuzishga qo‘yiladigan maqsad

Test topshirig‘idan maqsad test topshiruvchini chalg‘itish bo‘lmasligi kerak. Test topshirig‘i chalkash bo‘lmasligi, tushunarli, lo‘nda, imlo xatolarsiz, sodda va ravon bo‘lishi maqsadga muvofiq. Tushunarsiz yozilgan test topshiriqlari o‘z vazifasini bajarmaydi, ya’ni bilimga ega o‘quvchini tanlab bera olmaydi. Ba’zan test savollarida ahamiyatga ega bo‘lmagan, xususiy mazmun asosida tuzilgan test topshiriqlariga duch kelamiz. Bunday vaziyatda test topshiruvchi berilgan mavzuni juda yaxshi bilsa ham, testga javob bera olmasligi mumkin.

Masalan, quyidagi test savolini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu test topshirig‘ida Abayning “Naqliya so‘zlar” (“Nasihatlar”) asari kim tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilinganligi so‘ralgan. Test topshiruvchi uchun ushbu asarning kim tomonidan tarjima qilinganligi emas, balki asarning mohiyati undan ko‘ra muhimroq ahamiyatga ega.

Abayning “Naqliya so‘zlar” (“Nasihatlar”) asari kim tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilingan?

A) Asil Rashidov;

B) Nosir Fozilov;

C) Usmon Qo‘chqor;

D) Nizom Komil.

Bolajonlarning bilim olishi, tarbiyasi, kelajagi haqida qayg‘urish o‘zbek xalqining qadimiy qadriyatlaridandir. Hozirgi zamon talabi shuki, shiddat bilan rivoj topayotgan jamiyatda o‘z o‘rniga ega, qalbida komil insonga xos fazilatlar jo‘sh urib turgan, milliy qadriyatlarga hurmat ko‘zi bilan boqadigan malakali kadrlarni tayyorlab berish. Bu borada ustozlarning sa’y-harakatlari beqiyos. Bugungi kunda o‘qituvchi ta’lim oluvchiga faqatgina ma’lumotni berish bilan cheklanmasdan, uning yozma hamda og‘zaki savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishi muhimdir.

Ona tili va adabiyot fanining maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki nutq va yozma savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, o‘z fikrini ravon bayon qilish hamda yozma usullarda to‘g‘ri, xatosiz, o‘rinli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘zbek tili qonun- qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimiz, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimiz, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili va adabiyot fani bo‘yicha o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

- fanga doir nazariy bilimlarning qay darajada shakllanganligi;
- o‘zgalar fikrini, matn mazmunini anglash va so‘zlash malakasi;
- fikrni yozma shaklda to‘g‘ri va aniq, ravon bayon etish malakasi.

O‘quvchilarda ushbu ko‘rsatkichlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishi kerak. Fanni o‘qitishning bir qator vazifalari mavjud.

Ular:

- o‘quvchilarni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatish;
- fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
- so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
- fanning ahamiyatini singdirish

Savol- javob, debatlar o‘tkazish

Savol-javob tarzida darslarni tashkil etishdan maqsad muammoning yechimini to‘g‘ri, asosli topishda o‘quvchi atrofdagilarni o‘z mulohazalarining to‘g‘riligiga ishontirishdir. Aniq va mantiqiy fikrlash, ishonarli dalillar va xulosalar keltirish ko‘nikmalarini shakllantirishda debatlar o‘tkazish samarali usul sanaladi. Ular o‘quvchilarda ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga ta’sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg‘ularini rivojlantiradi. Bahslashuv natijasida o‘quvchilar qanday ko‘nikmalarni qo‘lga kiritish mumkinligini tushunib yetsa, dars samarasi ijobiy bo‘ladi. Dars jarayonida o‘quvchi o‘z mulohazalarini aniq, qisqa, lo‘nda

gaplar bilan yozma shaklda yoritishi lozim. Bu borada o‘quvchilarni berilgan mavzu yuzasidan shunday dalil-isbot topish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni muhokama qilishga o‘rin qolmasin. Shundagina o‘quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o‘rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko‘nikmalari shakllana boradi. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, har bir o‘qituvchidan qaysi fan, qanday dars turidan qat’iy nazar dars jarayonida bevosita o‘quvchining o‘g‘zaki va yozma nutq salohiyatini rivojlantirib borish talab etiladi. Jumladan, ona tili va adabiyot darslarida debat usulini qo‘llash juda ahamiyatli.

Debat bu – muayyan mavzu bo‘yicha rasmiy muhokamani o‘z ichiga olgan jarayon. Bahsda qarama-qarshi qarashlarni shakllantirish, bahslashish uchun qarama-qarshi dalillar keltiriladi. Debat jamoat uchrashuvlarida, ilmiy muassasalarda va qonunchilik yig‘ilishlarida bo‘lib o‘tadi. Bu munozaralarning rasmiy turi bo‘lib, ko‘pincha, munozara ishtirokchilaridan tashqari moderator va auditoriya ishtirok etadi.

Mantiqiy izchillik, faktlarning aniqligi va tinglovchilarga ma’lum darajada emotsional jozibadorlik – munozaralarning elementlari, bu yerda bir tomon, ko‘pincha, masalaning ustun “konteksti” yoki ramkasini taqdim etib, boshqa tomonga ustun keladi. Rasmiy bahs-munozarada, ishtirokchilar qanday qilib buni amalga oshirishni belgilaydigan doiradagi kelishmovchiliklarni muhokama qilishlari va qaror qabul qilishlari uchun qoidalar mavjud.

Misol tariqasida 8-sinf adabiyot darsligidagi Asqad Muxtor qalamiga mansub “Chinor” romanini olish mumkin. Ma’lumki, ushbu asar muallifga katta shuhrat keltirgan. Asar o‘ziga qadar yaratilgan o‘zbek romanlaridan bir necha jihatlari bilan ajralib turadi. “Chinor” romanidagi Akbarali obrazini tahlil qilish o‘quvchining asar haqidagi taassurotlarini kengaytiradi. Debat davomida qaysidir o‘quvchida Akbaraliga nisbatan achinish hissi paydo bo‘lsa, boshqa o‘quvchida unga nisbatan nafrat tuyg‘usi tug‘iladi.

Ta’lim berishda o‘g‘zaki nutq savodxonligini o‘stirish, keng fikrlashga o‘rgatish, o‘z fikrini mantiqan izchil, ravon tilda bayon etish bilan yonma-yon yozma savodxonlikni oshirish maqsadga muvofiqdir. Aynan ona tili fani o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri talqin qila oladigan, so‘zlashuv madaniyati rivojlangan shaxsni ulg‘aytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu bilan o‘quvchilarning til qurilishi bo‘yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasi va nutq hosil qilish malakasini tarkib toptirishga qaratiladi.

Nazorat ishlari

Diktant, ijodiy bayon va insholar o‘quvchilarning ona tili va adabiyotdan olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishda muhim vositadir.

O‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini o‘stirish, savodxonligini oshirish uchun diktant yozdirish usuli katta natija beradi. Ushbu jarayonda o‘quvchi diktantni xatosiz yozishga harakat qiladi. O‘quvchining diktantni xatosiz yozishi uning ona tili fanidan olgan fonetik, leksik va grammatik bilimlarini qay darajada o‘zlashtirganligiga bog‘liq bo‘ladi. Imlo qoidalari grammatik bilimlar bilan bog‘liq, demak, savodli diktant yozish uchun, o‘z navbatida, grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Diktantni har bir o‘quvchi kesimida nuqta, verguligacha e’tibor bilan tekshirish o‘qituvchiga muayyan o‘quvchining yutuqlari va bo‘shliqlarini aniqlash, keyingi darslarda ularga munosabat bildirish imkonini yaratadi. O‘quvchilarning yozma savodxonligi talab darajada bo‘lmasa, o‘qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo‘shimchalar kiritishi yoki o‘quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo‘shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi.

Yozma savodxonlikning oshishiga ko‘maklashuvchi omillardan biri imlo qoidalarini nazariy jihatdan puxta egallashdir.

“Mosini top” o‘yini

Ushbu didaktik o‘yin orqali o‘quvchilarda kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

-ning, -ni-ga, (-ka, -qa)-dan-da

Gul… uzmoqElak… solmoqOt… balandToshkent…. yashamoq

Gul… bargiBaliq… bermoqIt… pastBaland… uchmoq

Men… kitobimIsh… bormoqIsh… kelmoqDiktant… xato qilmoq

Do`sti… ko`rmoqOsh solmoq

Yozma va og‘zaki savodxonlik quyidagilarni qamrab oladi:

- aqliy faoliyat;
- til kompetensiyalari;
- to‘g‘ri va xatosiz yoza olish;
- tushunish uchun zarur bo‘lgan grammatika va tilshunoslikning kengroq sohasiga xos shakllari;
- o‘z fikrini ravon ifodalay olish.

Yozma va og‘zaki savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari:

- doimiy ravishda o‘rganish va rivojlanish;
- hayoti davomida olgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llay olish;
- faol ijodiy fikrlash;
- belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish;
- o‘zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo‘l hamda hayotiy ko‘rsatmalarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish.

Ona tili va adabiyot fanining eng muhim vazifalaridan biri- o‘quvchilarda og‘zaki nutq va yozma savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirish. Buning uchun dars jarayonida turli metodik usullarni qo‘llash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Masalan, “Tushunchalar tahlili” usuli o‘quvchining avvaldan mavjud bilimi bilan matndan olingan ma’lumotni ma’lum darajada integratsiyasini talab etadi.

Tushunchalar izohi

Sifat so‘z turkumi

Sifatlarning so‘rog‘i

Yasama sifatlar

Sifatlarning tuzilishi

Asliy sifatlar

Sifat darajalari

Sifatlarning ma’no guruhlari

Otlashgan sifatlar

Savollarga javob bering.

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Sifatlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Yasama sifatlar qanday qismlarga ajratiladi?
4. Sifatlar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
5. Asliy sifatlar deb nimaga aytiladi?
6. Orttirma darajadagi sifatlarga misollar keltiring.
7. Maza-ta’mni bildiruvchi sifatlarga qaysilar kiradi?
8. Otlashgan sifatlarning gapdagi vazifasi haqida so‘zlang.

Yana qiziqarli usullardan biri “Ortiqchasini toping” bo‘lib, bunda o‘quvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtda o‘zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanishadi. Har bir o‘qish harakati mulohazani talab qiladi. Darsning samarali bo‘lishi, unda qanday usullardan foydalanganligi va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Mazkur usul ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning tez fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

O‘quvchilarga berilgan har bir shakl ichidagi so‘zlardan bittasi ortiqcha. Shu ortiqcha so‘zlarni topish hamda uning nima uchun ortiqchaligini tushuntirish vazifasi beriladi.

Kreativlik tushunchasi hamda kreativ fikrlash

Kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda kreativlikni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar

Quyidagi omillar o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

Ta’lim berishda o‘g‘zaki nutq savodxonligini o‘stirish, keng fikrlashga o‘rgatish, o‘z fikrini mantiqan izchil, ravon tilda bayon etish bilan yonma-yon yozma savodxonlikni oshirish maqsadga muvofiqdir. Aynan ona tili fani o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va kteativ fikrlaydigan, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri talqin qila oladigan, so‘zlashuv madaniyati rivojlangan shaxsni ulg‘aytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Ijodiy fikrlash insonga XXI asr jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun kerakli bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biridir. “XXI asr ko‘nikmalari” yoki “XXI asr kompetensiyalari” deb ataladigan bu kompetensiyalar muttasil o‘zgarib borayotgan, biz bilgan kasblar yo‘qolib, yangi mutaxassisliklar paydo bo‘layotgan, globallashgan, mavjud ma’lumot hajmi har soniyada bir necha barobarga oshib borayotgan, raqamlashgan jamiyatda moslasha olish va o‘z o‘rnini topish uchun juda muhimdir. Bu kompetensiyalar kognitiv ko‘nikmalarning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini, jumladan, mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil va sintez, muammolarga yakka tartibda va jamoa bo‘lib nostandart yechimlar topa olish qobiliyatlarini taqozo qiladi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish esa, o‘z navbatida, an’anaviy kontentga asoslangan pedagogika va baholash usullaridan chekinib, kompetensiyaga asoslangan o‘qitish va baholashni joriy qilishni talab qiladi.

Amaliy mashg‘ulot

So‘nggi nasiba

Uylarga tushishga odatlangan ashaddiy o‘g‘ri- Bill o‘z ishining go‘zal lahzalarini yoqtirardi.

Tongda u devor oshib, bir uyga kirdi. Barcha qimmatbaho taqinchoqlarni yig‘ishtirib olib, mashinasiga olib bordi. Bu payt qorni judayam ochgandi. Televizor qarshisida tamaddi qilish uchun o‘sha uyga oxirgi marta kirdi. Ovqatlanib bo‘lgach, biroz mizg‘ib olmoqchi bo‘ldi va qaytib uyg‘onmadi.

Xonadon sohiblari kalamushlarni zaharlamoqchi edi. (Dolores Rup.)

Matn yuzasidan berilgan topshiriqlar o‘quvchining nutqi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchida o‘z bilim va salohiyatini

rivojlantirish, matnni tushunish, matndagi ma’lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati o‘sadi. Topshiriqqa yo‘naltirilgan maqsadlar o‘quvchini topshiriq bilan bog‘liq matn yoki jumlalarni izlashga undaydi. O‘quvchilarga berilgan matndan olingan so‘zlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtirish topshirig‘i ularning ona tili fanidan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi.

Matndan foydalanib quyida berilgan savolga javob bering.

Billning yoqtirgan mashg ‘uloti nima edi?

Javob:

Uylarga tushishga odatlangan ashaddiy o‘g‘ri- Bill o‘z ishining go‘zal lahzalarini yoqtirardi.

Yozma ifodalash sohasi ijodiy barkamollikni ifoda qilishning tabiiy vositasi hisoblanib, o‘quvchilardagi aqliy hamda muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muhimdir.

Matnning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

Javobingizni keltirilgan qatorlarga yozing.

_____

_____

_____

_____

O‘quvchi matnni tahlil qilgan holda xulosa qilishga harakat qiladi. O‘quvchining

quyidagi javoblari to‘liq qabul qilinadi:

- Odamzod qiladigan har bir ishning natijasi uning oqibati bilan belgilanadi.
- Hikoyadan shuni xulosa qilish mumkinki, yomon ishning, albatta, javobi bor.

O‘quvchining topshiriqlarni bajarish asnosida mustaqil xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish, olgan bilimini

amalda qo‘llay olish, mavzuning mohiyatini tushunish kabi ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Baholash mezoni

Baholash ta’limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Ona tili va adabiyot ” fanining o‘qitlishi ta’lim oluvchining o‘g‘zaki va yozma savodxonligini oshirish bilan bir qatorda hozirgi kun til bilan bog‘liq dolzarb masalalarni qamraydi va ijrosini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, undagi muhit o‘quvchiga zavq bersin. Bunday muhitni yaratish ta’lim beruvchining mahoratiga bog‘liq. Mahoratli ustoz o‘z o‘quvchisining komil inson bo‘lib yetishishiga yordam beradi, uning hayotga bo‘lgan muhabbati, ishonchini yuksaltiradi.

XULOSA

Mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun bor imkoniyatlarini safarbar qilish har bir yosh avlodning burchidir. Test topshiriqlarini tuzishdan maqsad o‘quvchilar savodxonligini baholashdan iborat bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘quvchi-yoshlarning savodxonlik darajasi hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘stirishdan iborat. To‘g‘ri, nuqsonlarsiz tuzilgan testlar o‘quvchi - yoshlarning ijodiy fikrlashi, olgan bilimlarini turli sohalarda qo‘llay olish qobiliyatiga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan test topshiriqlarini to‘g‘ri, samarali va ob’yektiv amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim oluvchilarning puxta bilim olishlari, ularning olgan bilimlarini tekshirishdagi qator xususiyatlarini hisobga olib, keyingi paytda test keng qo‘llanilayotgan sinov turiga aylandi. Test yechish nihoyatda keng qo‘llanilishi sababli alohida metod sifatida qaraladigan bo‘ldi. Mavzuni o‘rganishda testlardan foydalanish, ayniqsa, guruhda test o‘tkazilgach, uning javoblarini muhokama qilish alohida ahamiyatga ega.

Nazorat savollari

1. Test topshiriqlari nima maqsadda yaratiladi?
2. Qanday test turlari mavjud?
3. Test yaratishga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Baholash qanday jarayon?
5. “Kreativ ifodalash” deganda nimani tushunasiz?
6. O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar qaysilar?
7. Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar qaysilar?
8. Qanday omillar o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi?

Mavzu: Loyiha ishi yaratish:
Zamonaviy o`qituvchi va ta’limdagi islohotlar.



Ona tili va adabiyot faniga oid tayanch va fanga oid kompetensiyalar

Kompetentlik – kompetensiyalarni qo`llay olishda inson ega bo`lishi kerak bo`lgan minimal tajribaga ega bo`lishdir. Buni o`quvchining tayyorgarligiga qo`yiladigan talablarni shakllantirishda, o`quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

Ta’limda kompetensiyalarning asosiy funksiyalari quyidagilar:

-yosh avlodni kundalik hayotga tayyorlash bo`yicha ijtimoiy talabning aks etishi; -bilim, ko`nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo`llashi uchun atrof-muhitdan real obyektlarni ko`rsatishi;

-turli o`quv predmetlari va ta’lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo`lishi;

-konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog’lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo`lishi kerak?

Ba’zi kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo`ladi.

Shunga ko`ra ularni uchta darajaga bo`lish mumkin:

1)*tayanch kompetensiyalar* – ta’lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;

2)*umumpredmet kompetensiyalari* – ma’lum doiraga kiruvchi o`quv predmetlari va ta’lim sohalariga tegishli;

3)*predmetga oid kompetensiyalar* – oldingi ikki kompetensiyalarga nisbatan xususiy hisoblanib, o`quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va belgilangan o`quv predmeti uchun aniqlashtiriladi. Ular to`plam, me’yoriy hujjatlar, o`quv va metodik adabiyotlar, shuningdek, o`quvchilarning tayyorgarligini, shu bilan birga, ularning ijodiy tayyorgarligi darajasini baholaydigan hujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to`plamni belgilaydi.

Ona tili va adabiyot faniga oid tayanch va fanga oid kompetensiyalar

Tajriba-sinov natijalari va izlanishlar asosida ona tili va adabiyot fanidan quyidagi tayanch kompetensiyalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

A2 mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug’at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o`z faoliyatida qo`llay olish.

A2+ mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug’at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur bo`lgan axborotlarni izlab topa

olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish.

O`zini-o`zi rivojlantirish kompetensiyasi

A2 shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiyma’naviy ehtiyojga aylanta olish; badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish; badiiy kitoblarni muntazam o`qish va o`rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish; o`z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o`zini nazorat qila bilish, og’zaki va yozma matnlar mazmuniga to`g’ri baho bera olish.

A2+ badiiy, publisistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san’at va boshqalarga doir kitoblarni muntazam o`qish, o`rganish, va xulosa chiqarish, tegishli holatlarda ulardan o`z fikrining isboti va dalili sifatida amliyotda foydalana olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

A2 jamiyatda bo`layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish; maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo`nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko`rik -tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo`lish; badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko`rinishlarda namoyon bo`ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma’naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o`ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd..) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

A2+ badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma’naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya

A2

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g’oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o`ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go`zallik va ezgulikdan o`rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

A2+ badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma’naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to`g’ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg’ay olish hamda tushuntirib bera olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiyasi

A2 aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o`qiy olish va undan foydalana olish;

A2+ inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`la olish hamda ulardan foydalana olish. Shunga o`xshash har bir fandan ushbu fanga oid kompetensiyalarning loyihalari ishlab chiqildi va tajriba sinovdan o`tkazildi.

Ona tilidan fanga oid kompetensiyalar

- Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so`zlash, o`qish, yozish*):
- Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*):

Adabiyotdan fanga oid kompetensiyalar

- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar.
- Badiiy asarni tahlil (analiz, sintez) qilish kompetensiyasi.

Ishni nimadan boshlash kerak?

Mashg’ulotlarni olib boradigan pedagog o`qituvchi mazkur fandan kompetentlik yondashuviga asoslangan DTS va o`quv dasturini sinchiklab

o`rganib chiqishi kerak. Bunda har bir o`quv fani bo`yicha shakllantirilishi zarur bo`lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni o`quvchilar yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinflarga taqsimlab chiqilishi zarur. Hozirda bu ish o`quv dasturlarida keltiriladi. Lekin mazkur kompetensiyalar yarim yillik va yil oxiridagi natija ko`rinishida berilmoqda. Shunga ko`ra pedagog ularni taqvim mavzu rejada maydalab ko`rsatishi zarur bo`ladi. Shu bilan birga o`quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda qo`llaniladigan samarali usul, metod va texnologiyalarni tanlashlari kerak bo`ladi.

O`quvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda ularning qiziqishi, ehtiyojini hisobga olish zarur. Buning uchun esa o`qituvchi tomonidan pedagogik tashxis o`tkazish yaxshi natija beradi. Tashxislar ishonarli va to`laqonli bo`lishi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tashxislash ishiga ta’limning barcha ishtirokchilari (ota-onalar, fan o`qituvchilari, sinfdoshlar) jalb etilishi kerak;
- tashxislashni iloji boricha turli usullar-so`rovnoma, suhbat, kuzatish, test, o`z-o`zini tashxislash orqali o`tkazish lozim;
- qayta aloqa bo`lishi va baholash jarayoni doimiy ravishda muhokama qilinishi kerak;
- shaxsiy xarakterlari hisobga olinishi kerak. Bunda o`tkazilgan tashxis natijasi oldingisi bilan solishtirilishi va ijobiy(salbiy) o`zgarishlar e’tirof etilmog’i lozim;
- tizimlilik, tashxislash butun o`quv yilini qamrab olishi kerak;
- barcha o`quvchilar, ularning ota-onalari, mutaxassislar va boshqalarga o`quvchilar nimalarni bilishi, qanday ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi oshkor bo`lishi kerak.

Tayanch kompetensiyalarni qachon, qanday shakllantirish mumkin?

Tayanch kompetensiyalari tarkibiga kirgan kommunikativ kompetensiyani joriy nazoratlar davrida og’zaki so`rov, uy vazifalarni bajarganligi,

sinfdoshlarining tushuntirishlarini anglay olishi, bahsga kirishish kabilar orqali shakllantirilsa, axborot bilan ishlash kompetensiyasini darslik va o`quv qo`llanmalar bilan ishlash, badiiy adabiyot, kinofilmlardagi jarayon, hodisa, qonun hamda qoidalar qo`llanilgan vaziyatlar to`g'risida axborotlarni izlab topish, ularni tushuntirish orqali shakllantirish mumkin. Shu bilan shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasi ham shakllantirilib boriladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga oid ko`nikmalarni dars jarayonida guruhlarda ishlash, rolli o`yinlar kabi usullarni qo`llab darslarni tashkil etish mumkin. Umummadaniy kompetensiyalarni o`quvchilarda shakllantirish uchun fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishi bilan insoniyatning umummadaniyati yuksalib borishini ko`rsatish orqali amalga oshirish mumkin.

Yechimini kutayotgan muammolar:

1.O`quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini belgilaydigan mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Bu mezonlar o`quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak.

2.Pedagog tomonidan tashkil qilinadigan dars ham kompetentli dars bo`lishi kerak. Buning uchun uning strukturasi va ekspertiza qilish mezonlari ishlab chiqilishi kerak.

Mavzu: Adabiyot darslarida pedagogik tenologiyalardan unumli foydalanish mahorati. Fanni o‘qitishda didaktik o‘yinlarning o‘rni

Reja:

1. Pedagogik tenologiya tushunchasi. Pedagogik texnologiya turlari. Pedagogik metodlar.

2. Didaktika tushunchasi. Didaktik o‘yinlarning turlari. Didaktik o‘yinlardan namunalar.

3. Didaktik o‘yinlarning turlari.

4. Didaktik o‘yinlardan namunalar

Tayanch so‘z va iboralar: Redogogik texnologiya, ta’lim jarayoni, sub’yekti, ob’yekti, bilimni to‘liq o‘zlashtirish, tamoyil, dars qismlari, modulli ta’lim, muammoli ta’lim.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o‘rtalarida AQSHda paydo bo‘lib, 1940-50-yillar o‘rtasigacha “Ta’lim texnologiyasi” deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o‘qitishga nisbatan qo‘llanilgan. 50-60- yillarda programmalashtirilgan ta’lim nazarda tutilgan.

Dastlab “**texnologiya**” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “**texnos**” (techne) - **san’at**, **mahorat**, **hunar** va “**logos**” (logos) – **fan** so‘zlaridan tashkil topib “**hunar fani**” ma’nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko‘zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga o‘giradigan bo‘lsak, ya’ni: **Pedagogik texnologiya** – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning ta’lim-tarbiya vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida **ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.**

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda **texnologiya** jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda

ham, bu tushunchaga berilgan ta’riflar pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko‘pdir. Pedagogik adabiyotlarda “texnologiya” atamasining xilma-xil korinishlarini uchratish mumkin: **“o‘qitish texnologiyasi”, “ta’limli texnologiya”, “ma’lumot texnologiyasi”, “o‘quv jarayoni texnologiyasi”** va hokazo. O‘qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo‘lsa-da, aynan o‘xshash ma’noni anglatmaydi, chunki u ma’lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o‘quv materialini o‘zlashtirish yo‘lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko‘proq xususiy metodika bilan bir qatorda turadi.

Pedagogik texnologiya esa **ma’lumot texnologiyasini** joriy etish taktikasini ifodalaydi va “o‘qituvchi – pedagogik jarayon o‘quvchi (talaba)” funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Alohida qayt etib otish joizki, ayni vaqtda ta’lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g‘oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta’riflar berilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo‘lsa-da, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan pedagog olim V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talzina esa pedagogik texnologiyaning “fan va amaliyot oralig‘ida muayyan tamoyillarni olg‘a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qollash kabi masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan mustaqil fan” bo‘lishi lozimligini qayd etadi va hokazo.

Pedagogik texnologiyaning ta’riflari.

Hozirgi ta’lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan avlodga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta’riflari mavjud bo‘lib, har bir ta’rif ma’lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta’riflar va ularning sharxlarini ko‘rib chiqamiz.

Pedagogik texologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi (Izohli lug‘at).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig‘indisi (V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiya – o‘qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya-o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.B.Bespalko).

Pedagogik texnologiya-ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I.P.Volkov)

Pedagogik texnologiya-o‘quv jarayonining o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V. M. Monaxov).

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO).

Pedagogik texnologiya-bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalashi, texnokatik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayoning muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

O‘qituvchining o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta’sir ko‘rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov).

Yuqorida keltirilgan ayrim ta’riflarning o‘zaro har xilligidan ko‘rinadiki, pedagogik texnologiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazalardan yondashish mumkin.

Pedagogik texnologiya-axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta’lim metodlari, usullari, yo‘llari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya-ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o‘zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta’lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Xulosa. Pedagogik texnologiya jarayonida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi.

Pedagogika fani tarixidan ko‘rinib turibdiki o‘qitish va kadrlar tayyorlashning yana-da mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O‘qitish – bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarali pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko‘rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishiga qarab farq qilmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo‘lgan “pedagogik rivojlanish davr” larni ko‘rib chiqamiz.

I. **Individual** pedagog, qo‘l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. **Yozuv kitobi** davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. **Audiovizual** vositalar davri (XX asrning 50 -yillari);

IV. **O‘qitishni boshqarishni avtomatlashtirish** oddiy vositalari davri (XX asrning 70 yillari);

V. **Zamonaviy hisoblash mashinalari** asosida ta’limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterda o‘qitish).

Dastlab XX asrning 20- yillarida “Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha asrlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik entsiklopediyada 30- yillarda o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan.

Bu tushuncha 1940- yillardan 50-yillar o‘rtasigacha “ta’lim texnologiyasi” deb qo‘llanilib, o‘quv jarayonida **audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni** ifoda qilgan.

60-yillar o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilishning ikki yo‘nalishi belgilandi.

Birinchi yo‘nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligini ta’kidladilar.

Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarni texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotishni muhim deb hisobladilar. Shunday qilib **1-yo‘nalish “o‘qitishda texnik vositalar”** sifatida belgilandi, **2-yo‘nalish “o‘qitish texnologiyasi”** yoki **“o‘quv jarayoni texnologiyasi”** sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi uskunalarini va o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o‘qitishning sifatliligi va samaradorliligiga erishib bo‘lmas edi. Keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug‘ullana boshladi.

AQSHda 1971-yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha AQSH Assotsiatsiyasi” tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSHda 1961- yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971-yilda esa – “Audiovizual o‘qitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliyada 1967-yil – Pedagogik texnologiya bo‘yicha Milliy kengash, 1964- yildan boshlab “Pedaogik texnologiya va o‘qitishni dasturlashtirish” jurnalini, 1971- yilda “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiyada – Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug‘ullanadi. 1967- yilda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965- yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etildi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha umumyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo‘yicha xalqaro aloqalar o‘rnatish bilan ham shug‘ullanadi.

Italiyada – 1971-yili pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi.

Vengriyada – 1973-yili o‘qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

O‘qitish texnologiyasi bo‘yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977-yil) olim S.G.Shapovalenko o‘qitish jarayonining uchta texnologik printsiplarini ko‘rsatdi:

1. Bilim va texnikani mukammal egallash.

2. Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.

3. Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondashishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L.Salai “o‘qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni tahlil qilish, o‘quv tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o‘qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi.

XX asrning 80-yillarida zamonaviy pedagogik jarayonni, pedagogik texnologiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishga urinishlar davom etdi.

Rossiya XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta’limda innovatsiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O‘zbekistonda 1997-yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta’lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob’ektlari sifatida ko‘tarila boshlandi.

1999-yilda Respublika ta’lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi. “Ta’lim texnologiyalari”, “Ta’lim muammolari” kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha maqolalar “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim”, “Ta’lim va tarbiya” jurnallarida, “Ma’rifat”, “O‘qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda.

1994- yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha I-Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o‘tkazildi, ma’ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to‘plamda chop etildi.

Pedagog olimlar U.Nishonaliev, N.S.Saidahmedov, N.N.Azizxodjaeva, Ziyomuhammedov, O‘.Tolipov, B.L.Faberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

2000-yilda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti qoshida pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxodjaeva rahbarligi ostida innovatsion texnologiyalar Markazi tashkil etildi, bu markaz zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar muammolari bo‘yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi.

4. **Pedagogik texnologiya turlari va asosiy yo‘nalishlari. Pedagogik texnologiya turlari**

Pedagogik texnologiya turi	**Maqsadi**	**Mohiyati**	**Mexanizmi**
Muammoli o‘qitish	O‘quvchilarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshirish	O‘quvchilarga ularda bilimlarni o‘zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga hizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muvofiq, ketma-ket berib borish	Tadqiqotchilik metodlari, bilish faoliyatiga yo‘naltirilgan masalalarni yechish
Mujassam-	Shaxsning xis qilish	Mashg‘ulotlarni	O‘quvchilar ish

lashtirilgan ta’lim	xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta’lim jarayoni tuzilmasini yaratish	bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o‘zlashtirishga erishish	qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta’lim metodlari
Modul ta’limi	Ta’lim mazmunini shaxsning individual ehti-yojlari va uning bazaviy tayyorgarligi darajasida muvofiqlashtirish	O‘quvchilarning individual o‘quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari	Muammoli yonda-shuvni amalga oshirishning individual maromi
Rivojlanti-ruvchi ta’lim	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish	O‘quv jarayonini shaxsning ichki imkoniyatlari va ularni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirish	O‘quvchilar faoliyatini turli sohalarga yo‘naltirish
Different-siallashgan ta’lim	O‘quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish	Turli o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha majburiy me’yor (standart) dan kam bo‘lmagan hajmdagi dastur materialini o‘zlashtirish	Individual ta’lim metodlari
Faol o‘qitish	O‘quvchilar faolligini yuzaga keltirish	Bo‘lajak kasbiy faoliyatning	Faol o‘qitish metodlari

(majmuaviy ta’lim)		predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish	
O‘yin texnologiya-lari	Bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo‘li-shini ta’minlash	O‘quv axborotlarini qayta ishlash va o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o‘yin metodlari

Shuningdek , hozirda pedagogic texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari **empirik, kognitiv, evristik, kreaktiv, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv** pedagogic texnologiyalardan iborat. **Bu yo‘nalishlar**ning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik – (tajriba)

•Sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv – (bilishga oid)

•Atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – (haqiqatni topish)

•Yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi. Optimallashgan (ko‘p variantlardan eng ma’qulini, mosini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreaktiv – (ijodiy)

Tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, oquvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion – (almashtirish)

•Axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – (yaxlitlash)

•Axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – (moslashtirish)

•Axborotlarni o‘rganish va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv – (tenglik)

•O‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qishni tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

•Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida metodlar tizimi, ta’lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalariga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metodika orasidagi farq.

•Hozirgi kunda o‘qituvchilar pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo‘lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

•**Metod** – grekcha metodos so‘zidan olingan bo‘lib tatbiq qilaman, yo‘naltiraman, ilmiy asoslayman degan ma’noni anglatsa, **metodika** – grekcha so‘z bo‘lib tushuntirishning yangi yo‘lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma’noni anglatadi.

Metodist olimlarimiz metodika fanini turlicha ta’riflaydilar biroq, ta’riflarning umumiy mohiyati bir-biriga yaqinligini e’tirof etish mumkin.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasidir (1-ta’rif).

Metodika – o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasidan iborat (2-ta’rif).

Metodika - fani ma’lum o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, **tillar** metodikasi, **arfmetika** metodikasi kabi alohida metodikalarga ajraladi. (3-ta’rif).

Metodika - o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi, yig‘indisidir. O‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi (4-ta’rif).

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi.

Ular orasidagi ayrim farqlar quyidagicha:

O‘qitish metodi uch xil. 1. An’anaviy metod (sakkiz qismga bo‘linadi). 2. No‘ananaviy metod (o‘n qismga bo‘linadi). 3. Umumiy o‘qitish metodi (olti qismga bo‘linadi). Jami 24 ta o‘qitish metodikasi bor.

Ushbu farqlar haqidagi masala yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin. “Aslida zamonaviy ta’lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo‘g‘ib tashlamagani deyarli mo‘jiza, chunki bu nozik nihol (ya’ni qiziquvchanlik) rag‘batlantirish yo‘li bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo‘lmasa, u shubxasiz, mavh bo‘ladi” (A.Eynshteyn).

Bu yerda ta’lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o‘qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko‘proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, **metodikalarda** maqsad, mazmun, sifat va variantli yo‘naltiruvchi tomonlari ko‘proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o‘zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarning turg‘unligi, ko‘plab “agar...”lar (agar o‘qituvchi iste’dodli bo‘lsa, agar bolalar qobiliyatli bo‘lsa, yaxshi ota-onalar bo‘lsa... kabilar) yo‘qligi bilan farq qiladi.

Ya’ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan hamma mutaxasislar tomonidan qayta tiklash va qo‘llash mumkinligi bilan juda ham individual bo‘lgan metoddan farq qiladi.

Metod – biror harakatni amalga oshirish **yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan** iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish **yo‘li** deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta yo‘llardan oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo‘lni aytiladi. Masalan, savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, maktabda o‘rgatish, bog‘chada o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazma qurollar va boshqalar vositasida o‘rgatish. Shunga o‘xshash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqoridagiga o‘xshash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda turli usullar qo‘llaniladi. **Usul - nima?** Bu biror narsani, hodisani, jarayonni amalga oshirish tartibi.

Pedagogik texnologiya o‘quv jarayoni, ya’ni o‘qituvchining, o‘quvchining faoliyati bilan uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko‘p darajada bog‘langanligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar ta‘lim jarayonida o‘quvchi darsning markaziy figurasi ekanligi tan olinmoqda. Qolgan barcha harakatlar uning atrofida kechadi. Haqiqatdan ham yangi ijtimoiy va iqtisodiy

talablar asosida ta‘lim maqsadiga erishish uchun o‘qitishning zamonaviy usullariga murojaat qilamiz. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda turli noan‘anaviy metodlardan foydalaniladi. Ular orasida didaktik o‘yinlar o‘quvchining shaxs sifatida ham psixologik, ham bilim jihatidan muhim qirralarini kashf etishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda “Didaktika” so‘zi haqida to‘xtalib o‘tsak. Didaktika (yunoncha “didaktikos” – o‘rgatuvchi, ta‘lim beruvchi) pedagogikaning tarmog‘i. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o‘qitish va ta‘lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Diaktikaning bugungi kundagi maqsadi o‘qitishning eng samaradorusul va yo‘llarini topish.

Didaktik o‘yinlar esa ta‘limiy o‘yinlardir. U o‘qituvchi tomonidan tuzilib, o‘yin maqsadi va qoidalaridan tashkil topadi. O‘quvchi ushbu o‘yinlarda ham yangi bilim oladi ham tengdoshlari bilan to‘laqonli muomalaga kirishadi. O‘yin har doim o‘quvchinig hissiyotlari bilan kechadi: hayajon, javobgarlik, g‘alaba shukuhi, qayg‘u va boshqalar. Shunday ekan bir soat darsda u nafaqat ta’lim oladi, balki his-tuyg‘ularini ham tarbiyalaydi. “O‘yin – bolalar yashayotgan va o‘zgartirishlari kerak bo‘lgan dunyo sari yo‘l”, – degan edi Maksim Gorkiy.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda ham didaktik o‘yinlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan “Kim birinchi?”, “Kim chaqqon?”kabi o‘yinlarularda bo‘lgan o‘ziga ishonch, boshqalardan kam bo‘lmaslik hislarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlar darsning talimiy-tarbiyaviy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Yana bir muhim jihati tanlangan o‘yin o‘quvchining yoshiga ham mos kelishi lozim. Har qanday yoshda oila o‘quvchi uchun muhim maskan sanaladi. O‘yinlar orqali kollektiv ham bolaning oilasi ekanligini va u ushbu oilaning ajralmas qismi, faol a’zosiligini singdirish lozim. Zero, har bir pedagogning oliy maqsadi jamiyat uchun zarur bo‘lgan ongli shaxsni tarbiyalashdir!

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim tarbiya jarayonida asosan o‘quvchlarda

ta’lim olish motivlarini ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlardan foydalaniladi va alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o‘yinlar ta’lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o`ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim – tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borishiga asos bo‘ldi. Natijada XX asrning 60-yillari boshida AQSH so‘ngra boshqa G‘arb mamlakatlarida ishchanlik o‘yinlari qo‘llanila boshlandi. Ishchanlik o‘yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta’lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o‘yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F. Osborn qo‘llagan. Bu usulni g‘oyalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi.

- muammoli vaziyat yaratish
- g‘oyalarni shakllantirish
- eng yaxshi g‘oyalarni tekshirish va baholash va tanlash

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum ro‘llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi.

Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag`batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinli

mashg‘ulotlarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab syujetli- ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yinli, konfrensiyalar o‘yin mashqlariga ajratish mumkin. O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni individual(yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O‘qituvchi-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishda qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1.Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bolishi

2.Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilishi

3.Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi

4.O ‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi

5.Mashg‘ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyidagi kasb pedagogikasi fanini o‘qitishda tashkil etish va o‘tkazish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinli mashg‘ulotlardan ayrimlarining tavsilotlari keltiriladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar orasida konfrensiya mashg‘ulotlari ham muhim o‘rin tutadi. Konfrensiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda, qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabob adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarni ortirish, mustaqil hayotga ongli

tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfrensiya mashg‘ulotlarini talabalarning bilish faoliyatni faollashtirishda ilmiy dunyoqarashini mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarni ortirish kengaytirishda, ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konfrensiya mashg‘ulotini o‘tishdan oldin mashg‘ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko‘zdan kechiriladi. Mashg‘ulotni o‘tishdan bir hafta oldin mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinib unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg‘ulotda “Olimlar” ro‘lini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, maruza tayyorlash o‘quvchining ixtiyorida bo‘ladi.

Ilmiy konfrensiya mashg‘ulotini quyidagicha o‘tkazish tavsiya etiladi.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda o‘quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi.

1. Didaktik o‘yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o‘yin o‘quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo‘lib yetishishiga va ruhan tetik o‘sishiga qaratilgan bo‘ladi.

3. Didaktiko‘yinlarni tanlashda ta’limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi Didaktik o‘yinlar ta’lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri. U o‘quvchilarda o‘qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o‘yin – ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy maqsadlarga erishishga yani o‘tilgan o‘quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan : doiraviy misollar o‘yinida ikkinchi o‘nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo‘lgan didaktik topshiriq qo‘yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo‘yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o`yinning ham, har qanday o‘yindagi singari qoidalari bo‘ladi. O‘sha qoidalarga amal qilinmasa

o‘yinning o‘yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o‘yinning ta’lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo‘qoladi. o‘yin qoidalari o‘yin topshirig‘iga kiritiladi. O‘yin topshirig‘i – o‘qituvchining bolalarga o‘yinning qanday o‘ynalishini, kim g‘olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o‘yin o‘z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o‘yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi.

1. O‘yin qoidalari. O‘yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o‘yin maqsadidagi mos holda o‘quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo‘ladi.

2. O‘yin mazmuni o‘quvchilarning bajarishi kerak bo‘lgan harakatlari bilan aniqlanadi, kimyo darsida bu harakatlar ko‘proq misol va tajriba masalalar yechishdan iborat bo‘ladi. O‘yin jihozi o‘yinni o‘tkazish uchun kerak bo‘lgan predmet – modellar real va shartli predmetlar, kartochka va ko‘rgazmalardan iborat.

3. O‘yin natijasi. Qo‘yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o‘quvchilarni qoniqtirishi kerak .

Nazorat uchuntopshiriqlar:

1.Texnologiya so‘zi ta’lim-tarbiya jarayonida qanday ma’no anglatadi?

2. Dars jarayonidagi faol shaxs kim?

Mavzu: Noan’anaviy darslarni tashkil qilish usullari. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari

Reja:

1.Noan’anaviy darslarning turlari. Noan’anaviy darslarning ahamiyati.

2.An’anaviy darslar bilan noan’anaviy darslarning farqi.

3.Kitobxonlik madaniyatini haqida. Kitobxonlik madaniyatining ahamiyati.

4.Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari.

Noan’anaviy ta’lim usullarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• O‘quvchilarga tayyor o‘quv materialini taqdim etmaydi;

• o‘quv materiali shunday bayon etiladiki, o‘quvchilar faol bilish va mustaqil o‘zlashtirish jarayonida yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar;

• faol o‘qitishning negizida mustaqil fikrlashga undash yotadi.

Noan’anaviy ta’lim – o‘quvchilar bilim olishga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funktsiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta’kidlanganidek, agar mashg‘ulot odatdagi – faqat tinglab o‘tirishga asoslangan usulda o‘tkazilganda, o‘quvchilar axborotning ko‘pi bilan 20 foizini o‘zlashtirgan bo‘lsa, ilg‘or pedagogik usullardan foydalanilganda esa, bu ko‘rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan.

Noan’anaviy ta’limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo‘ladi va mustaqil – ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo‘lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang‘ich ko‘nikmalar shakllantirilib, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog‘lab olib borishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o‘qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘qitishning noan’anaviy modellari. Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

– hamkorlikda o‘rganish modeli

– modellashtirish

– o‘rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o‘quvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib ularni boshqacha qilib markazda o‘quvchi turgan ta’lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o‘quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o‘rganish modeli – o‘quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metod.

O‘rganishning tadqiqot modeli – o‘quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metod.

O‘qitish jarayonidagi mavjud an’anaviy ta’lim bilan qurollangan ta’lim muassasalari endilikda o‘z oldiga qo‘yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga ojizlik qilmoqda.

Taniqli didakt olim M.N. Maxmutovning fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonini tashkil etishning an’anaviy sxemasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini, fanga bo‘lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e’tiqodga, e’tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta’minlay olmaydi.

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribalari yoritilgan materiallarni o‘rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma’lum bo‘lishicha, ularning ko‘pchiligi o‘z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir hildagi o‘qitish jarayonlarini qisman o‘zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o‘zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo‘lmaydi.

Noan’anaviy darslarning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari

- O‘qitish mazmunini o‘z vaqtida yahshi o‘zlashtirish
- O‘qitish usullarining amaliyotda qo‘llash uchun sharoitlar yaratilishi
- Muloqotga kirishish
- O‘z ko‘nikmasining takomillashishi
- Mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchining shakllanishiga yordam berishi
- Nafaqat mazmunini o‘zlashtirishga yordam bermay balki, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish
- Motivatsiyaning yuqoriligi
- O‘sishi

- **Kamchiliklari**
- Ko‘p vaqt talab etilishi.
- O‘quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material
- O‘rganilayotganda ham o‘qituvchi rolining past bo‘lishi.
- “Kuchsiz” o‘quvchilar bo‘lganligi sababli
- “Kuchli” o‘quvchilarning ham past baho olishi.

O‘qituvchining o‘zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishining talab etilishi.

Noan’anaviy ta’lim jaaryonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar munosabatining o‘ziga xos jihati o‘quvchilar mustaqilligi va o‘quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta’lim olishda majburlash emas, balki o‘quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an’anaviy ta’limda ko‘zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o‘qitishdan voz kechish va uning o‘rniga:

– o‘zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;

– ta’lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o‘quvchilar o‘rtasida qiziqish uyg‘otish va ongli intizomni vujudga keltirish;

– o‘quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo‘llovchi hamkorlikning paydo bo‘lishi;

– muntazam faoliyatning tashkil etilishi;

– tegishli talablarni jamoa orqali qo‘llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Noan’anaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda:

– o‘rta saviyali o‘quvchiga nisbatan mo‘ljal olishdan voz kechish;

– o‘quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;

– ta’limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;

– o‘quvchilar o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;

– o‘quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish talab etiladi.

Noan’anaviy dars va o‘qituvchi faoliyati.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning so‘ngi bosqichida ko‘zda tutilgan sifat va samaradorlik ko‘rsatgichlarga erishish uchun ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni moderinizatsiya qilish va uni innovatsion shakl va usullarini amaliyotga joriy qilish shu kunning kechiktirib bo‘lmas dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun pedagogik texnologiyalarni ob’yekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, jarayonni tashkil etish, shakl va vositalari ilgarigi mavjud o‘qitish metodikasidan nimasi bilan farqlanadi, uni monitoringi va baholash tizimi qanday olib boriladi kabi savollarga javob berishga to‘g‘ri keladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari bo‘lgan o‘quv rejalari, dasturlari, yangi avlod darsliklari, davlat ta’lim standartlari fanning so‘nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin, moddiy bazalari mustaxkamlanmasin, moderinizatsiya qilinmasin, olinadigan piravard natija olish oxiri oqibat professor-o‘qituvchilarning kasbiy bilimiga, ko‘nikma, malakasiga, ijodkorligiga, pedagogik mahoratiga, intellektual saloxiyatiga, talabaning ma’suliyatiga va faolligiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Sir emaski ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlash talabaning o‘quv mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil dastur asosida mutoala bilan tinimsiz shug‘unlanishi, mustaqil fikrlay olishi, o‘z pozitsiyasini ximoya qilishi, tafakkur faoliyati ustida tinmay izlanishini taqozo etadi.

Talabalar bakalavrlik darajasini olgandan keyin o‘z egallagan kasbiga yangicha ma’suliyatli munosabatda bo‘lishi, o‘quv jarayonida islohotlarni olib

borish, zamonaiy texnologiyalar asosida mashg‘ulotlarni olib borish malakalariga ega bo‘lishiga erishish zarur.

Shuning uchun oliy ta’limda faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni texnologiyalashtirish, algoritmlash, loyixalash, modullashtirish, texnologik xaritalarni tuza olish va ular asosida ishlash malakasini egallab olishi zarur.

Ta’lim jarayonini olib borganda pedagogik motivlar, ehtiyojlar, manfaatdorlik, maqsadlarni ko‘zda tutish muhim hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat oliy ta’lim muassasalarida modulli va algoritmlar asosida mashg‘ulotlarni joriy qilish keng tus olmoqda.

Modul-pedagogik texnologiyani tashkil tarkibiy bo‘laklarni tashkil etuvchi tushuncha.

Umuman pedagogik texnalogiya asosini modullar va algoritmlar belgilaydi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo‘lib, ular go‘yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi “g‘ishtcha”lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega.

Algoritm-pedagogik texnologiya tarkibiy bo‘laklari, modullari o‘zaro joylashuvining ketma-ketligini avvaldan belgilangan tartibini (qoidasini) bildiradi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni: «Tashkil etish, hamkorlikda ish yuritish, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat etish, baholash kabilarni o‘z ichiga oladi».

Texnologiyalarning obyekti – ta’lim mazmunini texnologiyalashtirish jarayonidir. Texnologiyani predmeti – ta’lim jarayonini pirovard samarali natijasini olish shakli, usul va vositalarini belgilashdan iborat.

Texnologiyani maqsadi – ta’lim mazmunini modullashtirish, algoritmlash loyihalashtirish asosida o‘quvchining shaxsiy faolligi ishtirokida Davlat ta’lim standartlarini to‘la o‘zlashtirishni kafolatlashdan iborat.

Har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyani o‘z mashg‘ulotlariga qo‘llash uchun quyidagi texnologik xaritasidan foydalanishi mumkin:

• Mavzuni aniqlash;

• Maqsadni aniqlash;

• Mavzu yuzasidan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan kalit so‘zlarni Belgilash;

• Vazifalar 1,2,3.... Belgilab olish;

• Texnologik jarayonni tashkil etish:

1. Yakka ishlash;

2. Juft bo‘lib ishlash;

3. Kichik guruhlarda ishlash;

4. Katta guruhlarda munozara, savol javob, debat va xokazolar: (Mavzu mazmuni va vazifalar tabiyatiga moslari tanlab olinadi)

1. Reglament;

2. Baholash;

3. Xulosalar.

Tayyor holdagi texnologiyalar avval tajriba-sinovdan o‘tgan yuqori ko‘rsatgich berganlari istemolga kiritiladi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish asosida pedagogik tizimni yangilash asosida kechadi.

Keyingi vaqtlarda oliy o‘quv yurtlarida mashg‘ulotlarni loyixalashtirish asosida tashkil etish ham keng tus olmoqda.

Mashg‘ulotlarni loyixalashtirishda xar bir professor-o‘qituvchi oldida bir savol ko‘ndalang turishi kerak. Ya’ni xar bir mashg‘ulotning maqsadi, vazifasi, ketma ketligi, izchilligi, talabani faollashtirish uchun nima qilish kerak va uni amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

• O‘quv materiallarini tanlash, uni didaktik talablar asosida tashkil etish;

• Foydalaniladigan metod va jarayonlarni jixozlash;

• O‘z faoliyatini tashkil etish, talaba shaxsi bilan va guruxlarda ish faoliyatini tashkil etish.

Loyihalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda, mashg‘ulotni olib boruvchi professor-o‘qituvchi fidokorlik, ijodkorlik namunasini ko‘rsatishi, talabani ruxiy qo‘llab quvatlash, ularni extiyoj, qiziqishlar asosida piravard

maqsadga erishishga xarakat qilish. Quyida biz mashg‘ulot jarayonini loyixa asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

• Mavzuga oid materiallarni to‘plash;

• Ta’lim maqsadi va vazifalar mazmunini belgilash;

• Ta’lim shakli, metodi va vositalarini tanlash;

• Loyihada ko‘zda tutilgan tushuncha, bilim, ko‘nikma malakalarni

O‘zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt birligini hisobga olish;

• Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini ishlab chiqish;

• Mashg‘ulotni nazariy jihatdan olib borish uchun testlar, savollarni ishlab chiqish;

• Loyihani mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish;

• Mashg‘ulot jarayonini olib borish va yakunlash, xulosalar chiqarish mexanizmini yaratish.

Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Loyiha mazmunini ta’lim jarayonida to‘la o‘zlashtirib olishini kafolatlaydi. Mavzularda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni ta’lim standartlarini o‘zlashtirib olishga erishiladi.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llashda talabani shaxsi va uning qadri ta’lim jarayoni markazida turishi kerak. Iloji boricha jarayonlar individuallashgan tabaqalashtirgan holda olib boriladi.

Bunda asosiy e’tibor talaba faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy, mantiqiy fikrlay olish ko‘nikmasini shaklantirish, uni mustaqilligi, erkinligini ta’min etish, talabani extiyoj, qiziqishlari asosida ish yuritish, talabani ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil bilim olish ko‘nikma va malakasini oshirishni hosil qilishga karatmog‘i zarurdir.

Bu zaylda tashkil etilgan ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ilmiy ijodiy, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bunda holatning ta’lim jarayoniga, uning ijodiy muhitini yaratadi va sifat samaradorlik kafolatlanadi. Interfaol ta’lim zamonaviy darsdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda darslarni

tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan yuqori kasbiy malakali va bilimdon metodik mahotarga ega, zamonaviy interfaol texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirib olgan innovatsion faoliyatda ta’limni tashkil etadigan o‘quvchilarga talab oshib bormoqda. Interfaol ta’limda jarayon indivuduallashgan holda kechadi. Ta’lim jarayonida o‘quv faol ishtirok etadi. O‘quv bilim jarayoniga katta hissa qo‘shadi. Jarayonni olib borishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyat tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

– o‘quvchining o‘zaro faolligini oshadi;

– o‘quvchida o‘quv reja, dastur, darsliklar, standart me’yorlar asosida mavzu mazmunini o‘zlashtirib olish malakalari shakllanadi;

– ta’lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o‘zlashtirish ko‘nikmalari o‘qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas’uliyati oshadi;

– o‘quvchi erkin fikr bildirishi, o‘z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi;

– eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. O‘z navbatida darsni qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Ya’ni bu jarayonda o‘quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o‘quv materialinito‘la o‘zlashtirish kafolatlanadi.

– o‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o‘quvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Nihoyat o‘quvchi o‘z kuch va imkoniyatlaria ishonch bilan qaraydi.

Bizga ma’lumki, ta’lim modeli o‘z ichiga:

– passiv ta’lim

– faol ta’lim

– interfaol ta’limlarni oladi. Shulardan interfaol ta’lim esa o‘z navbatida:

– muammoli ta’lim

– loyiha asosidagi ta’lim

– kreativ ta’lim

– evristik ta’lim

– faol o‘yin asosidagi ta’lim

AKT ta’limlarini alohida, shu bilan birga keyingi vaqtlarda, masofali ta’lim, media ta’lim, onlayin ta’limdagi ta’limlar ham ta’lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Yuqorida nomlari keltirilgan ta’lim usullarida o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchaklik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqatlarida sodir bo‘ladi. Iterfaol ta’limning bosh asosiy maqsadi o‘quv jarayonida o‘quvchi uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratadi. U o‘zini intelektual salohiyatini to‘la namoyon etadi va o‘quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Ishchanlik o‘yinlari darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarni oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha guruhga aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv predmeti bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari, multimediya, sirtdan o‘quv kursi va boshqalar vositasidagi o‘tiladigan darslar.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo‘shliqlari bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusi bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirlar o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma’lumotlar berish orqali o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

«Sud» darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos «sud» jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklda ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi.

«Tergovni bilimlardan olib boradi» darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar sudlashadi, qiziqarli savol-javoblar, texnologiyalar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, ularning eslab qolishlariga qulaylik tug‘diradi.

Integral dars – bir nechta predmetlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarni turli predmetlarga qiziqishlari ortadi, faollik muhiti paydo bo‘ladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt orasida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchi-talabalarga erkin fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarni atroflicha kengaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Yuqori sinf o‘quvchilari bilan yangi texnologiyalarni o‘rganishda o‘zlashtirish va o‘quv jarayoniga qo‘llashda ko‘pgina trening mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Biz quyida treninglarni tayyorlash va o‘tkazish haqida fikr yuritamiz.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish va ta’minlashda trenerlarning ish faoliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Sir emaski, interfaol metodlarni maktab ta’lim jarayoniga kiritib avval ishni o‘qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash va malakasini oshirishdan boshlanadi. Uning uchun o‘qituvchilarni tayyorlash interfaol seminarlar, trening maxsus maqsadli qisqa kurslarida, ayrim hollarda shaxsiy dastur asosidagi mustaqil malakasinin oshirish jarayonida amalga oshirish yaxshi natijalar beradi.

Noan’anaviy dars shakllari, metodlari, vositalari.

Hozirgi zamon ta’lim usullari xilma-xil, ko‘p qirrali bo‘lib, o‘qituvchilar ana shu usullardan mashg‘ulotlardan samarali foydalana olish mahoratlariga bog‘liq. Noan’anaviy darslarda quyidagi ta’lim vostalari qo‘llanilishi lozim:

Ta’lim vositalari – o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta’limning texnik vositalari (TTV) – o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; o‘quvchilarga o‘quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.(Diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend, flipchart,videofilmlar yozuv taxtasi).

Yordamchi ta’lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. Boshq.

O‘quv – uslubiy materiallar (O‘UM) - o‘quv materiallar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Ta’lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

• Maqsadni belgilash;

• O‘quv axborot mazmuni;

• Ta’lim vositalari;

• Etakchi bilim manbai;

• O‘quv materialining yangiligi va murakkabligi.

1. O‘quvchilar shaxsini, ularning rivojlanishi va qobiliyatini hisobga olgan xolda guruhlarga ajratish. (guruhlarga ajratish ikki yo‘l bilan boradi; birinchi - o‘quvchilarning o‘z ixtiyorlari bilan guruhlanish, ikkinchi - o‘qituvchi talabi bo‘yicha guruhlanish).

2. Didaktik materiallar test, varaqalar, o‘quv vazifalari, o‘quv topshiriqlarini tayyorlash. Ushbu didaktik materiallarning o‘quvchilar mustaqil ijodiy ishga qay darajada mosligini aniqlash (testlar yordamida).

3. O‘quvchilar guruhining mustaqil ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi.

4. O‘quvchining o‘quv guruhlarga aloqadorlikka qo‘shgan hissasi.

5. Guruhdagi har bir o‘quvchining samaradorlikka qo‘shgan hissasi.

6. O‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi o‘zaro munosabat (hamkorlik, hamjihatlik, do‘stona tanqidiy).

7. O‘qituvchining o‘quvchilar guruhi yutuqlariga munosabati.

8. Guruhlar bilan ishlashda o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lish.

9. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini nazorat qilish va baholash (mavzuni to‘liq so‘rash, qisman so‘rash, ma’lumot tarzida so‘rash, algoritmdan foydalannsh, muammoni hal qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish).

10. Darsni yakunlash va guruh o‘quvchiliri xamda yakka tartibda qatnashishini tahlil qilish.

Quyida asosiy kasbiy mezonlar berilgan bo‘lib, ulardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Ta’limimiz tajribasida vujudga kelgan noan’anaviy usullar

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bulib chiqish, urganilayotgan tushunchalar (vokea va xodisalar, mavzular) urtasidagi aloka va uzaro bogliklikni urnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B.B.B. jadvali

Ma’lumotlarni taxlil kilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali,

Venna diagrammasi

Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari:

“Nima uchun?”, “Balik skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” ierarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy-mantikiy sxema Klaster (Klaster-tutam, bog‘lam) – axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z

bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo‘ldoshlarda”, “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

B.B.B. jadvali – Bilaman / Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo‘limlarini to‘ldiradilar. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

Veynn diagrammasi – 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Diagramma Veynn tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik gurhlarda diagramma Veynni tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to‘ldiradilar

Juftliklarga birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar

Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo‘lgan, ma’lumotlar ro‘yxatini tuzadi. “Nima uchun?” sxemasi “Nima uchun?” sxemasi

muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

“Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun?” so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmlarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar.

1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.

2. Chizmaning ko‘rinishini – mulohazalar zanjirinito‘g‘ri chiziqlimi, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.

3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.

“Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Alohida kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmlarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalarining taqdimoti.

Grafikli organeyzerlardan tashqari biz quyidagi interfaol darslarni keltirib o‘tamiz.

1. Konferentsiya darsi.
2. Matbuot konferentsiyasi darsi.
3. Uchrashuv darsi.
4. Musobaqa darsi.
5. Estafeta darsi.
6. Simpozium darsi.

7. Seminar darsi.

8. Sinov darsi.

9. “Kim oshdi savdosi” darsi.

10. “Zakovat” darsi.

11. Ijodiy darsi.

12. Sahnalashtirilgan darsi.

13. Kontsert darsi.

14. “Loto” darsi.

15. “Bayram” darsi.

16. O‘zaro o‘qitib o‘rganish darsi.

17. Dala darsi.

18. “Ishchan o‘yinlar” darsi.

19. Ijodiy ishni himoya qilish darsi.

20. Debat darsi.

21. “Tayanch” signallarga asosalangan darsi.

22. Sud darsi.

23. Xayoliy sayohat darsi.

24. “Mo‘jizalar maydoni” darsi.

“Zakovat darsi”

Bu dars orqali o‘quvchilarni intlektual rivojlantirish ancha samarali hisoblanadi. Odatda, ma’lum fanning muayyan bob yoki bo‘limi yakunlangach bunday darslarni tashkil etib o‘tkazish ancha samarali hisoblanadi. Darsni o‘tkazish tartibi quyidagicha:

I. Sinfdagi bilimli, zukko o‘quvchilardan 6 nafari tanlanib “zakovat” klubi tashkil etiladi.

II. Boshlovchi (a’lochi o‘quvchi yoki fan o‘qituvchisi) 10 kun oldin sinfdagi xar bir o‘quvchidan dars mavzulariga mos 2 tadan qiziqarli savol- topshiriqlari tuzdirib oladi va topshiriqlarini to‘plashni tashkil etadi. Topshiriq mazmunining maxfiyligi ta’minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralanib tanlanadi.

III. “Zakovat” darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 1 daqiqa ichida savollarga umumguruhda (6 kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o‘yinda komanda a’zolari yoki tomoshabinlar g‘olib bo‘lishi mumkin. 3 kishidan iborat hakamlar xay`ati, berilgan savollar xamda javoblarni baholab beradilar. Eng yaxshi savol ya’ni, eng zukko “zakovat” klubi ishtirokchisi qimmatbaho kitoblar bilan takdirlanib boriladi.

“**Musobaqa darsi”**

“Musoboqa dars” larini umumiy o‘rta ta’lim fanlarining barchasida qo‘llash samarali natija beradi. Odatda, bob bo‘limi yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan darslarda uni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu darsni o‘tkazish tartibi quyidagicha bo‘ladi:

I. Sinfdagi o‘quvchilar qatoriga qarab 3 ta komandaga ajratiladi. Ularga nom qo‘yiladi. Emblema tayyorlanadi. Sardorlar tayyorlanadi.

II. Uch kishidan iborat xakamlar xayati tuziladi. O‘qituvchi dars mavzusi yuzasidan 60 ta savol va har bir savolga mos ravishda 60 ta yulduzcha tayyorlaydi.

Har bir to‘g‘ri javobga 1 ta yulduzcha beriladi.

Darsning borishi quyidagicha amalga oshiriladi:

1) 5 minutlik musiqali pauza. Komandalar o‘z nomlarini izohlab, o‘z shiorlarini e’lon qiladilar.

2) Uy topshirig‘i (eng original bajarilgan uy ishi – 5 balgacha baholanadi).

3) O‘ylab top! Musobaqasi har bir komandaga 10 tadan qisqa, qiziqarli savol beriladi. To‘g‘ri javob yulduzcha bilan taqdirlanadi.

4) Sardorlar bahsi-mavzu yuzasidan 3 tadan qiziqarli savolllar beriladi, to‘g‘ri javob yulduzcha bilan taqdirlanadi.

5) Rassomlar konkursi – har komandadagi bir rassom o‘quvchi tanlanib, u dars mavzusiga atab rasm chizib xakamlar xay’atiga topshiradi.Dars yakunlanib xulosa chiqariladi.

Ishchan o‘yinlar darsi

Bunday darslarni barcha o‘quv fanlaridan o‘quv yili oxirida, bulim yoki boblarni yakunlash jarayonida o‘tkazish tavsiya etiladi. Ishchan uyinlarni tashkil etish, ayniksa 10-11 sinflada juda yuqori samara beradi. Insoniyat oldida turgan global muammolar, iktisodiyot, til va madaniyat, inson solomatligi va hokazo dolzarb mavzular mazmunini yoritishda bunday darslarni qo‘llash muhim azamiyatga egadir. Ishchan uyinlarni o‘tkazish tartibi quyidagicha. Sinf o‘quvchilari maxsus guruhlarga ajratiladi.

1. Birinchi guruh – ilmiy g‘oyalar, ilmiy taxminlar turli sohalardagi ilmiy loyihalar tuzish, ularni mazmunini tushuntirish va himoya qilish bilan shug‘ullanadi (4-5 ta bilimdon o‘quvchidan iborat).

2. Ikkinchi guruh – yordamchi guruh bo‘lib, u kerakli ma’lumotlarni to‘playdi. Qo‘shimcha adabiyotlarni, ma’lumotnoma-spravochniklarni birinchi guruhga etkazib beradi (4-5 nafar o‘quvchidan iborat).

3. Uchinchi guruh – ijrochi guruh bo‘lib birinchi guruh bergan topshiriqlarni bajaradi va ijroning borishi haqida axborotlar tayyorlab beradi.

4. To‘rtinchi guruh – nazorat guruhi hisoblanib, ularga nazorat kartochkalari to‘ldiriladi va 1-chi xamda 3-chi guruhlarga berib turadi.

5. Ilmiy kengash guruhi – olimlar, iqtisodchilar, yuristlar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari. Dars haqida yakuniy xulosa beradi.

5 “Daqiqa” usuli

Bu interfaol usulni xohlagan fanning xohlagan mavzusini o‘rganish jarayonida qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, birbirining nima yozayoganligini ko‘rmasin. Usulni o‘qituvchi yoki a’lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi 5 daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart.

Biz yuqorida ta’limning interafaol metodlari haqida to‘xtalib o‘tdik. Bu metodlardan adabiyot va boshqa fanlarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kitobxonlarda o‘qish madaniyatini tarbiyalashning maqsad va vazifalariJamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e‘tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog‘da mutolaa madaniyatini ta’lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma’lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar-kitoblar (badiiy, ilmiy, o‘quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo‘llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a’zolari,...) orqali ega bo‘linadigan turli yo‘nalish va shakldagi umumiy ma’lumotdan farqlash lozim bo‘ladi» 2. Professor E.I.Yo‘ldoshev «O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi»

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan

o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan m’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to‘liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Safo Matjon: «Kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80- yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F. Asmus o‘zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta‘rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi X.To‘xtabouev, – kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir».

«Axborot olish madaniyati» kontekstida uning tarbiyaga muhtoj elementlarini aniqlaymiz:

O‘qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyokni shakllantirish;

O‘qilgan kitob orqali fikrlash yo‘llarini o‘rgatish;

Mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish.

Ta’lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta’lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi.

Ta‘lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashkari, anikrogi axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shugullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot-kutubxonachilik bilimlarining o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma’lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma’lumotlarbazalarihaqidaaxborotgaegabo‘lish, ulardanfoydalanishnio‘rganishkabilarkiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, jo‘n narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o‘tish lozim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o‘tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o‘qituvchi va kutubxonachi o‘tkazadigan soatlar, darsni o‘tkazish joyini, ya’ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o‘tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko‘pgina o‘qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo‘lsalar-da,

axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o‘qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma‘ruzalar o‘qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o‘tish qoidalari, uslubiyotini o‘rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya’ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o‘tkazishning aniq shakllarini ishlab chiqish zarur.

Maktabdaoquvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo‘lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma’naviy yuksalishi bilan bog‘liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir. Shu sababli ham mazkur muammo ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan kompleks o‘rganishni taqozo qiladi. Binobarin, tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, kutubxonada o‘quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi pedagogika, psixologiya, falsafa, adabiyotshunoslik, sosiologiya kabi kator fanlar erishgan yutuqlarga tayangan holdagina hal etilishi mumkin.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ma’lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo‘lmasdan, inson umr bo‘yi o‘rganadigan ma’naviy ehtiyojdir.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda maktab – oila – kutubxona hamkorligini yolga qoyish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot olish madaniyatini tarbiyalashdagi asosiy vazifalarni belgilash zarur.

Axborot-kutubxona muassasalarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganmasdan turib, haqiqiy

kitobxonni kamol toptirish mumkin emas. Xususan, Axborot-kutubxona muassasalarda foydalanuvchilarning yosh xususiyatlari, tipologik jihatlari, ularning psixologik tayyorgarligi, ayniqsa, ulardagi fiziologik o‘zgarishlar albatta hisobga olinishi zarur.

Axborot-kutubxona muassasalarida o‘quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalashda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga jiddiy e’tibor qaratilishi lozim:

kitobxonnning oilaviy sharoiti, oilada Axborot-kutubxona muassasasining bor-yo‘qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o‘rganish;

umumta’lim muassasasi dasturidagi fanlarni hisobga olish, bolaning qiziqishlari doirasini aniqpash hamda shunga muvofiq tarzda yakka va ommaviy rahbarlik yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish;

o‘quvchida o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirib borish, axborot olish malakalarini shakllantirish;

o‘quvchining yosh xususiyatlari va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli-tuman ommaviy shakllardan samarali foydalana olish, mavjud sharoitdan kelib chiqib yangi shakllarni izlab topish va amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘lish;

o‘quvchilarni axborot olishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, ularni Axborot-kutubxona muassasalariga, mutolaaga kengroq jalb qilish;

o‘quvchilar o‘rtasida axborot-kutubxonachilik bilimlarini keng targ‘ib qilish.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashning asosiy ma’suliyati kutubxonachilar zimmasiga tushadi. Bu jarayon esa mutaxassislardan juda katta pedagogik mahoratni, professional bilimni, eng muhimi, oz kasbiga bo‘lgan fidoyilikni talab etadi. Bu asosan kutubxonachi kadrlar tayyorlash jarayonida shakllanadi. Shu sababli ham kutubxonachi kadrlarga bo‘lgan talabni kuchaytirishga, ta’lim sifatini oshirish zarur.

Mashhur fransuz faylasufi Frans Bekon “Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir” deb bejiz aytmagan. Zero, kitob aqlni charhlaydigan, aql bulog‘ini ochadigan va uni ilhomlantiradigan buyuk mo‘jizadir.

Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘usini paydo qiladi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas’uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o‘zi ham yuksak didga ega va ma’rifatli va bilimli bo‘lishlari kerak. Ma’lumki, bola kitob o‘qishni bilgan taqsirdagina, kitob uning ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Kitob bolaning ma’naviy boyishi uchun uni ma’naviy, aqliy, estetik o‘sishga yo‘llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o‘qib berilgan birinchi kitob bo‘lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o‘qishini eshitib, badiiy obrazlar go‘zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o‘smirlik davrida uning ma’naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o‘yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o‘smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o‘yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma’nan barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson ma’naviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob, kitobxonlikdir.

Kitobxonlik - bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o‘ylashga, hayotda qanday yashashga o‘rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma’naviy o‘gitlarini ilg‘ab olish va bular asosida o‘z hayot yo‘li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o‘qigan kitobidan yangilik topish, ma’naviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo‘llasa, uni o‘qimaslik johillikka, ma’rifatsizlikka olib kelib, natijada ma’naviy bolada qashshoqlik

yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Oila kitobxonligi bu - oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi.

O'zbek oilasi bugun eski totalitar jamiyat mafkurasi singdirilgan kitoblardan voz kechmoqda. Yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan kitoblar tanlanmoqda. Bu jarayonda kitobxonlik pasayganday ko'rinsa ham, aslida u sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'smirlar ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. O'smirlarda kitob o'qish ishtiyoqinishakllantirish. Nihoyatda murakkab bo'lgan. Bu masala o'smirlarning kitobxonlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, o'smirlarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo'lgan kitoblar tanlash qo'l keladi.

2. Kitob tanlashda o'smirning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o'smirda kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni keng targ'ib qilish o'smirlarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak. Kitob tanlashda o'smirning yosh xususiyatini

hisobga olish o‘smirning rasional o‘sishiga olib kelsa, ma‘naviy darajasini hisobga olish esa intellektual rivojlantiradi. Bu esa rasionallikdan ko‘ra keng qamrovli va samaralidir. Oiladagi kitobxonlik ruhi bevosita bola ruhiyatiga ham ta’sir etadi, shu sababli, bunda birinchi galda badiiy adabiyotni, keyinchalik ixtisosliklar bo‘yicha kitoblarni tavsiya etish mumkin.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O‘qituvchi, ota-ona o‘smirni kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo‘lini tutishi kerak. Bu borada eski texnologiya – o‘smir yuqori sinfga o‘tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim.

Aksincha, dastlabki (boshlangich) bosqichlardanoq o‘smirning ma’naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi, dunyoqarashi va ruhiy xususiyatlari hisobga olinib, ixtisoslashtirilib borilishi kerak. Bu tajriba Amerika ta’lim tizimida o‘zini oqlagan. Ularda bolani 12 yoshga qadar ixtisoslashtirishga harakat qilinadi va shunga qarab kitob tanlab beriladi. Bu dastlab mutaxassislarni cho‘chitgan edi, lekin Amerika ta’lim tizimining keyingi 30 yillik tajribasi o‘smirlarni boshlang‘ich sinflardayoq ixtisoslashtirish samarali ekanligini isbotladi. Natija o‘smirda mustaqil fikrlash va harakat qilishga intilishning paydo bo‘lishiga erishildi.

4. Kitobni ekspertizadan o‘tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Tabiiyki, bu hol turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu ma’noda ota-ona bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma‘no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko‘rigidan o‘tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan chalgimaslikka, o‘smir ma’naviy dunyosining to‘g‘ri shakllanishiga va qo‘yilgan maqsadga etishish uchun olib keladi. Bu tajriba o‘zbek milliy pedagogikasi tajribasidan ham ma‘lum. Ular talabga javob bermaydigan kitobni o‘z farzandiga o‘qishni qat‘iy taqiqlagan. Bugun ham bu tarbiya jihati muhim sanaladi.

5. Kitob o‘qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo‘lgan kitobxonlik bilan ko‘proqqiziqishi kerak. Shu

ma’noda o‘smirlar kitobxonligini monitoring kilib borish maqsadga etishning samarali jihatlaridan biridir.

Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar, sotsiologik-empirik tadqiqotlar va analitik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Ma’lumki, kitobxonni avvalo kitobda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Asta-sekin bu kizikish uning hissiyotiga ta’sir etib, tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslay boshlaydi, tasvirlardagi go‘zallikni anglay boshlaydi, qahramonlarning xarakteri haqida o‘ylay boshlaydi, muallifning maqsadi bilan qiziqadi. Faqat bu borada biz kitob vositasida tarbiyalashning yangi usul va mexanizmlarini yaratishimiz lozim.

Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda, ayniqsa, o‘smirlarning yoshi, ruhiyati, qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Shu bilan birga bola o‘qiyotgan har bir badiiy asarning tarbiyaviy jihatlariga ham e’tibor berish zarur.

Kitob tanlashda faqat o‘zbek adabiyotigina emas, qardosh va chet el adabiyoti namunalaridan ham bolalarga tavsiya etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sh.Pero Orinyanning “Qizil shapkacha”, aka-uka Grimmlar, Mark Tven, Xans Xristian Andersen, Janni Rodari, Jonatan Svift, Rasul Gamzatov, Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, A.S. Pushkin asarlari, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, S.Marshakning hikoyalari doimo bolalar uchun qiziqarli.

Oilalarda yana bir muhim muammo - kitobni asrash va uni o‘zidan keyingi oila a’zolariga yoki boshqalarga yetkazishdir. Ko‘pincha biz kuzatgan oilalarda kitob tanlash, uni o‘qishga e’tibor beriladi-yu, lekin avaylab-asrashga, kitobga mehrni tarbiyalashga befarq qaraydilar. Kuzatishlar natijasida darsliklar, juda ko‘p rangli bolalarbop kitoblar yirtilib, chizilib, axlat qutilariga tashlanganligining guvohi bo‘ldik. Bolalarga “Kitob ham nondek aziz”ligini tushuntirishda kattalarning o‘zi ibrat bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz doimo kog‘ozni uvol qilmanglar, uni avaylab-asranglar deb kelganlar. Bu an’anani yosh avlod ongiga singdirish bir

tomondan bolalarda kitobni asrash eng muhim insoniy hislat sifatida shakllantirsa, ikkinchi tomondan hozirgi bozor iqtisodi sharotida kitob zahirasini yaratish muhim omil sanaladi. Ayniqsa, serfarzand oilalarda xoh darslik bo‘lsin, xoh badiiy yoki ommaviy adabiyotlar bo‘lsin, ular har bir xonadon a’zosiga o‘zidan keyingi oila a’zolariga ham kerakligini tushuntirish asosiy vazifalardandir.

Hozirgi davrda televizor qisman kitob o‘qishni siqib chiqarayotir, degan e’tirozlar ham paydo bo‘lmoqda. Lekin televizorda biror ko‘rsatuvni ko‘rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o‘ziga qulay sharoit yaratadi. Teledasturlar qaysi ko‘rsatuvni qachon ko‘rishga o‘rgatadi. Agar kitob o‘qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratsa, televizor ko‘rish va tanlab kitob o‘qishni, qiziqib o‘qishni o‘rgatsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg‘otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Faqat allomalargina emas, ko‘plab oddiy insonlar ham kitobni asrab-avaylaydilar. Xalqimiz azaldan “Kitob har narsadan aziz, uni peshonaga surtish – o‘pish savob”, deydi. Buyuk olimu adiblarimiz Oybek, G‘afur G‘ulom, Izzat Sulton, Mirzakalon Ismoiliy va boshkalarning uy muzeylariga ota-onalarning o‘z farzandlari bilan sayohatlarida bu insonlar uchun kitobdan boshqa aziz narsa bo‘lmaganligi, ular kitoblarni avaylab-asraganlari, juda ko‘p o‘qiganlari ma’lum bo‘ladi. Zero, xalqimizning kitobni e’zozlab ardoqlagani, nam tegmaydigan tokchalarda asragani, bo‘sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o‘tkazganlari kitobga nakadar mehr-muhabbat qo‘yganlarning guvohidir.

Bularning barchasi o‘smirlarda shaxsiy kutubxona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob yig‘ishda uni ko‘z-ko‘z qilish emas, balki o‘z oilasidagi farzandlari va ularning do‘stlarini ham bahramand qilishga olib keladi.

Olimlarning fikricha, bir odam butun umri davomida 2000 ta kitob o‘qiy olish imkoniyatiga ega ekan. O‘smirlik yillarida bola o‘qigan kitob unda bir umrga iz qoldirishi muhim. O‘smir endi bolalik davridan o‘tgan. U o‘qigan kitobidan mamnun bo‘lib, zavq bilan o‘qishi zarur. U endi kitobni yozuvchining badiiy mahoratiga qoyil qolib, so‘zning hissiy bo‘yog‘idan ta’sirlanib, uni idrok qilib o‘qishga o‘tadi. Shunday ekan, u o‘ziga yoqib kolgan kitoblar bilan oilasining

shaxsiy kutubxonasini boyita boradi yoki o‘zi shaxsiy kutubxona tashkil etish tashabbuskori bo‘ladi.

Shaxsiy kutubxona egalarining qiziqishlari turlicha bo‘lishi mumkin: mamlakatlar tarixi, ajoyib kishilar hayoti, ilmiy-fantastika, sayohatlar to‘g‘risida kitoblar, tarixiy qissa va romanlar, poeziya, san’at sohalariga doir kitoblar shular jumlasidandir. Badiiy adabiyotlar tarkibida qayta-qayta o‘qiladigan yoki sevimli yozuvchilar tanlangan asarlarining bo‘lishi ham maqsadga muvofiqdir. Bir marta o‘qiladigan kitobni ommaviy kutubxonalardan olib o‘qigan ma’qul. Bolalar kutubxonasi uchun kitob tanlaganda, asosan, turli yoshdagi bolalarni hisobga olish kerak. Ular uchun turli millat yozuvchilarining ertak, sarguzasht, ilmiy-fantastik kitoblarni ham ko‘paytirish darkor. Bu ularning tafakkuri rivojlanishiga katta zamin tayyorlaydi. Darhaqiqat, mashhur pedagoglardan biri ta’kidlaganidek: «Kitob mutolaasi bilan o‘tgan hayot – fikrlar go‘zalligi bilan oshno bo‘lish, madaniy boylikdan huzur qilish, o‘z-o‘zini yuqori ko‘tarishdir». Barkamol avlodni voyaga yetkazmoq uchun ularni kitob bilan oshno qilishimiz, kitobni mayoq qilib qo'llariga tutqazishimiz lozim. Qalb tarbiyasini esa, biz kattalar o‘zimizdan boshlashimiz kerak. Har bir oilada kam sonda bo‘lsa-da, kitoblar bo‘ladi. Aksariyat hollarda esa bir necha o‘nlab, yuzlab, minglab kitoblar bilan oila kutubxonasi bo‘lishi mumkin

Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a’zolari ko‘magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o‘qishga munosabati katta ta’sir korsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o‘qishda ham bolalariga o‘rnak bolishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o‘qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini sorash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o‘rganish (aniqrog‘i o‘rganish) muhimdir.

Kitobxon - o‘quvchi oilada o‘rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik,

qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-tokatlilik fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta’sirchan shaklda ifodalandiki, unda o‘smir yoshdagi kitobxon ko‘p fazilatlarni o‘rganish, ma’nan boy shaxs bo‘lib shakllanishi mumkin.

Olimlar, ziyolilar, mamlakat va millat kelajagi uchun chuqur qayg‘urganlarni yaqin-yaqingacha bir narsa qiynab kelardi: nega yoshlarimiz, umuman, fuqarolarimiz o‘rtasida kitobxonlik madaniyati pasayib ketdi, nima uchun yerdan ko‘kka ko‘taradigan, bizni barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug‘lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot – kitobning qadri tushib ketmoqda? Ne sababdan ayrimlar kitob o‘qiganlarni zamondan orqada qolayotganlar qatoriga qo‘shib qo‘ymoqda?

Darhaqiqat, bu savollar barchamizni qiynar edi. Men shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yil 19- oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s’yezdidagi saylovoldi ma’ruzasida bildirilgan ayrim fikrlari xususida to‘xtalmoqchi edim. Ma’ruzada bugungi kunda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emasligiga e’tibor berilgan.

“Ayni paytda, – deydi Shavkat Miromonovich, – axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga,aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga

alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. (“XXI asr”, 2016, 20-oktabr).

Gapning ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, ushbu fikrlar mamlakatimizdagi barcha ziyolilar, millat kelajagi, uning ma’naviy barkamolligi uchun tashvishda bo‘lganlarning yurak-yuragidagi gap bo‘ldi. Kitob barchamizga charog‘on yo‘lni ko‘rsatishini, ma’naviy olamimizni shakllantirishini, kelajakdagi yagona yagona to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam berishini bilsakda, uni o‘qimasak, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligini tushunsakda, ammo uni “kult” darajasiga ko‘tarmasak-bu holda bizning kitob to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz xato bo‘lmaydimi?

Ana shu fikrlar bilan oshno bo‘lib turganimizda, kechagina muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017-yil 12-yanvar)gi farmoyishi e’lon qilindi. Mazkur farmoyish kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko‘targanligi bilan izohlanadi. Ta’kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta’lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitobsavdota’minot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Farmoyishning ibratli jihati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini

oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta’lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag‘lar yetarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar hisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta’lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga alohida e’tibor berilgan.

Foydalanish tavsiya etiladigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2.Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

4.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

5.Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 80 b.

6.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.–176 b. 7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.– 440 b.

8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T:. “O‘zbekiston”, 2015. – 302 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2014.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 5106-son Farmoni.

5.2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-sonli Qarori.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3289sonli Qarori.

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №140-sonli Qarori.

8.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 187-sonli Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1.Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. № 4, 6073 betlar.

2.Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.

3.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.

4.Azizxo‘jaeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.

5.Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori. – T.: Sharq, 1998.

6.Aktivnыe formы prepodavaniya literaturы. Lektsii i seminarы na urokax v starщix klassax (sostavitel: R.I. Albetkova). – M.: Prosveщenie, 1991.

7.Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 631 b

8.Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000.

9.Angelovskiy K. Uchitelya i innovatsii. Kniga dlya uchitelya. Perevod s makedonskogo V.P.Didenko – M.: Prosveщenie. 1991.

10.Anisimov V.V., Groxolskaya O.G. Podgotovka budushchix uchiteley po predmetam pedagogicheskogo tsikla // J.. Pedagogika. – 2000. № 9 54 – 60 s.

11.Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san’at. – T.: Fan, 2006.

12.Baubekova G. Pedagogicheskoe masterstvo. – T., 2000.

13.Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.

14.Bekmirzaev N. Notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2006.

15.Voiteleva T.M. Teoriya i metodika obucheniya russkomu yazыku. – M.: Drofa,2006.

16.Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.

17.Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: Nihol, 2013, 2016.

18.Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.

19.Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – T.: Muharrir, 2011.

20.Kovshikov V.A., Puxov V.P. Psixolingvistika. Teoriya rechevoy deyatelnosti. – M.: Astrel, 2007.

21.Litnevskaya Ye.I., Bagryantseva V.A. Metodika prepodavaniya russkogo yazыka v sredney shkole. – M.: Akad.proekt,2006.

26.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...G‘G‘ O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. – 5-son, 3-16-betlar.

27.Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

28.Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. Filolog-magistrlar uchuno‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2003.

29.Rasulov A. Mustaqillik davri adabiyotining nazariy-metodologikasoslari. – T.: Ma’naviyat, 2012. 30. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

31.O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. – T.: Turon-iqbol, 2011.

32.Qodirov P. Til va el. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

III. Elektron ta’lim resurslari

1.www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti

2.www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

3.www.bimm.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz

4.www.giu.uz – Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi:

5.www.school.edu.ru – Umumta’lim portali (rus tilida)

6.www.alledu.ru – “Internetda ta’lim” portali (rus tilida)

7.www.rostest.runnet.ru – Test olish serveri (rus tilida)

8.www.allbest.ru – Internet resurslari elektron kutubxonasi (rus tilida)

9.www.mathtype.narod.ru - Online-darsliklar (rus tilida)

10.www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali

11.www.istedod.uz – “Iste’dod” jamg‘armasi sayti

12.www.edunet.uz – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti

13.www. tdpu.uz – Nizomiy nomidagi TDPU sayti